$$g\sin\gamma\sin\varepsilon + f_2 N_2\cos\beta - f_1 N_1\cos\alpha - N_1\sin\alpha = 0 \qquad (3)$$

Reaksiyalar:

$$N_1 = \frac{g\sin\gamma\sin\varepsilon\sin\beta - g\cos\gamma\cos\beta}{f_1\sin(\alpha+\beta) - \cos(\alpha+\beta)}; \qquad (4)$$

$$N_2 = \frac{(g\sin\gamma\sin\varepsilon\sin\beta - g\cos\gamma\cos\beta)(\cos\alpha - f_1\sin\alpha)}{f_2\sin\beta[f_1\sin(\alpha+\beta) - \cos(\alpha+\beta)]} - \frac{g\cos\gamma}{f_2\sin\beta}$$

(1) tenglamasini uchunchi qismiga

$$\frac{d\varphi}{dt} = \frac{v\sin\beta}{\alpha} = \frac{\omega_0 \cos\alpha \sin\beta}{\sin(\alpha+\beta)}$$ qo‘yilganda quyidagini olamiz:

$$\frac{f_2\left[\omega_0^2 r \sin^2\alpha\cos^2\beta + g\sin\gamma\cos\varepsilon\sin^2(\alpha+\beta)\right]\left[\cos\beta - \sin\beta tg(\alpha+\varphi_1)\right]}{g\sin^2(\alpha+\beta)\left[\cos\gamma tg(\alpha+\varphi_1) - \sin\gamma\sin\varepsilon\right]} = 1 \qquad (5)$$

Bu burchakli ko‘rsatkichli tenglama shnekli konveyer uchun taa’luqlidir.

Bajarilgan tadqiqotlarga ko‘ra, hajmni qayta tiklanishi kichik kattalikka ega va Ks = 1,02 -1,05 oralig‘ida bo‘ladi, bu esa A va V nuqtalardagi tezliklar har xilligini ko‘rsatadi. Ishni nazariy qismida tukdorligi 10-13%, bo‘lgan chigitlarni yopiq fazoda joylashuvida, solishtirma bosim 0,39 n/sm2 va ichki ishqalanish koeffitsienti μ =0,64-0,65 bo‘lganda, siljishga qarshilik kattaligi harakatlanishda kelib chiqadigan bosim kattaligini ortishi bilan o‘zgaradi. Ammo real sharoitlarda chigitlar massasi, to‘ldirish koeffitsientini kichikligi sababli, (tashish jarayonida chigitlarni shikastlanishi sababli) konveyer qobig‘ida zichlashish imkoniyatiga ega emas, shu tufayli qobiqda, ayniqsa uni yuqori qismida, ko‘p bo‘sh joy qoladi. [9]

Chigitlarni po‘lat bo‘yicha ishqalanish koeffitsienti, qobiq bo‘yicha massani tezligi 0,5 m/s bo‘lganda va aylanma harakat hisobga olinmaganda, μ=0,35 ni tashkil etadi. Ammo real sharoitlarda chigitlar massasi qobiq bo‘ylab to‘g‘ri chiziqli harakatlanish bilan birga, chigitlar massasini o‘z o‘qi atrofida aylantirishga harakat qiluvchi vintdan qo‘shimcha siljish oladi. Vint keltirib chiqarayotgan kuch parraklarni chigitlar massasiga ishqalanish kuchi, chigitlar massasini bosimiga bog‘liq holda qobiq vintiga ishqalanish koeffitsienti, yuza g‘adir-budurligi va shnekli konveyerni chigitlar massasi bilan to‘ldirish koeffitsientiga ψ bog‘liq bo‘ladi.

Natijalar tahlili. Ko‘pchilik ilmiy tadqiqot ishlarida chigitlar massasini qobiq o‘qi bo‘yicha siljish tezligi V_o va radial tezlik V_r shnekli konveyer parragiga tegish nuqtasidagi massa tezligini asosiy tashkil etuvchilari deb qaralgan. Ammo, chigitlar massasini qobiqqa ishqalanish kuchi chigitlar massasini shnekli konveyer parragiga ishqalanish kuchidan kam bo‘lsa o‘q bo‘ylab siljish kamayadi va chigitlar massasini konveyer vinti o‘qi atrofida aylanishi ro‘y beradi. Bu massani to‘xtashiga va shnekli konveyerda tiqilishlarni hosil bo‘lishiga, ya’ni har qanday shnekli konveyerda passiv doirasi bo‘ladi. [10] Shnekli konveyerda harakatlantiruvchi kuch shnekli chiziqni β qiyalik burchagiga bog‘liqligi e’tiborga olinsa, uning qiymati, chigitlar massasini tashish jarayonining me’yorli harakatini ta’minlash uchun, μ ishqalanish koeffitsientiga bog‘liq tarzda aniqlanishi kerak bo‘ladi. Shnekli konveyerni ishchi yuzasidagi passiv doirani chegarasi mezoni

bo‘lib yuzani ko‘rib chiqilayotgan qismini $\alpha_{ш}$ burchagi xizmat qilishi mumkin. Agarda $\alpha_{ш} \rangle \lambda_0$ bo‘lganda, nuqta doira chegaralari tashqarisida bo‘ladi. $\alpha_{ш} \langle \lambda_0$ bo‘lganda nuqta uni chegaralarida yotadi; $\alpha_{ш} = \lambda_0$ bo‘lganda esa, nuqta passiv doira chegarasida bo‘ladi. Nuqtalarni yuzalardagi joylashuvini α va ρ ikkita silindrik koordinatalar bilan tasniflash mumkin.[5]

Agarda ω-materialni absolyut burchak tezligi, $\zeta = \delta$- konveyer o‘qini gorizontga qiyalik burchagi bo‘lsa, u holda:

$$\cos\lambda_0 = F(\omega,\rho,\alpha) = \frac{1}{\sqrt{1+\left(\frac{\omega^2}{g}\right)^2 \rho^2 - 2\frac{\omega^2}{g}\rho\cos\xi\cos\alpha}} \left[\frac{\sin\xi}{\sqrt{1+\left(\frac{S}{2\pi\rho}\right)^2}} + \frac{\cos\xi\sin\alpha}{\sqrt{1+\left(\frac{2\pi\rho}{S}\right)^2}} \right] \quad (6)$$

(6) ni soddalashtirish uchun tenglamadagi burchakli tezlikni nolga teng deb qabul qilamiz, ya’ni kichik burchakli tezlikda ham unumdorlik koeffitsienti deyarli o‘zgarmaydi deb hisoblaymiz, u holda gorizontal konveyerni passiv doira maydonini topish mumkin:

$$f = \left(\frac{S}{4\pi\cos\lambda_0}\right)^2 \left(\sin 2\lambda_0 - 2\lambda_0\cos 2\lambda_0\right) \quad (7)$$

Shunday qilib, chigitlar massasi shnekli konveyer qobig‘i bo‘ylab butun vint qadamiga teng uzunligida harakatlanishida, shnekli konveyer vinti qadamiga, shnekli konveyerni to‘ldirish koeffitsienti ψ ga, chigitlar massasi qovushqoqligi Ks ga bog‘liq holda, o‘zgaruvchan tezlik bilan siljiydi. Yuqoridagi keltirilgan formula yordamida shnekli konveyerlar oraliq tayanchlari atrofida tiqilishlar hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi passiv doiralar qiymatlarini va dispersiyali muhitni siljish samaradorligini aniqlash mumkin.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shnekli konveyerda paxta chigiti massasining harakati murakkab ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u mexanik kuchlar, inersion ta’sirlar hamda materialning fizik-mexanik xususiyatlari o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Materialga ta’sir etuvchi asosiy kuchlar — og‘irlik, ishqalanish, me’yoriy reaksiyalar va inersiya kuchlari (markazdan qochma, Koriolis va aksial kuchlar) harakat xarakteri va yo‘nalishini belgilab beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar natijasida shnekli konveyerda paxta chigiti massasining siljish jarayoni ko‘p omilli va murakkab fizik-mexanik tizim ekanligi aniqlandi. Jumladan, massa harakatining samaradorligi bevosita shnekning asosiy konstruktiv va kinematik parametrlariga — aylanish tezligi, vint qadami, radiusi (diametri), parrak shakli va joylashish burchagiga — hamda tashilayotgan materialning fizik-mexanik xususiyatlariga bog‘liq ekanligi ilmiy asoslandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, chigit massasining namligi, zichligi, zarracha o‘lchami va shakli, shuningdek ichki va tashqi ishqalanish koeffitsientlari uning oqim

xususiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ayniqsa, ishqalanish kuchlarining kamayishi materialning erkin siljishini ta’minlab, energiya sarfini sezilarli darajada qisqartiradi. Shu jihatdan, yuqori chastotali tebranishlar qo‘llanilishi ishqalanish koeffitsientini kamaytirish orqali massa harakatini faollashtirishi, tiqilish ehtimolini pasaytirishi va qurilmaning umumiy samaradorligini oshirishi aniqlangan.

Shuningdek, shnek parraklari ta’sirida hosil bo‘ladigan bosimning materialga ta’siri o‘rganilib, uning chigit massasining zichlashuv darajasiga hamda hajmiy qayta tiklanish (deformatsiyadan so‘ng tiklanish) xususiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Biroq amaliy ekspluatatsiya sharoitlarida konveyerning to‘ldirish koeffitsienti nisbatan kichik bo‘lishi sababli, material to‘liq zichlashmaydi va qobiqning yuqori qismida bo‘sh hajmlar (g‘ovakliklar) hosil bo‘ladi. Ushbu holat massa oqimining notekisligiga, tezliklar taqsimotining buzilishiga hamda ayrim ish rejimlarida lokal tiqilishlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

(1) tenglama asosida olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, shnekli konveyerda turg‘unlashmagan (o‘tish) harakat davri juda qisqa vaqtni tashkil etadi. Tizim qisqa muddat ichida barqaror holatga o‘tib, asosiy kinematik va dinamik parametrlar deyarli o‘zgarmas qiymatlarni qabul qiladi. Ushbu holat amaliy hisob-kitoblarda soddalashtirilgan matematik modellardan foydalanish imkonini beradi va muhandislik hisoblarini ancha yengillashtiradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi muhim ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- shnekli konveyerlarning samaradorligini oshirish uchun ularning konstruktiv parametrlarini optimal tanlash zarur;
- ish rejimlarini (aylanish tezligi, yuklanish darajasi) material xususiyatlariga mos ravishda boshqarish lozim;
- ishqalanishni kamaytiruvchi va oqimni barqarorlashtiruvchi qo‘shimcha texnologik usullarni (masalan, tebranishli ta’sir) qo‘llash maqsadga muvofiq;
- tiqilishlarning oldini olish uchun konveyerning to‘ldirish darajasi va material taqsimotini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shnekli konveyerda paxta chigiti massasini samarali tashishni ta’minlash, energiya sarfini kamaytirish va qurilmaning ishonchliligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ushbu natijalar paxta tozalash sanoatida qo‘llanilayotgan transport tizimlarini takomillashtirishda hamda yangi, energiya tejamkor konstruksiyalarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Обидов А.А. Жинланган чигитларга ишлов беришнинг самарали технологиясини яратиш. Фан докт. дисс. Наманган 2020, 198 б.
2. Rejabboyev S.T., Muradov R.M., Xonto’rayev.S., Babayeva.M. Chigitlarni saralashda, chiqindilarni teshikchalardan chiqishni amaliy tadqiq etuvchi dasturi ta’minot. № DGU 2021 0836.
3. Rejabboyev S.T., Muradov R.M. Shnekdagi chigit harakatini dinamikasini modellashtirish.dasturi №DGU 2021 0441.
4. Dilnoza Akhmadaliyeva, Avazbek Obidov. Analysis of the scientific work carried out on the research paper on the cleaning of small impurities from cotton. NamTSI ilmiy-texnika jurnali, 1-T, №1, 2023, 53-57 b. (04.01.2025, №366/4).
5. Xudayberdiev Nurillo Boxodir o’g’li, Axmadalieva Dilnoza Abdulxamid qizi, Paxtani turli iflosliklardan tozalash jarayonidagi olib borilgan ilmiy tadqiqotlar taxlili. NamTSI ilmiy-texnika jurnali, 1-T, №1, 2023, 57-61 b. (04.01.2025, №366/4).
6. Maftuna Inoyatova, Bahriddin Mirzaboev, Dilnoza Ahmadaliyeva, Shaxnoza Karimova, Mayramxon Abduraximova, Avazbek Sharifjonov. Analysis of Technical-Constructive Capabilities and Problems of Cleaning Aggregates. Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them PTLICISIWS-2. AIP Conference Proceedings. Scopus 2023. 050004-1/ 050004-4. (Scopus)
7. Avazbek Obidov, Dilnoza Xudayberdiyeva, Khurmatbek Jumaniyazov, Dilmuhammad Atambayev, Nurillo Xudayberdiyev. Experimental Construction Development of the Device for Cleaning Cotton from Small Impurities. International Conference on Physical Research & Engineering Technology Problems – PRETP 2024 (https://pretp.uz/public/))", 2025. October 3-5. (Scopus)
8. С.Т.Режаббоев, Х.Х.Исаханов, М.Ё.Эргашев Chigit saralash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida qurilmakomstruksiyasini takomillashtireish // Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар Қишлоқ хўжалини ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида янги инновацион технологияларнинг роли. Республика илмий-амалий анжуман. Андижон. 2021, 74-76 бетлар.
9. С.Т.Режаббоев, Р.М.Мурадов, Х.Х.Исаханов Толаси тўлиқ жинланмаган чигитларни ажратиб берадиган қурилма конструкциясини такомиллаштириш // “Kimyo oziq-ovqat hamda kimyoviy texnologiya mahsulotlarni qayta ishlashdagi dolzarb muammolarni yechishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati”, НамМТИ. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 23-24 noyabr, 2021 yil, 642-644 бетлар.
10. С.Т.Режаббоев, М.Инамова, М.А.Тожибоев Уруғлик чигит саралаш техника ва технологиясини истиқболли йўналишлари // «Тўқимачилик ва енгил саноати машиналарини лойиҳалаш ва такомиллаштиришда

инновацион ёндашувлар». Республика илмий-амалий анжумани. НамМТИ. 26 март, 2021 й., 175-178 бетлар.

“SINOTRICOT HF-352”YASSI IGNADONLI MASHINALARDA KAM CHO‘ZILUVCHAN TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATI

t.f.f.d., PhD S.A.Primov
Qarshi davlat texnika universiteti.
t.f.d., dotsent B.Mirusmanov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yassi ignadonli mashinalarning texnologik imkoniyatlari, ikki qavatli kam cho‘ziluvchan trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqara olish imkoniyatlari, mashinaning texnologik parametrlari hamda mashinaning unumdorligi ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются технологические возможности плоских игольчатых машин, возможность производства двухслойного малорастяжимого трикотажа, технологические параметры машины и производительность машины.*

Abstract: *This article examines the technological capabilities of flat-needle machines, the possibilities for producing double-layer low-elastic knitted fabrics, the technological parameters of the machine, and the productivity of the machine.*

Ikki ignadonli yassi fang trikotaj to‘quv mashinalari sanoatda keng qo‘llanilib, yuqori texnologik salohiyatga ega. Ushbu mashinalar turli xil trikotaj to‘qimalarini yuqori sifat va samaradorlik bilan ishlab chiqarish imkonini beradi. Yassi fangli trikotaj mashinalari bosh va hosila to‘qimalardan tashqari, naqshli va donali trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishga imkon beradi. O‘zbekistondagi ko‘plab trikotaj korxonalarida ushbu mashinalar keng qo‘llanilib, turli assortimentdagi mahsulotlar uchun mo‘ljallangan to‘qimalar tayyorlanadi. Ikkita ignadonli “SINOTRICOT HF-352” trikotaj to‘quv mashinasining texnologik imkoniyatlariga keladigan bo‘lsak, yuqori sifatli ustki kiyim qismlari ya’ni old va orqa qismlar, yoqalar, manjetlar, cho‘ntaklar, belbog‘lar, krasofka sirt qoplamalari va boshqa elementlarni to‘qish uchun mo‘ljallangan [1-3].

Mashina 14 klass va 132 sm uzun ignadonga ega bo‘lib, yuqori samaradorlik va texnologik imkoniyatlariga ega ekanligi sababli ushbu dissertasiya ishida nomi yuqorida keltirilgan zamonaviy kompyutrlashtirilgan ikki ignadonli yassi fang trikotaj mashinasi tanlab olingan hamda 1-jadvalda ikki ignadonli yassi fang mashinasini texnik tasnifi keltirilgan.

1-jadval

SINOTRICOT HF-352 yassi fang mashinasini texnik tasnifi keltirilgan.

Mashina modeli	**Gabarit o‘lchamlari (bo‘yi/eni/balandligi)**	**og‘irligi**
HF-352	2140/620/1840 sm	650 kg
klass	14	
Ignadon eni	52 dyum (1320 sm)	
Sistema/karetka	1 karetka/2 sistema	
Igna pozitsiyasi	3 trayektoriyali igna, 8 bosqichli igna tanlash	
Quvvat	2,0 kW, 220 V, 50/60 HZ	
Mashina ishlata oladigan ipning chiziqli zichligi	20-60 teks	

Yassi fang mashina karetkasining yuqori tezlikda bir minutda 40 marta, past tezlikda esa 20 marta ilgarilanma-qaytma harakatlanadi. Karetka ignadon uzunligi 120 sm bo‘lgan yo‘naltiruvchi relslar ustida zoldirli podshipnikda o‘rnatilgan. SINOTRICOT HF-352trikotaj to‘quv mashinasi o‘ng va chap tomonlarida 8 tadan jami 16 ta ip beruvchi moslama bilan jihozlangan bo‘lib, bu turli rangdagi gorizontal yo‘l-yo‘l va murakkab naqshli, rang-barang to‘qimalarni ishlab chiqarishga imkon beradi

Mashinaning ip beruvchi mexanizmlari bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi iplarni uzluksiz ta’minlashga mo‘ljallangan. Har bir ip beruvchi moslama to‘qimada ishlatiladigan ranglar soniga muvofiq ishlaydi. Karetka yordamida ikki ip beruvchi moslama navbatma-navbat harakatlanib, to‘qimaning rang-barangligini ta’minlaydi va mashinaning ishlab chiqarish tezligini oshiradi. Ip beruvchi moslamalarning arqoqli to‘qimalarni olishda asosiy vazifani bajaruvchi mexanizm hisoblanadi. Chunki, arqoq iplarini harakati ip beruvchi moslamalarning harakatiga bog‘liq hisoblanadi. Mavjud texnologiyada ip beruvchi moslama barcha to‘qimalar uchun bir xil balandlikka o‘rnatilgan bo‘lib, ular asosan arqoqli to‘qimalarni olish uchun igna tovonchalari yordamida ignalarni eng yuqori balandlikka ko‘tarilishga majbur edi. Chunki, ignalar yuqoriga ko‘tarilmasa arqoq ipi ignaning ilgak qismiga kirib qoladi. Natijada, arqoq ipi ham asos ipi bilan birgalikda ignada halqa hosil qilish jarayoniga ishtirok etib ketadi. Bu esa arqoqli trikotaj to‘qimalarini olishda nuqsonli to‘qima hosil bo‘lishi va ignalarni eng yuqoriga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Ignalarning me’yordan ortiq yuqoriga ko‘tarilishi ish unumdorligini pasayishiga olib keladi. Interlok asosida arqoqli trikotaj to‘qimalarini olishning takomillashgan usuli yordamida arqoqli trikotaj to‘qimalari olindi [4-5]. Natijada ish samaradorligi hamda ignalarning harakati bir xilligi ta’minlandi. Ip beruvchi moslamalardan foydalanishda quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Arqoq ipini beruvchi moslamaga to‘g‘ri va aniq tanlab qo‘yilishi;
2. Arqoq ipining tarangligini sozlash;
3. Arqoq ipini imkon qadar asos to‘qimaga yaqinroq joylashishini ta’minlash;
4. Ip beruvchi moslamalarni ip berish burchagini sozlash;

Asos to‘qima bilan arqoq ipini qo‘yish burchaklari to‘g‘ri tanlanishi zarur. SINOTRICOT HF-352 rusumli yassi ignadonli trikotaj mashinasida quyidagi funksiyalarni bajaruvchi dasturlash displeyi mavjud bo‘lib, u:

- To‘quv jarayonini boshqarish va monitoring qilish;
- Trikotaj naqshlari va dizaynlarini tanlash hamda yuklash;
- Ishlash rejimlarini sozlash (tezlik, ip yetkazib berish, igna harakati va h.k.);
- Xatoliklar va ogohlantirishlarni ko‘rsatish;
- Ishlab chiqarish parametrlarini saqlash va qayta chaqirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, yassi ignadonli mashinalarda nafaqat ikki qavatli trikotaj to‘qimalari balki, ikki qavatli arqoqli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish imkonityatlari ham mavjudligi o’rganib chiqildi. Natijada, yassi ignadonli mashinalarning samaradorligi va trikotaj assortiment turlarini ko‘payishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Primov S., Mirusmanov B., Qurbonov R.T., Ikki qavatli 2+2 interlokli trikotaj to‘qimalarini olish usuli.// To‘qimachilik va moda sanoatida ilm fan va innovatsiyalar. Namangan 2023. 39-43 b.
2. Мусаев Н.М., Мукимов М.М., Мансурова М.А. Разработка эффективной конструкции и обоснование параметров механизма оттяжки плосковязальной трикотажной машины. // «Механика муаммолари» журнали. №1-2, 2020 й. – 83-87 б.
3. Qurbonov R.T., Mirusmanov B., Primov S. Ikki qavatli arqoqli lastik trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasi. // Science, education, innovation: modern tasks and prospects. International online conference. Italy 2024. 22-24 p.
4. G.X. Gulyayeva. shakl saqlash xususiyatlari yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi asoslari. Avtoreferat. Toshkent 2025
5. Хазраткулов Х., ХоликовҚ., Мукимов М., Махмудова Г.Технологийа полученийа уточного плюшевого трикотажа // Тўқимачилик муаммолари. – Тошкент, 2010. – № 4. – Б. 30-32 (05.00.00; №17).

IKKI QAVATLI ARQOQLI INTERLOK TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI “SINOTRICOT HF-352” YASSI IGNADONLI MASHINALARDA ISHLAB CHIQARISH

t.f.f.d., PhD S.A.Primov
Qarshi davlat texnika universiteti.
t.f.d., dotsent B.Mirusmanov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ikki qavatli arqoqli interlok trikotaj to‘qimalarini yassi ignadonli mashinalarda ishlab chiqarish usullari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы и эффективное использование возможностей производства двойного уточного интерлочного трикотажа на плоских игольчатых машинах.*

Abstract: *This article examines the effective use of methods and capabilities for producing double-layer weft interlock knitted fabrics on flat-needle machines.*

Bugungi kunda to‘qimachilik, tikuvchilik va trikotaj sanoati mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Trikotaj to‘qimalarini assortimentini kengaytirish, trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlari hamda cho‘ziluvchanligini kamaytirish olimlarimizning oldidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Trikotaj to‘qimalarini mahalliy homashyo turlaridan samarali foydalanib kam cho‘ziluvchan, kirishuvchanligi hamda mustahkamligi yuqori bo‘lgan arqoqli trikotaj to‘qimalari ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Yassi ignadonli mashinalarda ip ignaga uzluksiz va vaqti-vaqti bilan qo‘yilishi mumkin. Ipni ignaga qo‘yishning ikki usulida ham ip yurgizgich qo‘zg‘aluvchan bo‘ladi. Yassi ignadonli ko‘ndalangiga to‘qiydigan mashinalarida ipni ignaga vaqti-vaqti bilan qo‘yish usuli ishlatiladi. Bu mashinalarda qo‘llaniladigan ip yurgizgichlar qo‘zg‘aluvchandir.

Xalqa hosil qilish jarayonida berilayotgan ip tarangligiga katta ahamiyat berish zarur, chunki ipning taranglik miqdoridan olinayotgan xalqalarning katta-kichikligi, uning bir xil taranglikda berilishidan esa to‘qima xalqalarining bir tekisdaligi bog‘liqdir. Agar berilayotgan ipning tarangligi kam bo‘lsa, xalqa hosil qilish jarayonida iplar chalkashib ketishi yoki ignadan sirg‘anib tushib ketishi mumkin, taranglikning katta bo‘lishi esa ipning uzilib ketishiga sabab bo‘ladi.

Ipning ignaga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishi ipni ignaga qo‘yish o‘lchamlariga bog‘liqdir. Ignaga berilayotgan ipning vertikal tekislikdagi

proeksiyasi bilan eski xalqalar chizig‘i orasidagi burchak, ipni xalqalar chizig‘iga nisbatan qo‘yish burchagi deyiladi. Bugungi kunda kam cho‘ziluvchan arqoqli trikotaj to‘qimalarni olishda texnologik ishlab chiqarish usullari mavjud bo‘lib, ular halqa hosil qilish jarayonlarining ketma-ketligi davomida arqoq ipini qo‘yadi [1-3]. Bular:

№	Mavjud usulda arqoq ipini qo‘yish	Takomillashgan usul arqoq ipini qo‘yish
1	**Tugallash**	Tugallash
2	Ip qo‘yish	Ip qo‘yish
3	Kiritish	Kiritish
4	Siqish	Siqish
5	Surish	Surish
6	Birlashtirish	Birlashtirish
7	Egish	Egish
8	Tashlash	Tashlash
9	Shakillantirish	Shakillantirish
10	Tortish	**Tortish**



1-rasm. Ip berish jarayoni

Arqoq ipini mavjud texnologiyada qo‘yish usulida, ignalar tugallash jarayoniga chiqqandan so‘ng ip beruvchi moslama arqoq ipini ignalarning tilchasi ostiga qo‘yadi. Natijada asos ipi uzatuvchi moslama yordamida ignalarga ip uzatiladi. Asos ipi orqali ignalar halqa hosil qiladi va arqoq iplari halqalarning protyajkalari orasiga joylashib qoladi. Bu usulda olinadigan arqoqli trikotaj to‘qimalari uchun igna va ip uzatuvchi moslamalar aniq ishlashi kerak. Aks holda, arqoq iplari ignaning ilgak qismiga ilinib qoladi va asos ipi bilan birgalikda halqa hosil bo‘ladi. Bu esa to‘qima yuzasiga va nuqsonli trikotaj to‘qimalar ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi.

Ipni ignaga to‘g‘ri va aniq ta’minlanishi to‘qimaning halqalari bir tekisda to‘qilishiga sabab bo‘ladi. Demak, arqoqli trikotaj to‘qimalarini olish uchun ham arqoq ipini to‘g‘ri va aniq qo‘yilishi asos to‘qima bilan birga qo‘shib to‘qilib ketmasligini oldini oladi. Arqoqli trikotaj to‘qimalarini olishda quyidagi ketma ketlikka amal qilish zarur;

1) Mashinada 2 ta ip beruvchi bo‘lishi shart 1- ip beruvchi moslama asos ipi uchun 2-ip beruvchi moslama arqoq ipi uchun;

2) Mashinaning ish unumdorligini oshirish uchun karetkada 2 ta sistema mavjud bo‘lishi;

3) Arqoq ipini ignalarga berish burchagi asos ipini ignalarga berish burchagiga nisbatan kichik bo‘lishi zarur;

4) Arqoq ipini tarangligi asos ipini tarangligiga nisbatan ko‘p bo‘lishi kerak;

Arqoqli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish, to‘qimalarni cho‘ziluvchanligi hamda to‘qimalarning pishiqligini oshirishga erishilgan va arqoqli trikotaj to‘qimalarni olish usullari takomillashtirilgan. Ishlab chiqarilgan interlok trikotaj to‘qimalarni 3 turkumga ajratidi:

1) Interlok Asos trikotaj to‘qimasi
2) Arqoqli interlok 2+2 rapportli trikotaj to‘qimasi
3) Arqoqli interlok 3+3 rapportli trikotaj to‘qimasiga bo‘lingan [4-5].

Natijada, “HF-352” rusumli yassi ikki ignadonli trikotaj to‘quv mashinasini konstruktiv tuzilishiga hech qanday o‘zgartirishlar kiritmasdan trikotaj to‘qimasini tarkibidagi paxta iplarini chiziqiy zichliklarini o‘zgartirish hisobiga mashinaning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish hisobiga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Primov S., Mirusmanov B., Qurbonov R.T., Ikki qavatli 2+2 interlokli trikotaj to‘qimalarini olish usuli.// To‘qimachilik va moda sanoatida ilm fan va innovatsiyalar. Namangan 2023. 39-43 b.
2. Мусаев Н.М., Мукимов М.М., Мансурова М.А. Разработка эффективной конструкции и обоснование параметров механизма оттяжки плосковязальной трикотажной машины. // «Механика муаммолари» журнали. №1-2, 2020 й. – 83-87 б.
3. Qurbonov R.T., Mirusmanov B., Primov S. Ikki qavatli arqoqli lastik trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasi. // Science, education, innovation: modern tasks and prospects. International online conference. Italy 2024. 22-24 p.
4. G.X. Gulyayeva. shakl saqlash xususiyatlari yuqori bo‘lgan trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi asoslari. Avtoreferat. Toshkent 2025
5. Хазраткулов Х., ХоликовҚ., Мукимов М., Махмудова Г.Технологийа полученийа уточного плюшевого трикотажа // Тўқимачилик муаммолари. – Тошкент, 2010. – № 4. – Б. 30-32 (05.00.00; №17).

ОСНОВЫ ТЕПЛОФИЗИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ПРИ ДРОБЕУДАРНОЙ ОБРАБОТКЕ ДЕТАЛЕЙ МАШИН

Ph.D., С.Р.Назаров, Ph.D., Б.М.Касимов, И.И.Мирзолимов
[1]*Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности*
[2] *Андижанский государственный технический институт*

Annotatsiya: *Maqolada qattiq jismlarning o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida hosil bo‘ladigan issiqlik miqdori va issiqlik o‘tkazuvchanlikning differensial tenglamasi hisobga olinib, mashina detallarini mustahkamlashning samarali usullardan biri drob bilan ishlov berishdagi issiqlik-fizikabiy asoslari tahlili bayon etilgan.*

Аннотация: *В статье изложены основы теплофизического анализа при обработке дробью как одной из эффективной упрочняющей операции деталей машин, учитывающей количество, теплоты, образующейся при контактном взаимодействии твердых тел и дифференциальное уравнение теплопроводности.*

Abstract: *The article presents the fundamentals of thermophysical analysis in shot peening as one of the effective strengthening operations of machine parts, taking into account the amount of heat generated during the contact interaction of solids and the differential equation of heat conductivity.*

Решение технологической задачи по обеспечению требуемого качества поверхностного слоя и высоких эксплуатационных свойств деталей с учетом возникновения и распределения температурных полей – одна из основных задач современной технологической теплофизики **[**1-3]. Теплофизический анализ процессов механической обработки позволит установить законы распределения температур на контактных поверхностях режущих и деформирующих инструментах, с которыми связаны их износ и работоспособность; определить точность обработки и температурные деформации изделия и инструмента, а также развивающиеся в них термические напряжения; изучить пути снижения температуры, применяя рациональные методы регулирования интенсивностью и направлением тепловых потоков в зоне обработки, а также используя эффективные смазочно-охлаждающие среды.

Важным этапом теплофизического анализа является оптимальная, с позиции математического описания, схематизация процесса и формы тел, участвующих в нем, а также формы и законы распределения интенсивности источников и стоков теплоты. От обоснованности принятой схематизации процесса в большей степени зависит достоверность и практическая ценность результатов теоретических исследований.

Дробеударную обработку условно рассмотрим, как дискретный процесс последовательных ударов по плоской обрабатываемой поверхности, наносимых зарядами дроби. В начальной стадии полидеформационный процесс дробеударного упрочнения на контакте целесообразно моделировать одноактным соударением со скоростью v_0 жесткой сферической частицы массой m и диаметром D с плоской стальной поверхностью (рис.) – упругим полупространством с последующим решением контактной задачей о вдавливании этой частицы в полупространство. Правомерность представления упрочняемого твердого тела в виде полупространства определяется тем, что размеры отпечатка или лунки (d, h), образуемые при пластической деформации контактного микрообъема материала после удара дробью, как правило, значительно меньше размеров (толщины, ширины и длины) упрочняемой детали.



Рис. Вдавливание твердой сферы в плоскую поверхность материала преграды

В процессе соударения со скоростью v_0 дроби с массой m и диаметром D с металлической поверхностью упрочняемой детали происходит трансформация ее кинетической энергии $W_0 = mv^2/2$. С учетом закона сохранения энергии можно энергию удара $W_{уд}$ представить как разность значений кинетической энергии шара до соударения W_0 и после удара W_1:

$$W_{уд} = \Delta W = W_0 - W_1 = W_0 (1 - k^2),$$

где $W_1 = mv_1^2/2$ – энергия отскока; v_1 - скорость дроби после удара (скорость отскока); k - коэффициент восстановления скорости.

Энергия удара $W_{уд}$, действующая на контактный микрообъем, вызывает упруго-пластическое деформирование материала, следствием которого является упрочнение и интенсивное теплообразование с дальнейшим распространением теплоты и теплообменом между контактирующими телами и средой. Таким образом, энергия удара $W_{уд}$ эквивалентна работе деформации A в пределах пластического отпечатка и в соответствии с первым законом термодинамики можно записать:

$$W_{уд} = A = Q + \Delta U, \qquad (1)$$

где Q – теплота, образующаяся при ударе твердой сферической частицы с плоской поверхностью материала в результате диссипации механической энергии (энергии удара);

ΔU- изменение внутренней энергии контактирующих тел (поверхностного слоя детали и деформирующего тела - дроби).

Скрытая энергия деформации U_s, являясь связующим элементом между макро- и микроскопической картинами пластической деформации, представляет собой потенциальную энергию искажения кристаллической решетки наклепанного металла. Она аккумулируется в значительно меньших по сравнению с тепловой энергией объемах, а потому ее удельные выражения приобретают достаточно высокие значения, соизмеримые с таковыми при традиционных термических обработках [4].

Скрытая энергия деформирования определяет необратимые изменения кристаллического строения металлов при их пластической деформации созданием в них дефектов различного уровня – точечные дефекты в виде вакансий и примесных атомов, дефектов упаковки. Но главным образом дислокаций, что следует из дислокационного механизма пластического течения и подтверждается прямыми экспериментами (возрастанием плотности дислокаций на три – четыре порядка, а так же резким увеличением плотности вакансий).

Таким образом, количество теплоты, образующееся при ударном взаимодействии дроби с металлической поверхностью, как следует из (1):

$$Q = W_{уд} - \Delta U = W_0 (1 – k^2) - \Delta U . \quad (2)$$

Как известно, процесс распространения теплоты Q сосредоточенных источников, действующих в термодинамической системе из твердых тел, математически описывается двумя главными уравнениями: теплового баланса и теплопроводности.

Пользуясь фундаментальным решением дифференциального уравнения теплопроводности, основанном на мгновенном источнике теплоты, и частью теплоты, распространяемой в изделие, можно рассчитать температуру любой точки тела в зоне удара дробью при упрочняющей обработке.

Список литературы

1. Резников А.Н., Резников Л.А. Тепловые процессы в технологических системах. – М.: Машиностроение, 1990. – 288 с.

2. I.G. Shin. Temperature in Contact Zone during Shot Hardenung. Russian Engineering Research, 2010, Vol. 30, No.1, pp. 61-63.

3. Shin I.G., Nazarov S.R., Iskandarova N.K. and Muminov M.R. Recovery of Shot Velocity in Shot Peening // Russian Engineering Research, 2025, Vol. 45, No. 1, pp. 55–59

4. Якубов Ф.Я. Энергетические соотношения процесса резания металлов: Сб. научн. тр. ТашПИ. – Ташкент, 1981. №323.

LINTERNING ARRALI SILINDRINI MOMIQ VA CHIGIT SIFATIGA TA’SIRINI O‘RGANISH

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
Talabalar Erkinova Muxlisa, Axtamova Nigina
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada linterning arrali silindrini momiq va chigit sifatiga ta’sirini bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о влиянии пыльного цилиндра линтера на качество линта и семян.*

Abstract. *This article provides information on the effect of a dusty linter cylinder on the quality of linters and seeds.*

Kirish. Mamlakatimizda paxtachilik tarmog‘ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xomashyosini qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshliligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Ma’lumki paxtani dastlabki ishlashning texnologik operatsiyalaridan biri – linterlash jarayonlarida arra tishlari ishdan chiqib boradi. Shu sababli ularni almashtiriladi. Ishlab chiqqan arralarni qayta tish ochib takroran ishlatiladi [2].

Tadqiqotlarda linter unumdorligini aniqlashning ko‘plab formulalari taklif etilgan bo‘lib, ularda unumdorlik asosan arraning tezligi va arraning ish unumdorligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Linter unumdorligini oshirish, momiq va chigit sifatini saqlab qolish maqsadida arra diametri kichiklashgan sari arrali silindrning aylanish tezligini oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Linter unumdorligini oshirish maqsadida arra diametri kichiklashgan sari arrali silindrning aylanish tezligini oshirilishiga valning kritik tezligi to‘siq bo‘lmaydi.

Bir maromdagi ish unumdorlikka, linter mashinasining arrali silindr tezliklarini, chastota o‘zgartirgich yordamida motor tezligini muvofiqlashtirish orqali erishiladi.

Paxtaning yuqori va past navlariga ishlov berilayotganda va linterda jinlangan chigitlar linterlanayotganda linterlarining arrali silindrdagi arralarning almashtirilishi PDKI 36-2012 bo‘yicha amalga oshiriladi.

Linterlardan yechib olingan arrali silindrlar tashqi ko‘rikdan o‘tadi. Agar qatorasiga to‘rtta yoki har yerida joylashgan 10-15 ta tishlari singan arralar miqdori hamma arralarning 10 foizidan oshib ketmasa, arrali silindr arralari yechilmasdan, avtomat charxlash dastgohida charxlanadi.

Yangi va qayta tish chiqarilgan linter arralarining o‘lchamlari 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-rasm. 5LP rusumli linterni arrali silindri**.**

1-jadval

Yangi va qayta tish chiqarilgan linter arralarining o‘lchamlari

Arra diametri, mm	Arra diametri bo‘yicha qayta tish chiqarish chuqurligi, mm	Tishlar soni, dona
320	-	330
314	6	330
308	6	310
302	6	310
296	6	290
290	6	290
284	6	290
278	6	270
272	6	270
266	6	270

Paxtani dastlabki ishlashning texnologik operatsiyalaridan biri – linterlash jarayonlarida arra tishlari ishdan chiqib boradi. Shu sababli ularni almashtiriladi. Ishlab chiqqan arralarni qayta tish ochib takroran ishlatiladi (1-rasm). Linterlarda diametri 320 mm dan 266 mm gacha arralardan foydalaniladi [3].

Natijada linter arralarining aylanma harakatdagi chiziqli tezliklari o‘zgaradi. O‘z navbatida bu holatlar ish unumdorlikka salbiy ta’sir qiladi. 2-jadvalda linter

mashinalarda arra diametrining o‘zgarishi bilan uning aylanish burchak tezligi hamda chiziqli tezliklarining o‘zgarishi tahlili keltirigan.



a) b)

1-rasm. Yangi va qayta tish chiqarilgan linter arralari**.**
a)-yangi arra diametri 320 mm; b)-qayta tish chiqarilgan arra diametri 296 mm.

2-jadval

Linter arraning diametri o‘zgarishi bilan tezligi o‘zgarishi

Arra diametri, mm	Mavjud arrali linter mashinalarda arra		Taklif etilgan variantda	
	Aylana tezligi, ay/min	Chiziqli tezligi, m/s	Aylana tezligi, ay/min	Chiziqli tezligi, m/s
320	730	12,2	729	12,2
314	730	11,8	755	12,2
308	730	11,5	774	12,2
302	730	11,1	811	12,2
296	730	10,7	834	12,2

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, arraning aylanishi o‘zgarmas 730 ay/min bo‘lib, diametri 320 mm bo‘lganda chiziqli tezlik 12,2 m/s tashkil qiladi. Arraning diametri o‘zgarishi bilan aylanish tezligi o‘zgarmaydi, lekin chiziqli tezligi mos ravishda 11,8 m/s, 11,5 m/s va h.k. ga kamayib boradi.

Xulosa. Arraning diametri o‘zgarishi bilan mashinaning unumdorligi pasayadi, momiq va chigitning sifati yomonlashadi. Shu sababli ish unumdorligini ushlab turish uchun arraning aylanish tezligini oshirish, ya’ni chiziqli tezligi 12,2 m/s ni saqlab qolish lozimligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi. (PDI 70-2017), T.: «Paxtasanoat ilmiy markazi», 2019.

2. Salimov O. A., Mardonov B. M., Madumarov I. D., Salimov A. M. “Research of the process of cleaning of small litter and dust during transportation of raw cotton”. Texas Journal of engineering and texnology. https://zienjournals.com ISSN NO: 2770-4491 Date: 07-12-2022, pp:1-9.

3. A.Salimov, X.Farxodov, CH.Qosimova “Chigitdan momiq ajratish jarayonini o‘rganish“ TTESI Ilmiy-amaliy konferensiya T.:, 2022 -107 b.

PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA LINTERLASH TEXNIKA VA TEXNOLOGIYANI TAXLILI

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
PhD, kata o‘qituvchi Salimov O tabek Alisherovich,
Talabalar: Ismoilov Valijon , Ibragimov Orzubek
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada linterlash jarayonida chigit va momiq sifatiga ta’sir qiluvchi millarni o‘rganish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об исследовании факторов, влияющих на качество семян и линта в процессе линтерования.*

Abstract. *This article presents information on the study of factors influencing the quality of seeds and lint during the lintering process.*

Paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xomashyosini qayta ishlash rentabelligini, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshliligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Paxtani dastlabki ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mashinada terilgan paxtani dastlabki ishlash samarali texnologiyasini ishlab chiqish, paxta chigitini tolasi ajratilgandan keyin qayta ishlashning ilmiy ko‘rsatkichlarini aniqlash, chigitdan momiq ajratishda qatnashuvchi ishchi qismlari ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni muqobillashtirish zarurdir.

Paxta tozalash korxonasida chigitni dastlabki ishlash texnologiyasiga arrali linterlarda momiqni ajratish, chigit massasini o‘lchash, momiqni tozalash va toylash kiradi [1].

Momiq ajratish bo‘limida chigitni linterlashdan oldin qoldiq tolali chigitlarni ajratish uchun va chigitni linterlash jarayoniga sifatli tayyorlash hamda momiq

ajratishni mukammallashtirish maqsadida mavjud texnologik uskunalarning tarkibiga RNS rusumli qurilma kiritilishi kerak. Ikki yoki bir marta momiq ajratish ish tartibida ishlaydigan linterlarni ikki yoki bir qatoridan foydalanishni hisobga olish 1 - rasmda keltirilgan.

Texnik chigitni dastlabki ishlash texnologik ish jarayoni odatda quyidagicha olib boriladi: arrali jinlardan so‘ng chigit elevator orqali linterlarga tarqatiladi va undan momiq ajratiladi [2].

Momiq ajratish qatorida 5LP rusumli linterlar 8-12 ta iborat bo‘lib, ular ikki qatorda to‘rttadan yoki oltidan o‘rnatiladi.

Har bir linter qatoridan olingan momiq KVP-8M yoki KL rusumli kondensorga yuboriladi, keyin OVM-A-1 rusumli momiq tozalagichda tozalanadi va toylanadi.

Momiq ajratilgandan keyin chigitlarni maxsus elektron tarozilarda tortishga tavsiya etiladi.



1-rasm. Paxta tozalash korxonalarining linterlash bo‘limidagi uskunalarning tarkibi va joylashishi.

1- elevator; 2- RNS rusumli qurilma; 3- taqsimlovchi shnek; 4- UMPL kamerali 5LP linteri; 5- yig‘uvchi shnek; 6- elevator; 7- tarozi; 8- KL yoki KVP-8M kondensor; 9- OVM-A-1 rusumli tozalagich; 10- elevator; 11-ko‘ndalang shnek; 12- OVM-A-1 tozalagich; 13- siklonlar; 14-ZS chigitni omborga yuklash qurilmasi.

Chigitdan maksimal miqdorda momiqni olish (jinlangan chigitlarning berilgan vazniga nisbatan foizda) paxtaning turi va seleksiya naviga qarab belgilanadi,

Chigitdan kerakli miqdorda momiqni ajratib olish linterlar ish tartibini sozlash, chigit tarog‘ini kolosnikka nisbatan holatini va ta’minlagich avtomat zanjirini uzunligini o‘zgartirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu holatda momiq ajratish

miqdori (foizda) chigitni momiq ajratguncha va undan keyingi to‘liq tukdorligining farqi bilan, chigit namunalarini momig‘i ajratilgan chigitning tukdorligi bo‘yicha ishchi etalon namunalariga solishtirib aniqlanadi.

Momiqning tipi va sinfi bo‘yicha O‘zMSt 456 2024 - Paxta momig‘i texnikaviy shartlar. talablariga mos bo‘lishi lozim.

Texnik chigitni linterlash jarayoni ikki bosqichli bo‘lganda, bunday kalta shtapelli momiqni ikkinchi linterlash jarayonining umumiy momiq quvuriga yo‘llash tavsiya etiladi. OVM-A-1 tozalagichlaridan chiqqan kalta momiqli chiqindilar aloxida toylanadi.

Linterlash bo‘limida ishlab chiqarilayotgan momiq va chigitning sifatini ko‘tarish paxta tozalash sanoati korxonalari uchun yechilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi ishlab chiqaruvchi korxonaning rentabellik darajasini belgilaydi.

Paxta tozalash korxonasi texnologik jarayonida asosiy mashinalardan biri arrali linter bo‘lib, o‘zining murakkabligi, linterlash bo‘limida son jihatidan ko‘pligi, arralarni o‘z vaqtida almashtirishda qiyinchiliklarga olib kelishi, ehtiyot qismlarning hamda elektr energiyasining ko‘p sarflanishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtda sanoatda PMP-160, 5LP, (2-rasm) rusumli arrali linter mashinalari ishlatilmoqda. Bu mashinalarning ishchi kamerasi takomillashgan UMPL kameraga o‘zgartirilgan bo‘lib, kameradagi aylantirgich-tezlatgichning tashqi diametri 160 mm gacha kattalashtirilgan, aylantirgich-tezlatgichdagi parraklar soni 4 ta, arra tishi bilan parraklar oralig‘i paxtaning seleksiyasi va navlari bo‘yicha 9-12 mm, aylanish tezligi esa 500 r/min ni tashkil etib, arrali silindr aylanish tezligi 730 r/min va arra tishi bilan soplo oralig‘i 1,5 mm dan 2,5 mm gacha bo‘lishi tavsiya etiladi [3].



2-rasm. 5LP rusumli arrali linter mashinasi.

1-ta’minlovchi valik; 2-tekislovchi-tozalovchi baraban; 3-chigitli kamera; 4-tezlatuvchi valik; 5-arrali silindr; 6-o‘lik uchun quvur; 7-havo kamerasi; 8-ifloslik uchun shnek

Arrali linter mashinasida UMPL ishchi kamerasi qo‘llanilishi tufayli mashinaning chigit bo‘yicha ish unumdorligi (2,5 foiz atrofida momiq ajratib olinganda) 1400÷1800 kg/h, momiq bo‘yicha esa 35-45 kg/h ni tashkil etadi. Mahsulotni ishlab chiqarishda ishlatiladigan umumiy quvvat 30,6 kW ga teng bo‘lib, bundan ta’minlovchi sistema 4,4 kW ni tashkil etadi. Mashinaning ta’minlovchi tizimi konstruksiyasi avvalgilarnikiga qaraganda bir muncha farqli. Mashina konstruksiyasi jihatidan takomillashganiga qaramasdan, metall va ehtiyot qismlarning ko‘p sarflanishi, arra sexida arralarni o‘z vaqtida almashtirishda muammolar tug‘ilishi va elektr energiyasini ko‘p sarf qilishi kabi kamchiliklari bilan ajralib turadi [4].

Respublikamizdagi ba’zi paxta tozalash korxonalarining chigitni linterlash tizimida Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqarilgan MR-160B-11C rusumli linterlar ishlatiladi (3- rasm).

Ushbu linterlarning ishlash prinsipi 5LP linterlarniki bilan bir xil bo‘lib, MR-160B-11C rusumli linter konstruksiyasi jihatidan ta’minlovchi valik 1, tarnov 2, ishchi kamera 3, aralashtirgich 4, chigit tarog‘i 5, kolosnik 6, arrali silindr 7, chiqindi shnegi 8, momiq kanali 9, kamerani ko‘tarib-tushiruvchi mexanizm 10 dan iborat. Ushbu linterlarda ham tashqi diametri bo‘yicha 320, 313, 306, 320, 314, 308, 302, 296 mm li arralar ishlatiladi.



3- rasm. MR-160B-11C rusumli Xitoy linterining chizmasi.

1- ta’minlovchi valik, 2- tarnov, 3- ishchi kamera, 4- aralashtirgich, 5- chigit tarog‘i, 6- kolosnik, 7- arrali silindr, 8-chiqindi shnegi, 9- momiq kanali, 10- ishchi kamerani ko‘tarib-tushirish mexanizmi

Linterlash bo‘limida ishlab chiqarilayotgan momiq va chigitning sifatini ko‘tarish paxta tozalash sanoati korxonalari uchun yechilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Chunki, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi ishlab chiqaruvchi korxonaning rentabellik darajasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sabirov I.Q, Salimov A.M., Ochilov M.M. Paxta chigitidan momiq ajratish jarayonini takomillashtirish. Toshkent. ZEBO-PRINT. 2022y.94 b.
2. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi. (PDI 70-2017), T.: «Paxtasanoat ilmiy markazi», 2019.
3. F.B.Omonov umumiy tahriri ostida “Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik” T., “Voris nasriyot”, 2008 y.
4. Salimov O. A., Mardonov B. M., Madumarov I. D., Salimov A. M. “Research of the process of cleaning of small litter and dust during transportation of raw cotton”. Texas Journal of engineering and texnology. https://zienjournals.com ISSN NO: 2770-4491 Date: 07-12-2022, pp:1-9.

5LP-RUSUMLI LINTERNI TA’MINLAGICHINI TAKOMILLASHTIRISH

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
magistr Salimova Ziyoda Muxtorjon qizi,
Talabalar O‘razboyeva Nasiba, Shodiqulov Bekzod
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida joriy qilingan linterlarni ta’minlagichini takomillashtirish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об усовершенствовании питателя линтеров, внедренных на хлопкоочистительных заводах.*

Abstract. *This article presents information on the improvement of the linter feeder implemented in cotton ginning plants.*

Paxta tozalash korxonasi texnologiyasida asosiy mashinalardan biri arrali linter bo‘lib, o‘zining murakkabligi, momiq ajratish bo‘limida son jihatidan

ko‘pligi, ehtiyot qismlarning hamda elektr energiyasining ko‘p sarflanishi bilan ajralib turadi [1].

Hozirgi vaqtda 5LP rusumli arrali linter mashinalari ishlatilmoqda (1- расм).



1- rasm. 5LP rusumli linter chizmasi.

1- ta’minlagich;; 2- tekislovchi baraban; 3- ishchi kamera; 4-to‘zitkich; 5-arrali silindr; 6- ulyuk shnegi; 7- havo kamerasi; 8-ifloslik shnegi; 9- to‘rli yuza.

Bu mashinalarning ishchi kamerasi takomillashgan UMPL kameraga o‘zgartirilgan bo‘lib kameradagi tezlatkichning tashqi diametri 160 mm gacha kattalashtirilgan, tezlatkichdagi plankalar soni 4 ta arra tishi bilan oralig‘i paxtali chigit seleksiyasi va navlari bo‘yicha 9-12 mm aylanish tezligi esa 500 ayl/daqiqani tashkil etib arrali silindr aylanish tezligi 730 ayl/daqiqa va arra tishi bilan soplo oralig‘i 1,5 mm dan 2,5 mm gacha bo‘lishi tavsiya etiladi [2].

Ta’minlash tizimida chigitni iflosliklardan tozalash jarayonida uning mexanik shikastlanganligini oshirishi va ishchi kameraga yuza bo‘ylab ayrim joylarda chigitni yoyilmagan holda uzatishi tufayli chigit valigi zichligining ishchi kamera uzunligi bo‘yicha bir xil bo‘lmasligiga olib kelishi va bu esa mashinaning chigit hamda momiq bo‘yicha ish unumdorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin [3].

Bularni inobatga olgan holda ta’minlovchi valikdan so‘ng chigitni ishchi kameraga ikki xil nishobli tarnov orqali uzatish yo‘li o‘rganildi. Bunda biri silliq yuzaga ega bo‘lgan nishobli tarnov, ikkinchisi to‘rli yuzaga ega bo‘lgan 25x2,5 mm o‘lchamli nishobli tarnovdir.

Ta’minlovchi valik bilan ishchi kamera boshlang‘ich qismi oralig‘ining optimal o‘lchamini topish uchun tekislovchi-tozalovchi baraban o‘rniga uzunligi

300 mm, og‘ish burchagi 30^0 dan 45^0gacha bo‘lgan nishobli tarnovlar qo‘yilib, tarnov uzunligi va og‘ish burchagining o‘zgarishi bilan ishchi kameraga berilayotgan chigitning yoyilish va tekislanish darajasi o‘rganildi. Bunda silliq yuzali tarnov 200 mm dan 300 mm gacha uzunlikda va 45^0 og‘ish burchak ostida qo‘llanilganda uning yuzasida chigit ayrim joylarda to‘p-to‘p kam yoyilgan holatida harakatlanishi kuzatildi.

Nishobli tarnovning 200 mm dan 300 mm uzunlikdagi oralig‘ida og‘ish burchagining 35^0 dan 30^0 gacha kamayishi bilan chigitning silliq yuza ustidagi tezlik harakati sekinlashib, uning to‘planib qolish holati ko‘payganligi va shu bilan birga chigitni ishchi kameraga uzatish kamayganligi kuzatildi. Buning oqibatida chigitli valikning zichligi kamayib mashinaning ish unumdorligi pasaydi.

To‘rli yuza 200 dan 300 mm gacha uzunlikda va 45^0 og‘ish burchagi ostida qo‘llanilganda chigit harakatida dumalash hodisasi yaxshilanib, ayrim joylarda kam to‘p-to‘p holatlari kuzatildi. Og‘ish burchagi 40^0 ostida bo‘lganda to‘rli yuza qismidagi chigit harakatida dumalash jarayoni ko‘payib, yoyilgan bir tekis holatida ishchi kameraga berilishi kuzatildi. To‘rli yuza og‘ish burchagining kamayishi bilan, ya’ni 35^0 dan 30^0 gacha, 200 dan 300 mm gacha uzunlik oralig‘ida chigitning tezligi kamayib, ayrim joylarda to‘p-to‘p bo‘lish hodisasi kuzatildi.

To‘r yuzalik tarnov bo‘yicha o‘tkazilgan sinov ishida chigitning yuqori darajada yoyilib bir tekisda harakatlanishi, tarnov og‘ish burchagining 40^0 da va tarnov uzunligining 250 mm oraliq qismida sodir bo‘lishi qayd etildi. Bunga asosiy sabablardan biri chigit to‘r yuzasida chang va ifloslikdardan ajralishi jarayonida to‘r yuzasining o‘lchamli teshikchalari chigitni to‘r yuzasi bo‘ylab dumalash harakatiga olib keladi. Natijasida ta’minlagichni tozalash samaradorligi ortishi hisobiga, chigit va momiqning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Salimov, Wang Hua, T.Tuychiyev “Technology and equipment for primari cotton processing” China, Shanhay, 2019 – p. 174

2. Sabirov I.Q., Salimov A.M., Ochilov M.M. Paxta chigitidan momiq ajratish jarayonini takomillashtirish.Monografiya-T.,2021.

3.“Paxtasanoat ilmiy markazi”AJ “Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha qo‘llanma”. “Nodirabegim nashriyiti”. Toshkent-2019, 477 b.

YIGIRILGAN IPNING TENGVAZNLILIK KO‘RSTKICHLARI TAHLIL QILISH

t.f.n. prof., Sh.R.Fayzullayev,
t.f.f.d, dots., M.R.Raximberdiyev,
magistr M.R.Rajapboyeva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yigirilgan ip xossalarini baholashdagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan tengvaznlik ko‘rstkichlarini haqida ma’lumot keltirilgan. An’anaviy halqali yigirish mashinasida va ipga soxta buram berish qurilmasi yordamida yigirilgan iplarning tengvazinlilik ko‘rsatkichlari tajribavit tadqiqotlar asosida o‘rganilgan.*

Abstract *This article presents a multi-scale characterization of flax fibers, investigating them across various structural levels ranging from elementary fibers to technical bundles and yarns. The study identifies the influence of fiber dimensions on the mechanical properties of the resulting yarn. Four yarn linear densities (111.11 tex, 100 tex, 90.9 tex, and 83.33 tex) were produced using the dry spinning method, and tensile tests were performed at each structural level. The results indicated that the specific modulus gradually decreases when transitioning from elementary fibers (1.09 ± 0.62 N/tex) to short bundles (14.41 ± 9.59 N/tex), a phenomenon primarily attributed to fiber misalignment (disorientation) within the structure.*

Zig‘ir (*Linum usitatissimum*) — lignotsellyulozali lub (bast) tolasi bo‘lib, barqarorligi, past zichligi, yuqori qattiqligi va biologik parchalanish xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlar uni to‘qimachilik hamda texnik qo‘llanmalarda tobora jozibador materialga aylantirmoqda.

Biroq, yigirish jarayonlarida uning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun turli masshtablardagi fizik va mexanik xususiyatlari ip shaklida tortilish (cho‘zilish) xatti-harakatiga qanday ta’sir qilishini chuqur tushunish zarur.

Zig‘ir tolasi ko‘p masshtabli tuzilishga ega bo‘lib, uni to‘rtta asosiy darajada tasvirlash mumkin: makroskopik, mezoskopik, mikroskopik va nanoskopik.

Yigiruv jarayonini tanlash tolalarning fizik xususiyatlariga, ayniqsa ularning uzunligiga bog‘liq. An’anaviy yigirishda odatda ikki asosiy tur ajratiladi: qisqa tolali yigirish (paxta tipida) va uzun tolali yigirish (jun tipida).

Zig‘ir tolalarini yigirish jarayoni bir necha mexanik ishlov bosqichlarini o‘z ichiga oladi, masalan, ivitish (retting), qobiqdan ajratish (scutching) va tarash (hackling). Ushbu jarayonlar xom ashyoni parchalaydi, tolalarni ajratadi va ularni yigirish uchun bir yo‘nalishga keltiradi. Shu o‘zgarishlar davomida tolalarning morfologik o‘zgaruvchanligi hamda uzilishlar (ko‘pincha poya bo‘ylab barg joylashgan nuqtalar bilan bog‘liq) tuzilmani zaiflashtirishi mumkin. Bunday uzilishlar cho‘zilish kuchlanishi ostida zaif nuqtalar sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, ushbu tadqiqot bu hodisaga qaratilmagan bo‘lib, u asosan mikroskopik va nanoskopik darajalar bilan bog‘liq.[1]

Dastlabki ishlovdan so‘ng tolalar parallellashtirish, cho‘zish (drafting) va burash (twisting) jarayonlaridan o‘tkaziladi. Bu jarayonlar nam yoki quruq yigirish usullari yordamida amalga oshiriladi.

Quruq yigirish odatda qalinroq iplar ishlab chiqarish uchun qo‘llanadi va og‘ir matolarda ishlatiladi. Ushbu jarayonda qisqa zig‘ir tolalari (tow) namliksiz, cheklangan darajada tarash va cho‘zishdan o‘tkaziladi. Bu tolalarning tabiiy tuzilishini saqlab qoladi, biroq zig‘irning past cho‘ziluvchanligi sababli cho‘zish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, cho‘zish jarayoni dag‘al texnik tolalar tutamlarini mayda tutamlarga ajratish orqali lenta (sliver)ning nozikligi va uzunligini oshiradi .

Yarim nam (semiwet) variant esa tolalar o‘zaro bog‘lanishini yaxshilash uchun oz miqdorda suv qo‘shishni nazarda tutadi, shu bilan birga ekologik samaradorlikni saqlab qoladi.

Muhimi shundaki, quruq yigirish jarayoni sinchiklab tanlandi va optimallashtirildi, chunki u tolalarning yo‘nalishi (alignment) va tutamning yaxlitligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi — bu esa ipning ishlash xususiyatlariga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omillardir.

Yigirish jarayoni sanoatda keng qo‘llaniladigan standart usul bo‘lsa-da, ushbu ishning yangiligi turli masshtablarni qamrab olgan integratsiyalashgan

tahlilda namoyon bo‘ladi, ya’ni mikrostrukturaviy tuzilish bilan ipning yakuniy mexanik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi.[2]

Turli darajalardagi natijalarni taqqoslash orqali biz zig‘ir tolalarining ip xususiyatlariga qanday ta’sir qilishini chuqurroq tushunishni maqsad qilganmiz. Yakuniy maqsadimiz esa zig‘ir tolalarining fizik va mexanik xatti-harakatlari haqidagi bilimlarni yanada boyitishdan iborat.

Natijalarga genetik o‘zgaruvchanlikning ta’sirini kamaytirish maqsadida, ushbu tadqiqotda ishlatilgan barcha zig‘ir tolalari Farg‘ona hududlarida yetishtirilgan va sanoat usulida qayta ishlangan yagona partiyadan olingan.

Garchi yetkazib beruvchi tomonidan aniq nav nomi, hosil yig‘ilgan yil va batafsil agrotexnik ko‘rsatkichlar taqdim etilmagan bo‘lsa-da, barcha namunalar bir xil ishlab chiqarish partiyasiga tegishli edi.

Sinovdan oldin zig‘ir tolalari standart sanoat ishlov jarayonlaridan o‘tkazilgan, jumladan dala sharoitida ivitish (retting), mexanik tozalash (scutching) va tarash (hackling).

Ushbu tadqiqot zig‘ir tolalarining uchta strukturaviy darajadagi — elementar tolalar, texnik tola tutamlari va iplar — fizik hamda mexanik tavsifiga qaratilgan. Zig‘ir iyerarxik tuzilishga ega bo‘lib, unda elementar tolalar birlashib texnik tutamlarni hosil qiladi, keyinchalik esa ular qayta ishlanib ipga aylantiriladi.[3]

Ko‘p masshtabli ushbu tuzilmani tasdiqlash maqsadida, 1-rasmda elementar tolalarning alohida ko‘rinishi hamda ularning texnik tutamlar va iplar shaklida birlashgan holatini aks ettiruvchi mikroskopik tasvir keltirilgan.



1-rasm. Mikroskopik tasvir: (a) elementar tolalar va texnik tola tutami, (b) ip tuzilmalari.

Har bir daraja uchun namunaviy va takrorlanadigan o‘lchovlarni ta’minlash maqsadida maxsus protokollar ishlab chiqildi. Elementar tolalar texnik tutamlardan qo‘lda ajratib olindi.

Texnik tola tutamlari esa uzunligiga qarab Schlumberger comb sorter yordamida saralandi (2-rasm).

2-rasm. Shlyumberje (Schlumberger) taroqli saralagichi.

Barcha namunalar sinovdan oldin kamida 24 soat davomida standart atmosfera sharoitida (20 ± 2 °C va 65 ± 2% nisbiy namlik) saqlandi (ISO 135:2005).

Zig‘ir yigirish jarayonining sxemasi 3-rasmda keltirilgan. Dastlab xom zig‘ir materiali mashinada maydalandi (cracking), so‘ngra ketma-ket to‘rtta tarash-cho‘zish (gill drafting) stanoklaridan — GN1, GN2, GN3 va GN4 — o‘tkazildi. Ushbu stanoklar taroqlar bilan jihozlangan bo‘lib, har bir keyingi bosqichda ignalar (yoki tishlar) zichligi asta-sekin oshirib boriladi. Bu esa cho‘zish jarayonida tolalarni yaxshiroq boshqarish va ularning yo‘nalishini to‘g‘rilashga xizmat qiladi.[4]

Oxirgi gill stanokdan chiqqan lenta (sliver) quruq yigirish mashinasida ipga aylantirildi. Cho‘zish va burama (twist) parametrlarini o‘zgartirish orqali turli chiziqli zichlikka ega to‘rtta ip (111.11 tex, 100 tex, 90.9 tex va 83.33 tex) ishlab chiqarildi.

Zig‘ir yigirish jarayoni sxemasi

1.Xom ashyo (Line flax)

→ Uzun zig‘ir tolalari (filassa) boshlang‘ich material sifatida olinadi

2.Maydalash (Cracking)

(FB20, N Schlumberger, Guebwiller, Fransiya)

→ Zig‘ir poyasi mexanik ravishda sindirilib, tolalar ajratiladi

3. 4 bosqichli gill cho‘zish (4 × Gill Drafting)

(GN, N Schlumberger, Guebwiller, Fransiya)

→ Tolalar ketma-ket 4 marta taraladi va cho‘ziladi

→ Bu jarayonda tolalar tekislanadi va parallel holatga keltiriladi

4.Yigirish (Spinning)

(CF252, N Schlumberger, Guebwiller, Fransiya)

→ Tayyorlangan lenta (sliver) ipga aylantiriladi.

Sinov sharoitlari takrorlanuvchanlikni ta’minlash uchun 100 m/min tezlikda 5 daqiqa davomida standartlashtirildi. Ip bir tekisligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlar sifatida variatsiya koeffitsienti (CV%) hamda

nuqson indikatorlari olindi: qalin joylar (+50% chegaradan yuqori), yupqa joylar (−50% chegaradan past) va nepslar (+200% chegaradan yuqori).[5]

Tola uzunligi taqsimoti

Zig‘ir tolalarining uzunligi muhim fizik ko‘rsatkich bo‘lib, u yigirish jarayonidagi samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, cho‘zish (drafting) jarayonidan oldin lenta (sliver) tarkibidagi tolalar uzunligi taqsimotini o‘rganish juda muhimdir. Ushbu taqsimot cho‘zish valiklari orasidagi optimal masofani aniqlashga yordam beradi. Agar valiklar orasidagi masofa noto‘g‘ri tanlansa, bu tolalarning “osilib qolishi” (floating fibers) yoki uzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tola uzunligi taqsimoti haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lish bir tekis va sifatli ip ishlab chiqarish uchun zarurdir.

Ushbu tadqiqotda tola uzunligi taqsimoti ASTM D1440 va ISO 6989 standartlariga muvofiq Almeter Peyer texLab AL100 qurilmasi (Siegfried Peyer AG, Zofingen, Shveytsariya) yordamida aniqlangan.

Almeter tahlili sig‘imli (kapasitiv) o‘lchash tizimiga asoslanib, “fiber beard” (tola tutami osilgan shakl) usulidan foydalanadi. Har bir o‘lchov uchun namuna massasi 100 dan 150 g gacha bo‘lgan. Uch marta qo‘lda tortib olish (manual pull) qora stol ustida bajarildi, so‘ngra namunalar dastlabki tayyorlash uchun “Peyer texLab FL 100” qurilmasiga o‘tkazildi.[6]

Shundan so‘ng qurilma quyidagi asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblaydi:

- **Hauteur (H)** — tolalar kesimiga (yo‘g‘onligiga) og‘irlik berilgan o‘rtacha uzunlikni bildiradi.
- **Barbe (B)** — tolalar massasiga og‘irlik berilgan o‘rtacha uzunlikni bildiradi.

Bundan tashqari, qurilma variatsiya koeffitsientlarini ham beradi:

- **CvH%** — H qiymatining o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi (tola kesimi taqsimotiga asoslanadi).
- **CvB%** — B qiymatining o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi (tola massasi taqsimotiga asoslanadi).

Ushbu ko‘rsatkichlar tolalar uzunligi taqsimotidagi notekislik darajasini baholash imkonini beradi.

Hauteur (H) va **Barbe (B)** qiymatlari quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

Barbe (B):

$$B = \frac{\sum m_i \cdot l_i}{\sum m_i}$$

Hauteur (H):

$$H = \frac{\sum t_i \cdot l_i}{\sum t_i}$$

Bu yerda:

- m_i— har bir klass (guruh) uchun tola tutamining massasi (mg)
- l_i— shu klassga mos o‘rtacha uzunlik (mm)
- t_i— birlik uzunlikka to‘g‘ri keladigan massa (tex)

Tushuntirish:

- **Barbe (B)** — massaga asoslangan o‘rtacha uzunlik (ya’ni og‘ir tolalar ko‘proq ta’sir qiladi)
- **Hauteur (H)** — chiziqli zichlikka (tex) asoslangan o‘rtacha uzunlik

Fibrogramma asosida bir qator muhim uzunlik ko‘rsatkichlari grafik usulda aniqlanadi. Buning uchun egri chiziqning xarakterli nuqtalarida urinmalar (tangentlar) chizilib, ular orqali turli o‘rtacha uzunliklar va taqsimot parametrlarini baholash mumkin.[7]

4-rasm. Tuft (fibrogramma).

O‘rtacha uzunlik (ML) 100 foizli tola nuqtasidan urinma chizish va uni uzunlik o‘qigacha ekstrapolyatsiya qilish (davom ettirish) orqali olinadi. Tolalarning 50 foizidan chizilgan va uzunlik o‘qigacha davom ettirilgan urinma **yuqori yarim o‘rtacha uzunlikni (UHML)** ko‘rsatadi, bu esa tolalarning uzunroq yarmining o‘rtacha uzunligini anglatadi. Ushbu ikki parametr zig‘ir tolalarini uzunligi bo‘yicha tasniflash va **bir xillik indeksi (UI%)** orqali partiya ichidagi uzunlikning bir xilligini baholash uchun ishlatiladi:

$$UI\% = 100 \times ML/UHLM$$

Ushbu tadqiqot uchun tuft fibrogrammasi parametrlari (UHML va ML) asosida uchta uzunlik oralig‘i belgilandi:

- **Qisqa tolalar:** Uzunligi ML dan qisqa bo‘lgan texnik tola dastalari.
- **O‘rtacha tolalar:** Uzunligi ML va UHML oralig‘ida bo‘lgan dastalari.
- **Uzun tolalar:** Uzunligi UHML dan uzun bo‘lgan dastalari.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan **UHML** (yuqori yarim o‘rtacha uzunlik) va **ML** (o‘rtacha uzunlik) parametrlariga asoslangan differensial tasniflash tizimi zig‘ir tolalarining morfologik va mexanik xususiyatlarini chuqurroq anglashda muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tolalarni qisqa, o‘rtacha va uzun toifalarga ajratish orqali namuna tarkibidagi tabiiy heterogenlikni (turli xillikni) tizimli ravishda tahlil qilish hamda har bir segmentning texnologik samaradorligini individual baholash imkoniyati yaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elfaleh, I. va boshqalar (2023). Tabiiy tolalar va ularning kompozitlari bo‘yicha keng qamrovli sharh: An’anaviy materiallarga ekologik toza muqobil. *Results Eng.*

2. Baley, C. va boshqalar (2018). Zig‘ir tolalarining cho‘zilish xususiyatlari. *To‘qimachilik va texnik tolalar xususiyatlari bo‘yicha qo‘llanma* (Miao, M. tahriri ostida). Woodhead Publishing: Kembrij, Buyuk Britaniya.
3. Zhu, S. va boshqalar (2024). Lub (poya) tolali kompozitlar bo‘yicha so‘nggi yutuqlar: Muhandislik innovatsiyalari, qo‘llanilishi va istiqbollari. *Compos. Part B Eng.*
4. Aldroubi, S. va boshqalar (2023). Yagona zig‘ir tolasi, ipi va bir tomonlama matoning morfologik, fizik va cho‘zilish xususiyatlarini ko‘p masshtabli tadqiq etish. *Compos. Part B Eng.*
5. Omrani, F. va boshqalar (2017). Zig‘ir tolasi bilan mustahkamlangan preformlar va kompozitlarning mexanik xususiyatlari: Iplar turining ko‘p masshtabli tavsiflarga ta’siri. *Compos. Part A Appl. Sci. Manuf.*
6. Ragoubi, M. va boshqalar (2023). Ivitish (retting) va qayta ishlash jarayonining zig‘ir asosidagi biokompozitlar xususiyatlariga ta’sirining ko‘p masshtabli tahlili. *Polymers.*
7. Thomason, J. va boshqalar (2011). Sizal va zig‘ir tolalarining ko‘ndalang kesimini aniqlash va o‘zgaruvchanligi hamda ularning tola samaradorligi tavsifiga ta’siri. *Compos. Sci. Technol.*

PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA HOSIL BO‘LAYOTGAN CHANGLI GAZLARNI TOZALOVCHI YANGI APPARATNING TUZILISHI

Ibragimov Axadjon Odiljonovich
texnika fanlari falsafa doktori., (PhD)
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada changli gazlarni nam usulda tozalash uchun yangi apparatning konstruksiyasi keltirilgan bo‘lib, uning alohida qismlariga to‘xtalib o‘tilgan. Bunda suv purkash orqali shlam hosil bo’ladi. Hosil bo‘lgan shlam qayta tindirilib, suvidan yana changlarni tozalashda foydalanish mumkin. Buning natijasida hozirgi kundagi ekologik muammolarga ma’lum darajada yechim topiladi. Atrof-muhitga chang zarralari tarqalishining oldi olinadi.*

Аннотация*: В данной статье представлена конструкция нового аппарата для мокрой очистки пылевых газов, с подробным описанием его отдельных компонентов. При распылении воды образуется шлам, который затем повторно отстаивается, и его жидкая часть может быть*

использована для дальнейшей очистки газов от пыли. Это позволяет частично решить актуальные экологические проблемы, предотвращая распространение пылевых частиц в окружающую среду.

***Annotation**. This article presents the design of a new device for wet purification of dust-laden gases, with a focus on its individual components. During the process, sludge is formed through water spraying. The resulting sludge is re-settled, and its liquid can be reused for further dust removal. As a result, this approach offers a partial solution to current environmental challenges by preventing the dispersion of dust particles into the atmosphere.*

Sanoat korxonalaridan chiqayotgan chang va zaxarli gazlarni tozalash jarayonida eng arzon va qulay usul bu nam usulda tozalash jarayonidir. Changli gazlarni ho‘l usulda tozalashning mohiyati, chang zarralarini namlash orqali mayda chang dispers zarrachalarini birlashtirishdir. Bunda chang zarrachalarining kontakti suyuqlik plyonkasi yuzasida yoki suyuqlik tomchilarida sodir bo‘ladi. Bu jarayonni amalga oshirishda changli gaz va suyuqlik oqimi perpendikulyar yoki qarama-qarshi harakatlanishi mumkin [1,2].



1-rasm. Konus setkali apparat sxemasi

1-ostki konussimon shlam vannasi, 2- ustki konussimon tozalash kamerasi, 3- konussimon setka, 3a setka tayanchi, 4- suv sepuvchi forsunka, 5- suv taqsimlovchi quvurcha, 6- changli gazni kiritish quvuri, 7- tozalangan gazni chiqaruvchi quvur, 8- suv idishi, 9- suv jo‘mragi,10- suv quvuri, 11- suv rotametri, 12- shlamni oqizuvchi quvur, 13- shlam jumragi, 14- shlam, 15- changli havoni haydovchi ventilyator, 16- changli havo jo‘mragi,17 Rotametr, 18 changli gazni uzatuvchi quvur.

Bu apparatlarni konstruktiv tuzilishi va samaradorlik nuqtai nazaridan taxlil qiladigan bo‘lsak, turli sanoat changlarini tozalash ko‘rsatkichi 97-99 % ni tashkil qiladi. Lekin bu apparatlarning konstruksion tuzilishining murakkabligi ularga sarflanayotgan energiya va apparatda gidrodinamik va aerodinamik qarshiliklarning yuqoriligini umumiy kamchilik sifatida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin [1,3]. Bu yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish va changli

gazlar bilan apparatga berilayotgan suyuqlik o‘rtasidagi kontakt yuzasini oshirish maqsadida, ho‘l usulda changli gazlarni tozalovchi setkali apparatning yangi konstruksiyasi tavsiya etilgan [3]. Yuqorida qurilmaning sxemasi keltirilgan (1-rasm).



2-rasm. Konus setkali apparatning umumiy ko‘rinishi

Tajribalarni dastlabki bosqichida apparatga changli gazni uzatuvchi ventilyatorning gazni so‘rish qismiga shiber (xarakatlanuvchi to‘sqich) o‘rnatildi. Shiberni $30\div90^0$ oraliqda (15^0 qadam bilan) o‘zgartirilib, ventilyatordan chiqayotgan gaz tezliklari va unga bog‘liq holda gaz sarflari aniqlandi.

Unga ko‘ra Shiber 30^0 ga ochilganda $Q_g=170m^3$/soat, 45^0 ga ochilganda $Q_g=340m^3$/soat, 60^0 ga ochilganda $Q_g=510m^3$/soat, 75^0 ga ochilganda $Q_g=680m^3$/soat, 90^0 ga ochilganda $Q_g=850m^3$/soatni tashkil etdi. Tajribalarning keyingi jarayonida apparat korpusiga ventilyator o‘rnatildi va yuqorida aniqlangan gaz sarflari $Q=170\div850m^3$/soat (170 m^3/soat qadam bilan) berilib, apparatdan chiqayotgan gaz tezliklari orqali gaz sarflari aniqlandi.

Bu holatda Shiber 30^0 ga ochilganda $Q_g=107m^3$/soat, 45^0 ga ochilganda $Q_g=220m^3$/soat, 60^0 ga ochilganda $Q_g=318m^3$/soat, 75^0 ga ochilganda $Q_g=438m^3$/soat, 90^0 ga ochilganda $Q_g=512m^3$/soatni tashkil etdi. Gaz sarflari farqidan apparatni mahalliy qarshilik koeffitsiyenti aniqlandi. Bu farqlarni aniqlashda tajribalarning hamma bosqichida ANEMOMETR VA06–TROTEC markali elektron qurilmadan foydalanildi. Apparatning mahalliy qarshilik koeffitsiyenti o‘rtacha $\xi=0,6$ni tashkil etdi.

Xulosa. Tajribaviy tadqiqotlar natijasida apparatga suv sepilmagan holatda, gaz sarfini qadamli o‘zgaruvchan qiymatlarida apparatning mahalliy qarshiliklari hamda tanlangan uch xil o‘lchamli setkalarning qarshilik koeffitsiyentlari aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra tanlangan setkalarning qarshilik koeffitsiyentini hisoblash uchun tuzatish koeffitsiyentlarining qiymatlari aniqlandi. Natijada apparatning kontakt qurilmalaridagi umumiy qarshilik koeffitsiyentiga bog‘liq holda umumiy yo‘qotilgan bosimni hisoblash uchun

imkoniyat yaratilgan. Ushbu apparatni qo‘llash orqali paxta tozalash korxonalaridan chiqayotgan changlarni tutib qolishga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. I.T.Karimov., B.U.Qo‘chqarov. Experimental determination of resistance coefficients in the case of water sprinkled on a cone-shaped apparatus // UNIVERSUM: TEXNICHYeSKIYe NAUKI Vыpusk: 9(114) Sentyabr, 2023 Chast 5, Moskva 2023. B.60-63 (02.00.00. №1)
[2].I.T.Karimov, B.U.Kochkarov. Wet method dust gas cleaning device // The american journal of enjineering and tehnology, 2021.№03.-PP. 20-26.
[3].Ikromali T.Karimov, Bobirmirzo U. Kochkarov “WET METHOD DUST GAS CLEANING DEVICE” Proceeding VIII International Conference “Industrial Technologies and Engineering” ICITE - 2021, Volume II. M. Auezov South Kazakhstan University, Shymkent, Kazakhstan November 10-11,2021.

ПИТАЮЩИЙ ЦИЛИНДР ПРЯДИЛЬНОГО УСТРОЙСТВА

Одилов Мухаммадоламгир Мадамин угли
Ташкентский институт текстильной и
лёгкой промышленности,
базовый докторант

Annotatsiya:*Ushbu maqolada pnevmomexanik yigirish mashinalarida qo‘llaniladigan ta’minlovchi silindr konstruksiyalarining tahlili va ularning kamchiliklari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, tolali lenta bo‘ylab ishqalanish kuchlarining notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan muammolar o‘rganilgan. Taklif etilgan yangi konstruktsiya esa elastik amortizatsiya elementi va zonalarga moslashtirilgan tishchalar parametrlari orqali lenta bo‘ylab bir tekis uzatishni ta’minlash hamda tolalarning shikastlanishini kamaytirishga qaratilgan. Natijada yigirish jarayonining barqarorligi va mahsulot sifati oshiriladi.*

Abstract: *This article analyzes the structure of feeding cylinders used in pneumatic spinning machines and examines their existing drawbacks. In particular, it studies the non-uniform distribution of friction forces along the fibrous sliver, which leads to uneven fiber movement and damage. The proposed improved design includes an elastic damping element and zone-specific rib parameters, ensuring uniform feeding of the sliver and reducing fiber damage. As a result, the stability of the spinning process and product quality are improved.*

Аннотация :*В данной статье рассматривается анализ конструкций питающих цилиндров, применяемых в пневмомеханических прядильных машинах, и их недостатки. Особое внимание уделено неравномерному распределению сил трения по длине волокнистой ленты, что приводит к нарушению равномерности подачи и повреждению волокон. Предложенная конструкция включает упругий амортизирующий элемент и адаптацию параметров рифлей по зонам, что обеспечивает равномерную подачу ленты и снижение повреждаемости волокон. Это способствует повышению стабильности процесса прядения и качества продукции*

Изобретение относится к области пневмомеханических прядильных машин, в частности к питающим цилиндрам прядильных устройств, применяемым при дискретизации волокон, преимущественно композиционной волокнистой ленты.Известна конструкция питающего цилиндра с прямыми рифлями, расположенными параллельно оси цилиндра. При его работе стабильная подача волокнистой ленты без нарушения её равномерности обеспечивается за счёт преодоления сил трения между лентой и столиком, а также необходимого перемещения, создаваемого цилиндром. Однако при изменении усилия прижима ленты к столику изменяется и сила трения, что вызывает частичное проскальзывание ленты. Величина этого проскальзывания зависит от расстояния между рифлями цилиндра [1].

Основным недостатком такой конструкции является неравномерность распределения трения по длине цилиндра, из-за чего на его краях наблюдается запаздывание перемещения волокон. Кроме того, жёсткое взаимодействие рифлей с волокнами приводит к их повреждению, а также к ускоренному износу рифлёной поверхности из-за мелких дефектов.В другой известной конструкции рифли выполнены под углом к оси цилиндра и образуют ромбические элементы, расположенные рядами по его длине [2]. Однако и в этом случае наблюдается неравномерное распределение сил трения между волокнами, цилиндром и столиком. Это приводит к замедлению движения волокон по краям ленты. Дополнительно возможно повреждение волокон из-за жёсткого контакта с ромбическими рифлями, несмотря на наличие амортизирующего столика.Также известен питающий цилиндр, содержащий рифлёную втулку на валу, выполненную в виде наружной рифлёной и внутренней втулок, соединённых резиновым элементом

бочкообразной формы [3]. Недостатком данной конструкции является повышенное повреждение волокон на краях цилиндра из-за увеличенного трения между лентой и столиком, что приводит к неравномерному распределению плотности волокон.

Наиболее близким техническим решением является питающий цилиндр, в котором рифлёная втулка состоит из трёх равных секций, соединённых резиновыми прокладками, а также используется резиновая втулка с криволинейной поверхностью [4]. Несмотря на это, сохраняется неравномерность распределения сил трения по длине цилиндра, что вызывает различия в скорости перемещения волокон в разных зонах. При одинаковой геометрии рифлей во всех секциях не учитываются локальные изменения плотности и трения волокон, что снижает равномерность подачи.

Задача изобретения

Целью предлагаемого решения является обеспечение равномерной подачи волокнистой ленты по всей длине питающего цилиндра, а также снижение повреждения волокон в процессе транспортирования.

Сущность изобретения

Поставленная задача достигается за счёт конструктивного усовершенствования питающего цилиндра, включающего выполнение его составным с использованием упругого амортизирующего элемента, а также изменением параметров рифлей в различных зонах подачи ленты.Питающий цилиндр содержит наружную рифлёную втулку и внутреннюювтулку, жёстко закреплённую на приводном валу. Эти элементы соединены между собой посредством резиновой втулки, при этом её наружная поверхность выполнена вогнутой формы, а внутренняя поверхность рифлёной втулки — выпуклой.Рифлёная втулка разделена на три равные по длине секции, между которыми установлены резиновые прокладки. Ширина и шаг рифлей на крайних секциях выполнены меньше, чем в средней части цилиндра. Это обеспечивает изменение площади контакта и силы трения по зонам.

Соотношение параметров выражается следующим образом:

$$F_{1,3} / F_2 = b_2 / b_{1,3} = t_2 / t_{1,3}$$

где:

- $F_{1,3}$, $b_{1,3}$, $t_{1,3}$ — сила трения, ширина и шаг рифлей в крайних секциях;
- F_2, b_2, t_2 — соответствующие параметры средней секции.

При этом количество рифлей на крайних участках больше, чем в центральной части, что увеличивает площадь контакта с волокнистой лентой и способствует выравниванию тяговых усилий по всей длине цилиндра.

Конструкция и работа устройства

Конструкция включает внутреннюю втулку, установленную на приводном валу, наружную рифлёную втулку, состоящую из трёх частей, и резиновую втулку амортизирующего типа. Между секциями расположены резиновые прокладки.

Резиновая втулка выполнена с вогнутым профилем, что обеспечивает распределение упругих деформаций с увеличением их интенсивности к краям цилиндра.

При работе вращательное движение от вала передаётся через внутреннюю втулку и упругий элемент к рифлёной наружной втулке. В процессе взаимодействия с волокнистой лентой секции цилиндра совершают колебательные движения в вертикальном и радиальном направлениях. Эти колебания зависят от толщины и плотности ленты и способствуют перераспределению волокон по ширине и длине потока.

Благодаря амортизирующим свойствам конструкции уменьшается жёсткость контакта рифлей с волокнами, что снижает их повреждаемость.

Увеличенное количество рифлей в крайних зонах компенсирует потери тягового усилия, возникающие из-за неравномерности нагрузки, и обеспечивает более равномерное перемещение ленты по всей длине цилиндра.

Технический результат
Предлагаемая конструкция обеспечивает:

- равномерную подачу волокнистой ленты по длине цилиндра;
- снижение повреждаемости волокон;
- улучшенное перераспределение волокон в процессе подачи;
- компенсацию неравномерности сил трения между различными зонами цилиндра;
- повышение стабильности процесса транспортирования ленты.

Использованные литературы

1.Волков Ю.В. (ред.). **Безверетенное прядение**. – Лёгкая и пищевая промышленность, 1981. – 294 с.

2.Магазов И., Сергеев К.В. **Устройство и обслуживание пневмомеханических прядильных машин**. – М.: Легпромбытиздат, 1985. – 56с.
3.Патент РФ на полезную модель № FAP 00688. **«Питающий цилиндр прядильного устройства»**. Бюл. №1, 31.01.2012. Джураев А.Дж., Жуманиязов К.Ж., Матисмаилов С.Л., Мирзаев О.А., Довган А.С.
4.Патент Республики Узбекистан на изобретение № IAP 8170. **«Питающий цилиндр прядильного устройства»**. Бюл. №8, 25.07.2025.
Мирзаев О.А., Кузиев Н.М., Джураев А.Дж., Ураков Н.А., Исмоилова Н.И., Ашурова Л., Маматов Н.З., Мурадов С.Х., Хужакулов А.Х., Каримов Б.У., Эшмухамедов Л.М., Тогаев Ж.Х.

TANDA IPLARINI OXORLASH JARAYONIDA TEXNOLOGIK OMILLARNI ROSTLASHNING SIFAT VA EKOLOGIK SAMARADORLIKKA TA’SIRI

T.f.f.d (PhD) N.G. Valiyev
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada tanda iplarini oxorlash jarayonida texnologik omillarni to‘g‘ri tanlash va rostlashning to‘qima sifati, ip uzilishlari, ishlab chiqarish unumdorligi hamda ekologik samaradorlikka ta’siri tahlil qilindi. Oxor miqdori, tezlik, namlik, cho‘zilish, o‘ralish zichligi, retsept, konsentratsiya va harorat asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi.*

Аннотация. *В статье проанализировано влияние правильного выбора и регулирования технологических факторов процесса шлихтования основной пряжи на качество ткани, обрывность нитей, производительность и экологическую эффективность. Рассмотрены количество шлихты, скорость, влажность, вытяжка, плотность намотки, рецептура, концентрация и температура шлихты.*

Annotation. *The article analyzes the influence of proper selection and regulation of technological factors in warp yarn sizing on fabric quality, yarn breakage, production efficiency and environmental performance. Size add-on, sizing speed, moisture, elongation, winding density, recipe, concentration and temperature are considered as key factors.*

To‘qimachilik va paxta sanoati tarmoqlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi, xomashyo va kimyoviy moddalardan oqilona foydalanish, energiya sarfini kamaytirish hamda tayyor mahsulot sifatini oshirish dolzarb masalalardan biridir. To‘quvchilik ishlab chiqarishida tanda iplarining tayyorlanish sifati keyingi

texnologik bosqichlarning uzluksiz ishlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tanda ipi to‘quv dastgohida ishqalanish, egilish, tortilish va zarba ta’sirlariga uchraydi. Shu sababli ipning mustahkamligini oshirish, tukdorligini kamaytirish va sirtida himoya pardasi hosil qilish uchun oxorlash jarayoni amalga oshiriladi.

Oxorlashning asosiy vazifasi ip yuzasiga yelimlovchi tarkibni bir tekis shimdirish va tolalar orasidagi bog‘lanishni kuchaytirishdan iborat. Hosil bo‘lgan yupqa parda tolalarning chiqib turgan uchlarini yopishtiradi, ipning ishqalanishga chidamliligini oshiradi va to‘quv jarayonida uzilishlar sonini kamaytiradi. Shuning uchun oxorlash yordamchi operatsiya emas, balki to‘qima sifatini shakllantiruvchi muhim texnologik bosqichdir [1].

Oxorlash samaradorligi oxor miqdori, oxorlash tezligi, tanda namligi, iplarning cho‘zilishi, o‘ralish zichligi, oxor retsepti, konsentratsiyasi va haroratining o‘zaro mosligiga bog‘liq. Oxor miqdori yetarli bo‘lmasa, ip sirtida himoya qatlami to‘liq hosil bo‘lmaydi, tukdorlik va ishqalanish ortadi. Aksincha, oxor haddan tashqari ko‘p berilsa, ip qattiqlashadi, elastikligi kamayadi, qoplama to‘kilishi kuchayadi va keyingi pardozlash bosqichlarida oxorni ketkazish qiyinlashadi. Demak, oxor miqdori ipning chiziqli zichligi, tola tarkibi va to‘quv dastgohi sharoitiga mos belgilanadi.

Oxor retseptini tanlashda ipning tolaviy tarkibi, to‘qima turi va texnologik yuklamasi hisobga olinadi. Amaliyotda kraxmal, modifikatsiyalangan kraxmal, karboksimetilsellyuloza, polivinil spirt va boshqa polimer asosli birikmalar qo‘llaniladi. Tadqiqotlarda modifikatsiyalangan oxorlash agentlari paxta iplarining pishiqligi, ishqalanishga chidamliligi va tukdorlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashi ko‘rsatilgan [2]. Shu bilan birga, ekologik nuqtai nazardan biologik parchalanadigan va suvda oson ketadigan yelimlovchi moddalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega [3].

Oxor konsentratsiyasi va yopishqoqligi uning ip ichiga shimilish darajasi hamda sirtida hosil bo‘ladigan parda sifatini belgilaydi. Konsentratsiya past bo‘lsa, yelimlanish yetarli bo‘lmaydi; juda yuqori bo‘lsa, eritma qovushqoqligi ortib, ip ichiga kirishi qiyinlashadi. Bunday holatda oxor asosan ip sirtida to‘planadi va to‘quv jarayonida changlanish yoki qoplama sinishi kuzatiladi. Oxor harorati esa yelimlovchi moddalarning erishi, kraxmalning jelatinlanishi va eritmaning barqaror qovushqoqligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Oxorlash tezligi mashinaning unumdorligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. U mashinadan vaqt birligida o‘tadigan ip uzunligi bilan aniqlanadi va asosan quritish qismining suv bug‘latish qobiliyatiga bog‘liq. Manbalarda MShB rusumidagi oxorlash mashinalarida tezlik 30-150 m/min, ShKV mashinalarida esa 12-80 m/min bo‘lishi ko‘rsatiladi. Turli tolali iplar uchun tavsiya etiladigan tezlik farqlanadi: viskoza iplari uchun 50-70 m/min, atsetat va triatsetat iplari uchun 40-50 m/min, kapron iplari uchun 27-30 m/min, yakka xom paxta ipi uchun 40-50 m/min, pishitilgan xom paxta ipi uchun 60-70 m/min atrofida qabul qilinadi [1].

Tanda namligi ham oxorlash sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oxorlashdan keyingi namlik me’yorlari tola turiga qarab farqlanadi: paxta tolali iplar uchun 7-9 %, jun tolali iplar uchun 12-15 %, sun’iy ipak iplari uchun 10-11 % namlik tavsiya etiladi [1]. Namlik me’yordan past bo‘lsa, ip mo‘rtlashadi va uzilish ehtimoli ortadi; me’yordan ortiq bo‘lsa, o‘ram ichida yopishish, notekis qurish va saqlash davrida sifatning pasayishi yuzaga keladi.

Oxorlash vaqtida iplar siqish valiklari, quritish silindrlari va yo‘naltiruvchi qismlardan o‘tadi. Bu jarayonda ortiqcha tortilish yuzaga kelsa, ipda plastik deformatsiya paydo bo‘ladi, elastiklik kamayadi va to‘quv dastgohida taranglik notekisligi yuz beradi. O‘ralish zichligi ham barqaror bo‘lishi zarur: juda zich o‘ram namlik taqsimotini qiyinlashtiradi, bo‘sh o‘ram esa tashish va dastgohga o‘rnatishda shaklini yo‘qotishi mumkin.

Innovatsion yo‘nalishlardan biri oxor tayyorlashda ultratovush ta’siridan foydalanishdir. Gidrodinamik generator yordamida suyuqlik bosim ostida teshiklardan katta tezlikda o‘tib, oqimda ultratovush va turbulent harakat hosil qiladi. Natijada kraxmal zarrachalari maydalanadi, oxor tarkibi bir tekis aralashadi va eritmaning texnologik barqarorligi ortadi. Manbaga ko‘ra, ultratovushdan foydalanish oxor tayyorlash vaqtini 1,5-3 barobargacha qisqartirishi, yelimlovchi va parchalovchi moddalarning sarfini 15 % gacha kamaytirishi mumkin [1].

Ilmiy adabiyotlarda ultratovushli ishlov berishning to‘qimachilik jarayonlarida energiya, vaqt va kimyoviy modda sarfini kamaytirishga xizmat qilishi qayd etilgan [5]. Bu esa oxorlash jarayonini nafaqat sifat, balki ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan ham takomillashtirish imkonini beradi. Ayrim tadqiqotlarda PVA kabi sintetik yelimlovchi moddalarning oqova suvda qiyin parchalanishi ekologik muammolarni kuchaytirishi ko‘rsatilgan, shu sababli keratin kabi muqobil biologik parchalanadigan agentlardan foydalanish istiqbolli hisoblanadi [4].

Xulosa qilib aytganda, tanda iplarini oxorlash jarayonida texnologik omillarni ilmiy asosda rostlash to‘qima sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va ekologik xavfsizlikni oshiradi. Oxor miqdori, tezlik, namlik, cho‘zilish, o‘ralish zichligi, retsept, konsentratsiya va harorat optimal boshqarilganda ip yuzasida bir tekis himoya qatlami hosil bo‘ladi, to‘quv jarayonida uzilishlar kamayadi va nuqsonli mahsulot miqdori pasayadi. Oxor tayyorlashda ultratovush texnologiyasidan foydalanish esa jarayon vaqtini qisqartirish, kimyoviy modda sarfini kamaytirish va ekologik yuklamani pasaytirish imkonini beradi. Shu sababli oxorlash jarayonini innovatsion va ekologik yondashuvlar asosida takomillashtirish to‘qimachilik va paxta sanoatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishning muhim yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Valiyev G.N., Xasanov B.K. To‘qima hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari fanidan ma’ruzalar kursi. Farg‘ona: FarPI, 2024.

[2] Ahmed T., Mia R., Toki G.F.I., Jahan J., Hasan M.M., Tasin M.A.S., Farsee M.S., Ahmed S. Evaluation of sizing parameters on cotton using the modified sizing agent. Cleaner Engineering and Technology, 2021, Vol. 5, Article 100320. DOI: 10.1016/j.clet.2021.100320.
[3] Xu J., Wang L., Wang J., Fan X., Wang Q., Wang P., Zhang Y., Li C., Yuan J., Yu Y. Partially gelatinized corn starch as a potential environmentally friendly warp-sizing agent. Journal of Cleaner Production, 2016, Vol. 112, pp. 3195-3200. DOI: 10.1016/j.jclepro.2015.10.099.
[4] Reddy N., Chen L., Zhang Y., Yang Y. Reducing environmental pollution of the textile industry using keratin as alternative sizing agent to poly(vinyl alcohol). Journal of Cleaner Production, 2014, Vol. 65, pp. 561-567. DOI: 10.1016/j.jclepro.2013.09.046.
[5] Hassan M.M., Saifullah K. Ultrasound-assisted sustainable and energy efficient pre-treatments, dyeing, and finishing of textiles - A comprehensive review. Sustainable Chemistry and Pharmacy, 2023, Vol. 33, Article 101109. DOI: 10.1016/j.scp.2023.101109.

TANDALASH JARAYONIDA TANDA IPLARI TARANGLIGINI BARQARORLASHTIRISHNING TO‘QIMA SIFATI VA RESURS TEJAMKORLIGIGA TA’SIRI

T.f.f.d (PhD) N.G. Valiyev
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Maqolada tandalash jarayonida tanda iplarining tarangligini barqaror saqlashning to‘qima sifati, texnologik uzluksizlik va resurs tejamkorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tandalashga qo‘yiladigan texnologik talablar, tandalash romlari, ip tarangligining notekislanish sabablari hamda zamonaviy nazorat va rostlash yondashuvlari ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние стабилизации натяжения основных нитей в процессе снования на качество ткани, технологическую непрерывность и ресурсосбережение. Рассмотрены основные технологические требования к снованию, виды сновальных рам, причины неравномерности натяжения нитей и современные подходы к контролю натяжения.*

Annotation. *The article analyzes the influence of stabilizing warp yarn tension during warping on fabric quality, technological continuity and resource efficiency. The main technological requirements for warping, types of warping creels, causes of yarn tension irregularity, and modern tension monitoring and control approaches are considered.*

To‘qimachilik va paxta sanoati tarmoqlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishda to‘quvchilikka tayyorlov jarayonlarining sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega. To‘quv ishlab chiqarishida tayyor mahsulot sifati faqat to‘quv dastgohi imkoniyatlariga emas, balki unga yetkazib beriladigan tanda iplarining tayyorlanish darajasiga ham bevosita bog‘liq. Tandalash jarayoni ana shunday muhim tayyorlov bosqichlaridan biri bo‘lib, unda ma’lum uzunlikdagi va hisob bilan aniqlangan iplar soni jamlanib, tandalash g‘altagi yoki to‘quv g‘altagiga o‘zaro parallel holatda o‘raladi [1].

Tandalash jarayonining asosiy mohiyati bir necha yuzlab iplarni bir vaqtning o‘zida bitta o‘rama shaklida jamlashdan iborat. Bunda iplar uzunligi, tarangligi, joylashish zichligi va o‘ramaning geometrik shakli qat’iy nazorat qilinishi kerak. Agar tandalash jarayonida iplar tarangligi bir xil bo‘lmasa, keyingi oxorlash va to‘quv jarayonlarida iplarning bir qismi ortiqcha tortiladi, boshqa qismi esa bo‘sh holatda qoladi. Natijada to‘quv dastgohida xomuza hosil qilish jarayoni buziladi, arqoq tashlash barqarorligi pasayadi, ip uzilishlari ko‘payadi va to‘qima yuzasida nuqsonlar paydo bo‘ladi.

Tandalash jarayoniga qo‘yiladigan asosiy texnologik talablar quyidagilardan iborat: jarayon yuqori unumli bo‘lishi, harakatdagi barcha iplar tarangligi bir xil va doimiy bo‘lishi, olinadigan o‘rama silindr shaklida bo‘lishi, iplar o‘ramaning eni va radiusi bo‘ylab bir xil zichlikda o‘ralishi, ip uzilganda mashinaning ish qismlari tez to‘xtashi, o‘ramadagi barcha iplarning uzunligi bir xil bo‘lishi hamda jarayon chiqindilari imkon qadar kam bo‘lishi lozim [1]. Bu talablar tandalash jarayonining sifat, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tandalash mashinalari odatda ikki asosiy qismdan iborat bo‘ladi: bobina yoki g‘altaklar joylashtiriladigan tandalash romi hamda bevosita tandalash o‘ramasini hosil qiluvchi mashina qismi. Tandalash romlari ularga o‘rnatiladigan o‘rama turiga qarab g‘altak tandalash romi va bobina tandalash romiga ajratiladi [1]. Jarayon sifatiga romning konstruktiv tuzilishi, bobinalarning joylashishi, ballon so‘ndirgichlar, taranglovchi moslamalar va ip yo‘naltiruvchi elementlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tandalash romlari tuzilishi bo‘yicha uzluksiz va uzlukli turlarga bo‘linadi. Uzluksiz tandalash romlarida ishchi va zaxira bobinalar o‘rnatiladi. Ishchi bobinadagi ip tugagach, zaxira bobinadagi ip jarayonga ulanadi. Nazariy jihatdan bunday usul mashinani to‘xtatmasdan ishlash imkonini beradi. Biroq amaliyotda bobinalardagi ip uzunliklarining farqlanishi va ip tarangligining notekis bo‘lishi tandalash o‘ramasi sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Uzlukli tandalashda esa ipi tugagan bobinalar bir vaqtda to‘la bobinalar bilan almashtiriladi. Bu usulda bobinalar diametrining bir xil bo‘lishi ip tarangligini barqarorlashtirishga yordam beradi, o‘rama sifati esa yuqoriroq bo‘ladi [1].

Tanda iplarining tarangligi tandalash jarayonining eng muhim parametrlaridan biridir. Tandalashda barcha iplar bir xil kuch bilan tortilishi

lozim. Taranglikning ortib ketishi ipning elastik va plastik deformatsiyasiga, ayrim hollarda esa uzilishiga olib keladi. Taranglikning kamayib ketishi esa iplarning notekis joylashishiga, o‘ramaning bo‘sh shakllanishiga va keyingi texnologik bosqichlarda iplarning chalkashishiga sabab bo‘ladi. Demak, optimal taranglik nafaqat ipni saqlab qolish, balki to‘quv jarayonida barqaror tanda hosil qilishning ham asosiy shartidir.

Taranglikni me’yorlashtirish uchun tandalash jarayonida turli taranglovchi moslamalardan foydalaniladi. Ular umumiy tarzda sozlanmaydigan, o‘zi sozlanadigan va masofadan turib sozlanadigan moslamalarga bo‘linadi [1]. Sozlanmaydigan taranglovchilarda taranglikni o‘zgartirish uchun shaybalar og‘irligi, ipning yo‘naltiruvchi elementlarni aylanib o‘tish burchagi yoki moslamaning konstruktiv holati qo‘lda o‘zgartiriladi. Bunday moslamalarda kirish tarangligi, bobina diametri, tezlik va ishqalanish kuchi o‘zgarganda chiqish tarangligi ham o‘zgaradi. Shu sababli ular yuqori tezlikli va yuqori sifat talab qilinadigan ishlab chiqarish sharoitida yetarli aniqlik bermasligi mumkin.

O‘zi sozlanadigan taranglovchi moslamalar chiqish qismidagi taranglikni ma’lum darajada avtomatik ushlab turadi. Masofadan turib sozlanadigan moslamalar esa ishlab chiqarish jarayonida taranglikni markazlashgan tarzda boshqarish imkonini beradi. Innovatsion yondashuv aynan shu turdagi boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bilan bog‘liq. Zamonaviy sensorlar, elektromagnit tormozlar, servoyuritmalar va raqamli nazorat bloklari yordamida har bir ip guruhi yoki tandalash seksiyasida taranglik real vaqt rejimida kuzatilishi va rostlanishi mumkin. Bunday yechimlar ip uzilishlarini kamaytirish, o‘ramaning bir tekis shakllanishini ta’minlash va texnologik jarayonning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda ip tarangligini boshqarishda signalni filtrlash, kaskadli boshqaruv, qayta aloqa tizimlari va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish masalalari o‘rganilmoqda. Kalman filtri asosida taranglik va holatni kaskadli boshqarish usuli ip tarangligi signallaridagi shovqinlarni kamaytirish hamda optimal taranglikni saqlash imkonini berishi ko‘rsatilgan [3]. Bunday yondashuvlar tandalash jarayonida qo‘llanilganda iplar orasidagi taranglik farqini kamaytirish va yuqori tezlikda ham sifatni barqaror saqlash imkonini beradi.

Tandalash jarayonida taranglik notekisligining asosiy sabablaridan biri bobina diametrining kamayib borishi, ipning bobinadan yechilish nuqtasining o‘zgarishi, ballon hosil bo‘lishi, ishqalanish yuzalarining holati, mashinaning tezlanish va to‘xtash rejimlari hamda ipning fizik-mexanik xossalaridagi farqlardir. Ayniqsa paxta iplarida chiziqli zichlik, pishiqlik, tukdorlik va buramlar notekisligi mavjud bo‘lgani uchun bir xil texnologik rejim barcha iplar uchun bir xil natija bermasligi mumkin. Shu sababli tandalash jarayonida taranglikni faqat o‘rtacha qiymat bo‘yicha emas, balki iplar guruhi bo‘yicha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Tandalash tezligi ham muhim texnologik omil hisoblanadi. Yuqori tezlik ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, biroq taranglik tebranishlari, ballon balandligi va ip uzilishlari xavfini ham kuchaytiradi. Past tezlikda esa jarayon barqarorroq kechadi, lekin ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Shuning uchun tezlikni tanlashda ipning chiziqli zichligi, tolaviy tarkibi, bobina shakli, rom sig‘imi, taranglovchi moslama turi va mashinaning avtomatlashtirish darajasi hisobga olinishi zarur. Ilmiy adabiyotlarda tandalash tezligi va ip tarangligi tanda iplarining keyingi xossalariga sezilarli ta’sir qilishi qayd etilgan [2].

Tandalash sifatini oshirishda o‘ramaning silindrsimon shakli va zichligining bir tekis bo‘lishi alohida o‘rin tutadi. O‘ramada eni yoki radius bo‘yicha zichlik farqi yuzaga kelsa, keyingi jarayonlarda iplar bir xil tezlikda yechilmaydi. Natijada tanda varag‘ida notekis taranglik hosil bo‘ladi. Tanda tarangligining tebranishlarini tahlil qilishda statistik va hisoblash intellekti usullaridan foydalanish mumkinligi ilmiy ishlarda ko‘rsatilgan [5]. Bunday nuqsonlarni kamaytirish uchun taroq, o‘lchash vali, zichlovchi val, ip uzilganda to‘xtatuvchi mexanizm va ogohlantiruvchi qurilmalar to‘g‘ri sozlanishi lozim. Zamonaviy tandalash uskunalarida ip uzilishini aniqlovchi datchiklar, elektron uzunlik o‘lchagichlar va avtomatik to‘xtatish tizimlari qo‘llanilishi jarayon ishonchliligini oshiradi.

Tandalash jarayonida innovatsion nazorat va rostlash texnologiyalarini joriy etish nafaqat mahsulot sifatini, balki ekologik samaradorlikni ham oshiradi. Ip uzilishlari kamayganda chiqindi miqdori qisqaradi, qayta ulash va qayta ishlashga sarflanadigan vaqt kamayadi, elektr energiyasi va yordamchi materiallar sarfi pasayadi. O‘ramaning sifatli shakllanishi keyingi oxorlash jarayonida oxor moddalarining bir tekis shimilishiga yordam beradi. Bu esa oxor sarfini optimallashtirish, ortiqcha kimyoviy yuklamani kamaytirish va to‘qimachilik korxonalarida ekologik xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

Resurs tejamkorlik nuqtai nazaridan tandalash jarayonini optimallashtirish bir nechta yo‘nalishda samara beradi. Birinchidan, ip uzilishlari kamayishi xomashyo yo‘qotishlarini pasaytiradi. Ikkinchidan, mashinaning bekor turish vaqti qisqaradi, bu esa energiya samaradorligini oshiradi. Uchinchidan, keyingi oxorlash va to‘quv bosqichlarida nuqsonlar kamayadi. To‘rtinchidan, tayyor mahsulot sifatining barqarorlashuvi qayta ishlash va brak mahsulot hajmini kamaytiradi. Ip tarangligini boshqarish paket sifati va keyingi texnologik ishlov samaradorligiga ta’sir qilishi ham tadqiqotlarda qayd etilgan [6]. Shu sababli tandalash jarayonini raqamli nazorat qilish va texnologik omillarni ilmiy asosda rostlash paxta-to‘qimachilik sanoatida barqaror ishlab chiqarish tamoyillariga mos keladi.

Tandalash jarayonida taklif etiladigan innovatsion yondashuv quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin: har bir ip guruhi bo‘yicha taranglikni o‘lchovchi sensorlardan foydalanish, bobina diametri o‘zgarishiga mos ravishda taranglovchi kuchni avtomatik moslashtirish, ip uzilganda ishchi qismlarni tez

to‘xtatish, real vaqt rejimida tezlik va taranglik ma’lumotlarini qayd etish, shuningdek, olingan ma’lumotlar asosida optimal tandalash rejimini tanlash. Bunday tizim ishlab chiqarish jarayonini faqat mexanik boshqaruvdan raqamli va moslashuvchan boshqaruv bosqichiga olib chiqadi. O‘rash-yechish uzunligini monitoring qilish asosida dinamik taranglikni boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar bunday raqamli yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi [4].

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda korxonaning mavjud uskunalari, ip assortimenti, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Kichik va o‘rta korxonalarda barcha uskunalarni to‘liq almashtirish katta xarajat talab qilishi mumkin. Shuning uchun dastlab mavjud tandalash romlarini takomillashtirish, taranglovchi moslamalarni modernizatsiya qilish, elektron ip uzilishini nazorat qilish qurilmalarini o‘rnatish hamda operatorlar uchun texnologik monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tandalash jarayonida ip tarangligini barqarorlashtirish to‘quvchilik ishlab chiqarishining asosiy sifat zanjirida muhim o‘rin egallaydi. Tanda ipi qanchalik bir xil taranglikda tayyorlansa, oxorlash, o‘tkazish, ulash va to‘quv jarayonlari shunchalik barqaror kechadi. Natijada ip uzilishlari kamayadi, dastgoh unumdorligi ortadi, to‘qima yuzasidagi nuqsonlar kamayadi va mahsulotning raqobatbardoshligi oshadi. Bu esa ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. Tandalash jarayonida tanda iplarining tarangligini bir xil va barqaror saqlash to‘qima sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va resurs tejamkorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tandalash romlari, taranglovchi moslamalar, tezlik rejimi, o‘rama zichligi va avtomatik nazorat tizimlari o‘zaro uyg‘un ishlaganda yuqori sifatli tanda o‘ramasi olinadi. Innovatsion sensorli nazorat, masofadan boshqariladigan taranglovchi moslamalar va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish ip uzilishlarini kamaytiradi, chiqindilarni qisqartiradi va keyingi texnologik bosqichlarda barqarorlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan tandalash jarayonini takomillashtirish to‘qimachilik va paxta sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik muammolarni yumshatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Valiyev G.N., Xasanov B.K. To‘qima hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari fanidan ma’ruzalar kursi. Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, 2024.
[2] Dorgham M.E. Warping Parameters Influence on Warp Yarns Properties: Part 1: Warping Speed and Warp Yarn Tension. Journal of Textile Science & Engineering, 2013, Vol. 3, Article 132. DOI: 10.4172/2165-8064.1000132.

[3] Neaz A., Lee E.H., Jin T.H., Cho K.C., Nam K. Optimizing Yarn Tension in Textile Production with Tension-Position Cascade Control Method Using Kalman Filter. Sensors, 2023, Vol. 23, Article 5494. DOI: 10.3390/s23125494. (Scopus, Web of Science)
[4] Tu L., Guo M., Wang J., Gao W. Dynamic tension control for warp beams on sizing machine based on unwinding length monitoring. Textile Research Journal, 2024, Vol. 94, Issue 9-10. DOI: 10.1177/00405175231222933. (Scopus, Web of Science)
[5] Turhan Y., Tokat S., Eren R. Statistical and computational intelligence tools for the analyses of warp tensions in different back-rest oscillations. Information Sciences, 2007, Vol. 177, Issue 23, pp. 5237-5252. DOI: 10.1016/j.ins.2007.06.029. (ScienceDirect, Scopus, Web of Science)
1-rasm. O‘zbekiston PTK da 25x14 m o‘lchamli g‘aram maydonida qo‘lda tunnel qazish jarayonidan olingan C65-24, 2/2 nav paxta chigitini o‘rtacha shikastlanganlik darajasi

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, qo‘lda tunnel qazish jarayonida chigitlarning mexanik shikastlanishi tunnel uzunligi va zichligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, 6–7 metr chuqurlikdan boshlab shikastlanish darajasi keskin ortadi.

Mazkur natijalar qo‘lda tunnel qazish texnologiyasini takomillashtirish, mexanik yuklamani kamaytiruvchi konstruktiv yechimlar yoki mexanizatsiyalashgan usullarni joriy etish zarurligini ilmiy asoslab beradi.

Andijon viloyati Ulug‘nor tumani Mingbuloq paxta tayyorlov maskanida 10×14 m o‘lchamli paxta g‘aramida mashina yordamida tunnel qazish jarayonida An-35, 2/2 navli paxta chigitlarining mexanik shikastlanish darajasi tunnel uzunligi bo‘ylab (1 m dan 8 m gacha) hamda tunnel tepa qismi va yon devorida o‘rganildi. Tadqiqot har bir kesimda uch martalik takroriy namunalash asosida olib borilib, natijalar o‘rtacha qiymatlar orqali umumlashtirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mashina yordamida tunnel qazishda sinish jarayoni ustun mexanizm bo‘lib, ezilish ikkilamchi xarakterga ega. O‘rtacha qiymatlar asosida aniqlangan umumiy shikastlanish darajasi tunnel bo‘ylab quyidagi dinamikani namoyon etdi. 1 metrda 6,22 %, 2–4 metr oralig‘ida 6,38–6,57 %, 5–6 metr oralig‘ida 6,87–6,91 %, 7–8 metr oralig‘ida 7,36–7,46 %, Tunnel devorida esa 8,25 % ni tashkil etdi.



2-rasm. O‘lchami 10x14 m bo‘lgan paxta g‘aramiga mashida tunell qazishda olingan paxta chigitining mexanik shikastlanishini tunell chuqurligi bo‘yicha o‘zgarish gistogrammasi

Ko‘rinib turibdiki, tunnel chuqurlashgan sari shikastlanish darajasi barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 7–8 metrda 7,5 % ga yaqinlashadi. Tunnel devori zonasida esa shikastlanish darajasi 8 % dan oshib, texnologik jihatdan shikastlanish darajasi yuqori ekani aniqlandi. Umumiy shikastlanish tarkibida singan chigitlar ulushining ustunligi chigitlarning urug‘lik va texnologik sifat ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[4-5].

XULOSA. Olingan natijalar mashinada tunnel qazish texnologiyasida mexanik yuklamaning qo‘lda qazishga nisbatan yuqori ekanini va chigit sifatini saqlab qolish nuqtai nazaridan jarayonni optimallashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida qo‘lda va mashinada tunnel qazish texnologiyasini optimallashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Natijalar paxta g‘aramida shamollatish tunnelini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish, chigit sifatini saqlab qolish hamda paxta tozalash korxonalarida samaradorlikni oshirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxtani qabul qilish va saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma. //Paxtasanoat ilmiy markazi. Toshkent-2017.

2. “Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi” (PDI 70 - 2017), Toshkent “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ - T.:2019.

3. Salimov A., Khusanova Sh., Salimov O., Toshtemirov Q., Yakubov N., Rakhimjanov A. Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. //Journal of optoelectronics laser. – 2022. – T. 41. – №. 7. – C. 612-618.

4. M.E.Ruzmetov, A.M.Salimov, A.A.Raxmonov. Paxta g‘aramida shamollatish tunnelini shakllantirish qurilmasini tadqiqi. // To‘qimachilik muammolari jurnali. 2025 yil 2-son 66-73 bet. Toshkent-2025 y.

5. Xodjiyev M.T., Mardonov B.M., Sirojiddinov F.N. Paxta sanoati texnlogiyasi jarayonlarini modellashtirish. Guliston. 2023, 360 b.

POLYESTER TOLASINI FIZIK –MEXANIK XOSSALARI TAHLILI

Q..Jumaniyazov, N.Ro‘zibayev, B.Urushov
Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat inistituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, poliester tolalarining xossalari hamda ularni qanday mahsulotlar ishlab chiqarishi o’rganilgan.*

Аннотация. *В данной статье изучены свойства полиэстеровых волокон, а также рассмотрено, какие изделия из них производятся.*

Abstract. *This article examines the properties of polyester fibers and examines which products are produced from them.*

Bugungi kunda Respublikamizda mahalliy xom ashyoda oqilona faydalanish maqsadida tabbiy tolalarga kimyoviy tollarni aralashtirib yangi assartemintdagi iplar ishlab chiqarish bugungi kunda oldimizda turgan fazifalar mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanish,import o'rnini bosuvchi mahsulotlar yaratish **e**ksport salohiyatini oshirish**,**yangi ish o'rinlari yaratish,ilg'or texnologiyalarni joriy etish xisoblanadi[1]. Ilmiy izlanishlar natijasida tabiiy tolalarga nisbatan ayrim fizik-mexanik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan kimyoviy tolalar yaratilmoqda. Sintetik tolalar ishlab chiqarish sun’iy tolalar ishlab chiqarishdan so‘ng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, tez vaqt ichida kimyoviy tolalar ishlab chiqarishda salmoqli kopaydi. Polyester tolalari, kimyoviy tolalar olinish usuli bo‘yicha sintetik tolalar guruhiga mansub bo‘lib, neft mahsulotlariga kimyoviy ishlov berish orqali yuqori harorat va bosimda sintez qilish yo‘li bilan olinadi. Polyester tolali mahsulotlar to‘qimachilik sanoatining 60% dan ortig‘ini tashkil etadi[2,3].



Polyester tolasi hozirda sof shaklda kamdan kam qo‘llaniladi. Shuning uchun matoga polyester tolasidan 50 % dan 67% gacha qo‘shilsa, uning

ishqalanishga chidamliligi 2 martta oshadi va tashqi ta’sirga chidamliligi esa 1-1.5 % ga ortishi isbotlangan. Polyester tolasi harorat o‘zgarishlariga eng chidamli, g‘ijim bo‘lmaydigan, kam kirishadigan, yengil, qayishqoq, sovuqqa, kuyaga chidamli, chirimaydigan toladir[4]. Polyesterning gigroskopikligi juda past- 0,4 % ni tashkil etadi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun gazlamalar to‘qishda shtapel tola tarzidagi polyesterga tabiiy va viskoza tolalar aralashtiriladi. Polyester tolasiga paxta tolasini aralashtirib ishlansa, undan olingan gazlama va buyumlarning elastikligi oshadi va g‘ijim bo‘lmaydi. Polyester tolasini jun tolasi bilan aralashtirib ishlansa, undan olingan gazlama va buyumlarning pishiqligi oshadi hamda yorug‘lik nuriga, ob-havo ta’siriga chidamli bo‘ladi. Sof polyester g‘altak iplar, to‘r, texnik gazlamalar, sun’iy mo‘yna, gilam va shu kabilar tayyorlash uchun ishlatiladi.

1-jadval

Polyester tolasining fizik-mexanik xossalari

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Qiymatlari
1	Talab qilingan mustahkamlik	cN/dtex	2.52
2	Talab qilingan mustahkamlik	%	6.2
3	Nam holatdagi mustahkamlik	sN/dtex	1.20
4	Uzilishdagi cho‘zilish darajasi	%	21.2
5	og‘ish darajasi	%	3.8
6	Tolaning uzunlik og‘ish darajasi	%	0.3
7	O’rtacha uzun tolalar	%	0.1
8	Ikki karra uzun tolalar	mg/100g	0.7
9	Yigirishdagi nuqsonlar	mg/100g	0.2
10	Qoldiq oltingugurt miqdori	mg/100g	2.0
11	Oqlik darajasi	%	85
12	Dog‘lik , sarg‘ish tolalar	mg/100g	0.0
13	Yog‘ bilan qoplanganlik darajasi	%	0.32

Paxta tolasi polyester tolasi bilan aralashtirilib kastyumbop, ayollar va erkaklar ko‘ylaklari tikish uchun yigirilgan ip ishlab chiqariladi.

Polyester tolasi sanoatda qayta ishlanib quyidagi buyumlar ishlab chiqariladi: soyabon, plashlar, pardalar, dasturxonlar, bezash uchun salfetkalar, kiyim – kechaklar. Yuqoridagi 1-jadvalda paolyester tolalarining fizik kimyoviy xossalari keltirilgan[5].

Polyester tolasining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat: havo o‘tkazuvchanligi yomon, yuqori qattiqlikka ega, yaxshi bo‘yalmaydi, bo‘yoq tolaga singmaydi, pillinglanishi, tez kir bo‘lishi, elektrlanishi, yaxshi bo‘yalmasligi hamda namlikni yaxshi shimmasligidir. Ijobiy sifatlariga esa quyidagilar kiradi: mustahkam va chidamli, kislotalar va ishqorlar ta’siriga chidamli, cho‘zilmaydi, kiyilganda deformatsiyalanmaydi, tez quriydi, issiqqa chidamli, suv o‘tkazmaydi, yonishga bardoshli, material namlikni deyarli singdirmaydi, shu sababli, yomon ob-havoda ham quruq holatini saqlab qoladi, issiq kiyimlarga astar sifatida qo‘llash mumkin, momiq tugunchalar paydo bo‘lishiga hamda ifloslanishga chidamli.

Xulosa qilib aytganda, kimyoviy tolalar zamonaviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan va ularning ishlab chiqarilishi o'sishda davom etmoqda. Biroq, ular keltiradigan ekologik muammolar ham tobora dolzarb bo'lmoqda. Kelajak ilg'or qayta ishlash texnologiyalari, chiqindisiz ishlab chiqarish usullari va biologik parchalanadigan, qayta tiklanadigan manbalardan olingan yangi turdagi kimyoviy tolalarga asoslangan oqilona va barqaror yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni.

2. Yang Jing, Xu Bojun Xie, Chunping Liu, Xinjin, Comparison of fiber migration in different yarn bodies/Fiber end Textile Indian (IJFTR), Dec 2018.

3. Tyagi G. K., Bhowmick Manik, Bhattacharyya S., Kumar R., Effect of spinning conditions on mechanical and performance characteristics of cotton ring- and compact-spun yarns/ IJFTR Vol.35 (1) [March 2010], 21-30.

4. Виды полиэфирных волокон. Особенности производства и свойства современного полиэфирного волокна [Электронный ресурс]. - Режим доступа http://www.newchemistry.ru/, свободный

5. ГОСТ 25716—94 Межгосударственный Стандарт Волокно Полиэфирное Хлопкового Типа И Определения Дата введения 21-октября 1994

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

dotsent A.Abdugaffarov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining hozirgi holati, uni rivojlantirishning dolzarb masalalari va istiqbollari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется текущее состояние текстильной промышленности Узбекистана, актуальные проблемы и перспективы ее развития.*

Abstract: *This article analyzes the current state of the textile industry in Uzbekistan, current problems and prospects for its development.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, yengil sanoat, xususan, to‘qimachilik sanoati mamlakatning eksport salohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Bugungi kunda ushbu soha nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash, balki xorijiy bozorga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish orqali iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shmoqda.

To‘qimachilik sanoatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, tahlillar va amaliy tavsiyalar sohaning muhim jihatlarini yoritib beradi. So‘nggi yillarda bu borada respublika va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy ishlar, maqolalar va strategik tahlillar e‘lon qilindi.

Iqtisodchi olimlar A.Xakimov [1], B.Qodirov [2] va M.Jabborovlarning [3] asarlarida O‘zbekiston yengil sanoatini modernizatsiya qilish, tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirish zarurligi ta‘kidlangan. Ularning fikricha, to‘qimachilik sanoatida samarali boshqaruv tizimini shakllantirish, ishlab chiqarish zanjirini mahalliylashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosiy ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda BMT Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO)[4], Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tayyorlangan hisobotlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston to‘qimachilik tarmog‘i uchun raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsion texnologiyalar, ekologik barqaror ishlab chiqarish va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligi qayd etilgan.

To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning dolzarb masalalarini o‘rganish va istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy rivojlanish, tarmoq boshqaruvi

va sanoat iqtisodiyoti bo‘yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Mavjud ilmiy adabiyotlar, amaliy tajribalar va statistik ma‘lumotlar asosida to‘qimachilik sanoatining hozirgi holati baholandi hamda muammolar tizimli tarzda umumlashtirildi;

Ushbu metodologik yondashuv orqali nafaqat sohaning mavjud muammolari aniqlandi, balki ularni bartaraf etish va istiqboldagi rivojlanishni ta‘minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Metodlar uyg‘unligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylangan. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, sohada modernizatsiya, investitsiyalarni jalb qilish va eksportni ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda. Quyida tahlil qilingan asosiy yo‘nalishlar yoritib beriladi:

1. Ishlab chiqarish salohiyatining o‘sishi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2021-2025 yillar oralig‘ida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yiliga o‘rtacha 8-10% ga oshgan. Xususan, ip-kalava, to‘qilgan matolar va tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida barqaror o‘sish kuzatildi. Bu esa yangi texnologiyalarning joriy etilishi va mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish natijasidir.

2. Eksport geografiyasining kengayishi.

Eksport hajmi 2023 yilda 3 milliard AQSH dollaridan oshdi. Asosiy bozorlar sifatida Rossiya, Xitoy, Turkiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va Koreya Respublikasi qayd etilgan. So‘nggi yillarda tayyor mahsulotlar ulushi xomashyo eksportiga nisbatan oshib borayotgani yuqori qo‗shimcha qiymat yaratilayotganidan dalolat beradi.

3. Tashkiliy-iqtisodiy muammolar.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, to‘qimachilik korxonalarining aksariyatida quyidagi muammolar mavjud:

1) ishlab chiqarish uskunalarining texnik eskirganligi;
2) kadrlar yetishmovchiligi va malaka muammolari;
3) eksport operatsiyalaridagi byurokratik to‘siqlar;
4) moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyati.

4. Hududiy rivojlanish tafovutlari.

Tarmoqqa oid ishlab chiqarish korxonalari asosan Toshkent, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida to‘plangan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda (masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy viloyati) tarmoqning rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa infratuzilma, logistika va investitsion muhit bilan bog‘liq.

To‘qimachilik sanoatida - yashil‖ ishlab chiqarish konsepsiyasi, energiya tejamkor texnologiyalar, qayta ishlangan xomashyodan foydalanish kabi yo‘nalishlarda kata salohiyat mavjud. Ayni vaqtda BMT Taraqqiyot Dasturi va

ITC bilan hamkorlikda - Yashil tekstil loyihasi asosida 10 dan ortiq korxonada ekologik sertifikatlash tajribalari olib borilmoqda.

O‘zbekistonning to‘qimachilik sanoati keyingi yillarda jadal rivojlanayotgan strategik tarmoqlardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Mamlakatda xomashyo bazasining mavjudligi, geografik joylashuvning qulayligi, davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari soha rivoji uchun keng sharoit yaratmoqda. Biroq, bu rivojlanish sur‘atlarini yanada jadallashtirish uchun tizimli yondashuv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish va innovatsion qarorlarni qabul qilish zarur.

Quyidagi takliflar mazkur yo‘nalishda amaliy ahamiyatga ega:

1) To‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishni jadallashtirish. Tarmoqda klaster tizimini keng joriy qilish orqali xomashyo yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda samaradorlikni oshirish mumkin. Ayniqsa, kam rivojlangan hududlarda ixtisoslashgan klasterlarni tashkil etish muhim.

2) Texnologik modernizatsiyani chuqurlashtirish. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamli ishlab chiqarish (Industry 4.0) yechimlarini keng joriy qilish raqobatbardoshlikni oshiradi. Bunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik asosida qo‘shma korxonalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

3) Ishchi kuchi va kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta‘lim muassasalarida to‘qimachilik sohasi bo‘yicha zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan trening va stajirovkalarni ko‘paytirish zarur. Shuningdek, xorijiy tajriba almashuv dasturlarini kengaytirish foydali bo‘ladi.

4) Eksportni rag‘batlantirish va yangi bozorlarni egallash. Tayyor mahsulot eksportini kengaytirish uchun xalqaro sifat standartlari va ekologik sertifikatlarni joriy etish, marketing strategiyalarini takomillashtirish hamda elektron savdo platformalaridan faol foydalanish lozim.

5) Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish. Kichik va o‘rta to‘qimachilik korxonalariga imtiyozli kreditlar, lizing asosida uskunalar xaridi, subsidiyalar va grantlar taqdim etish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

6) Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy qilish. Suv va energiya resurs-larini tejovchi texnologiyalarga o‘tish, chiqindilarning qayta ishlanishi va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali global bozorlarda ekobrendlar raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Yuqoridagi takliflar to‘qimachilik sanoatini nafaqat ichki ehtiyojlarni qondiruvchi, balki xalqaro bozorlarda faol ishtirok etuvchi yuqori samarali tarmoqqa aylantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuviga va barqaror o‘sishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xakimov, A. (2021). O‘zbekistonda yengil sanoatni modernizatsiya qilish muammolari va istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

2. Qodirov, B. (2020). To‘qimachilik sanoatida tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish yo‘llari. Iqtisod va innovatsiya, 3(1), 45-52.

3. Jabborov, M. (2019). Investitsion faoliyatni rag‘batlantirishda tarmoq yondashuvining o‘rni. Iqtisodiy tahlil jurnali, 7(2), 33-40.

4. UNIDO (2022). *Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization. [https://www.unido.org]

5. Porter, M. E. (2008). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. North, D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press. Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and Its Discontents*. New York: W. W. Norton & Company.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining - To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish va uning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi PQ-2552-son qarori. - Toshkent, 2016.

7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. - To‘qimachilik sanoati bo‘yicha 2020-2024 yillar statistik ma’lumotlari‖ // www.stat.uz

8. Akhmedov, S. R. Rivojlanayotgan mamlakatlarda to‗qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. - 212 b.

9. Nurmatova, M. Sh. To‘qimachilik sanoatida innovatsionrivojlanishning strategik yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va ta‘lim. - 2023. - №1. - B. 48-54.

10. World Trade Organization (WTO). Trade Policy Review: Uzbekistan 2023. Geneva: WTO Publications, 2023. - 162 p.

11. UNIDO. Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. - Vienna: UNIDO, 2022. - 234 p.

12. International Trade Centre (ITC). Textile and Apparel Industry in Central Asia: Market Trends and Investment Opportunities. Geneva, 2022. 78

13. Abdullayev, A. M. Sovremennoye sostoyaniye i perspektivi razvitiya tekstil-noy promishlennosti Uzbekistana // Vestnik Tekstilnoy nauki. 2022. №4. - S. 19-24.

14. Azizov, U. Textile sector in Uzbekistan: Achievements, challenges and prospects //Central Asian Economic Review. - 2023. - Vol. 5. - P. 88-99.

15. Xasanova, N. J. Razvitiye klastera v tekstilnoy promishlennosti Uzbekistana // Ekonomika i innovatsii. - 2023. - №6. - S. 34-39.

TURLI SELEKSIYA NAVLARI TOLASINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI TADQIQOTI

tayanch doktorant Mamatisoqova N.A.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Andijon viloyatidagi paxta maydonlariga ekilgan turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlari tadqiqot natijalari bayon etilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлены результаты исследования показателей качества волокна различных отобранных сортов хлопка, выращенного на хлопковых полях в Андижанской области.*

Abstract: *This article presents the results of a study of fiber quality indicators of various selected varieties of cotton grown in cotton fields in the Andijan region.*

Hozirgi vaqtda yer yuzining barcha mintaqalarida paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlari zamonaviy tipdagi AQSH ning HVI 1000 SA tizimi asosida o‘rganiladi. Paxta tolasi rangi, tashqi ko‘rinishi, pishib yetilganligi bo‘yicha navlarga bo‘linadi va shu ko‘rsatkichlari asosida paxta birjalarida sotiladi.

Paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlariga chiziqiy zichligi, solishtirma uzilish kuchi, navi bo‘yicha rangi, tashqi ko‘rinishi, sarg‘ishlik darajasi, uzunligi, kalta tolalar indeksi va tarkibidagi nuqsonlar miqdori kiradi.

Paxta tolasining chiziqiy zichligi teks yoki milliteks birligida ifodalanib, tola uzunligi va tipiga qarab baholanadi. Agar tola chiziqiy zichligi yoki uzunligi bo‘yicha chegaradan chiqadigan bo‘lsa, unda pastki tiplarga o‘tib ketadi, natijada ipning yigiruvchanlik imkoniyatini kamaytiradi va sifatsiz tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Paxta tolasining rangi Amerika standarti bo‘yicha ikkita ko‘rsatkichga, ya’ni nur qaytalanish va sarg‘ishlik darajasiga bo‘linadi. Shu sababli, paxta tolasi rangi yuqori talablardan hisoblanadi. Natijada, mamlakatimizdagi paxta tozalash korxonalarida paxta asosan kunduz kunlari qabul qilinadi, malakali laborantlar klassyor uslubi bilan maxsus etalon namunalariga solishtirish yo‘li bilan aniqlaydilar.

Paxta tolasining yana bir ko‘rsatkichlaridan biri uning chiziqiy zichligidir. Tolaning chiziqiy zichlik o‘lchamini yetarli aniqlik darajasida aniqlash murakkabroqdir. Shu sababli, Amerikaning tolani sertifikatlash-tirish tizimi bo‘yicha chiziqiy zichlik tushunchasi o‘rniga mikroneyr ko‘rsatkichi kiritildi. Bu usulda parallel tolalar guruhidan o‘tgan havo oqimining yo‘qotilishi hisobiga aniqlanadi. Havo qarshiligi tolaning ko‘ndalang kesimiga proporsional bo‘lib,

tolaning qarshilik kuchi ko‘ndalang kesim funksiyasi kabi tezligiga bog‘liq bo‘ladi.

Xalqaro standartlar bilan paxta tolasining sifati O‘z DSt 604-2016 standartiga asosan klassyor va HVI tizimida o‘lchash usullari bilan baholanadi. Sinov yo‘li bilan olingan natijalar 1.1-jadvalda keltirildi.

1.1-jadval

Paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlarining turli seleksiya navlari bo‘yicha o‘zgarishi

t/r	Ko‘rsatkichlar	Seleksiya navlari				
		Andijon-36 seleksiya navi	52-4 seleksiya navi	Xitoy-31 seleksiya navi	Xitoy -29 seleksiya navi	52 seleksiya navi
1.	Mic-mikroneyr	4,6	4,76	4,78	5,15	4,95
2.	Str-solishtirma uzilish kuchi, gk/teks	31,5	30,9	31,8	33,0	34,1
3.	UHML - yuqori o‘rtacha uzunlik	28,84	28,48	29,48	29,47	30,01
4.	SFI-kalta tolalar indeksi	7,8	8,4	8,7	8,5	7,4
5.	Elg-uzilishdagi uzayish, %	6,4	5,8	6,9	6,2	7,4
6.	Rd-nur qaytarish koeffitsiyenti	75,6	81,8	79,8	78,8	80,01
7.	+b-sarg‘ishlik darajasi	8,8	8,2	8,1	7,8	8,3
8.	Tolaning yigiruvchanlik qobiliyati (SCI)	141	133	135	133	152

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarish ko‘rsatkichlari quyidagi 1.1-1.3-rasmlarda gistogramma ko‘rinishida keltirildi.



- mikroneyr ko‘rsatkichi; - kalta tolalar

1.1-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining mikroneyr ko‘rsatkichi va kalta tolalar indeksining o‘zgarishi.



- солиштирма узилиш кучи; -юқори ўртача узунлиги.

1.2-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining solishtirma uzilish kuchi va yuqori o‘rtacha uzunligining o‘zgarishi.



Селекция навлари

1.3-rasm. Turli seleksiya navlari tolasining yigiruvchanlik qobiliyatining o‘zgarishi.

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqoti tahlil etildi. Olingan sinov natijalaridan ko‘rinib turibdiki, Andijon-36 seleksiya navli

tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,6 ni, kalta tolalar indeksi 7,8 ni, solishtirma uzilish kuchi 31,5 gk/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 28,84 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 141 ni, 52-4 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,76 ni, kalta tolalar indeksi 8,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 30,9 gk/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 28,48 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 133 ni, Xitoy-31 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,78 ni, kalta tolalar indeksi 8,7 ni, solishtirma uzilish kuchi 33,0 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 29,48 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 135 ni, Xitoy -29 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 5,15 ni, kalta tolalar indeksi 7,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 33,0 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 29,47 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 133 ni, 52 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,95 ni, kalta tolalar indeksi 7,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 34,1 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 30,01 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 152 ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Andijon-36 seleksiya navli tolaning ko‘rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, 52-4 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 3,4% ga, kalta tolalar indeksi 7,1% ga oshdi, solishtirma uzilish kuchi 1,9% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,2% ga, yigiruvchanlik qobiliyati 5,7% ga kamaydi, Xitoy-31 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 0,9% ga, kalta tolalar indeksi 10,3% ga, solishtirma uzilish kuchi 0,9% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 2,2% ga oshdi, yigiruvchanlik qobiliyati 4,3% ga kamaydi, Xitoy-29 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 10,7% ga, kalta tolalar indeksi 8,2% ga, solishtirma uzilish kuchi 4,5% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 2,1% ga oshdi, yigiruvchanlik qobiliyati 5,7% ga kamaydi, 52 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 7,1% ga oshdi, kalta tolalar indeksi 5,1% ga kamaydi, solishtirma uzilish kuchi 7,7% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 3,9% ga, yigiruvchanlik qobiliyati 7,2% ga oshdi.

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarini tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Andijon-36 seleksiya navli tolaning ko‘rsatkichlariga nisbatan solishtirganimizda boshqa Xitoydan olib kelingan va bizning hududlarda sinovdan o‘tkazilayotgan seleksiya navlarida tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 0,9% dan 3,4% gacha, kalta tolalar indeksi 7,1% dan 10,3% gacha oshganligi, solishtirma uzilish kuchi 0,9% dan 4,5% gacha, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,2% dan 3,9% gacha, yigiruvchanlik qobiliyati 4,3% dan 5,7% gacha kamayganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qollab-quvvatlash, toqimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”2023-yil 10-yanvardagi 2-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qima-chilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 22-iyundagi 397-son qarori.

3. F.X. Raximov, M. A. Raxmatov, B. Z. Zaripov, B. Sh. Usmanov. Paxta to‘qimachilik klasteri yoxud iqtisodiy yukshalish sari odimlar. T. To‘qimachilik muammolari. 2018 № 4. 120-125 b.

PAXTA TOLASI PISHIB YETILISH DAVRIDA TOLA TUZILISHI VA SIFATINING O‘ZGARISHI

tayanch doktorant Mamatisoqova N.A.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada paxta tolasi pishib yetilish davrida tola tuzilishi va uning sifatini o‘zgarishidagi tadqiqot natijalari tahlil etilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются результаты исследования изменений структуры и качества волокна в период созревания хлопкового волокна.*

Abstract: *This article analyzes the results of a study of changes in the structure and quality of fiber during the maturation period of cotton fiber.*

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish uchun seleksioner olimlar oldiga tezpishar, sermahsul, hasharot va kasalliklarga chidamli bo‘lgan, tola sifati jahon talablariga javob beradigan hamda tola chiqimi 40 foizdan yuqori bo‘lgan navlarni yaratish vazifasi qo‘yildi [1].

Tajribada S-2612, S-2615, “Barhayot”, “Javlon”, S-6524, “Namangan-77”, L-403, L-116, T-707, T-20, T-1 hamda G‘3- F11 duragaylar ekildi. Vegetatsiya davrida seleksion materiallarni tezpisharligi, vilt va gommoz kasalliklariga chalinishi, tola chiqimi hamda mahsuldorlik elementlari o‘rganilib chiqildi. G‘3-F11 duragaylarning oilalari alohida tadqiq qilindi. Bundan tashqari yangi yaratilgan tizmalar vilt bilan kuchli zararlangan muhitda ko‘paytirilib o‘rganildi. Barcha olingan ma’lumotlar matematik tahlildan o‘tkazildi [2].

Hozirgi zamon paxtachiligini yuksaltirishda g‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligini rivojlantirish o‘ta muhim ahamiyatga ega.

C-6524 g‘o‘za navining o‘suv davri 123-125 kun, bo‘yi 105-115 sm, bir dona ko‘sakdagi paxta massasi 5,5-6,5 gramm, 1000 dona chigit massasi 115-125 gramm, tola uzunligi 34-35,2 mm, tola chiqimi 33,5-34,5 %, mikroneyr ko‘rsatkichi 4.3-4,5, tola tipi-IV tip, hosildorligi 40-46 sentner [28, 57-60 b.].

Namangan-77 g‘o‘za navining o‘suv davri 118 - 120 kun, bo‘yi 100-110 sm, bir dona ko‘sakdagi paxta massasi 4,5 - 6,0 gramm, 1000 dona chigit massasi 110- 120 gramm, tola uzunligi 32-33,0 mm, tola chiqimi 37,0-39,1 %, mikroneyr ko‘rsatkichi 4.0-4,5, tola tipi-V tip, hosildorligi 38-40 sentner [2].

Buxoro -8 g‘o‘za navining o‘suv davri 118 - 124 kun, bo‘yi 100 - 110 sm, bir dona ko‘sakdagi paxta massasi 4,5 - 6,0 gramm, 1000 dona chigit massasi 125-

130 gramm, tola uzunligi 33-36,0 mm, tola chiqimi 35,0-37,0 %, mikroneyr ko‘rsatkichi 4,3-4,5, tola tipi- IV tip, hosildorligi 45-50 sentner.

O‘zPITI Jizzax filialida yangi yaratilgan “Paxtakor-1” go‘za navini yaratishda maqsadli seleksiya jarayonini olib borilganligi sababli ertagi, yuqori hosilli va yuqori tola sifatiga ega bo‘lgan namunalardan ajratib olindi. To‘g‘ri seleksiya jarayonini tanlanishi natijasida yaratilgan 2013 yilda “Paxtakor-1” g‘o‘za navini istiqbolli navlar qatoriga kiritildi.

Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, 2008-2009 yillarda ajratib olingan oilalarning tolasi biroz dag‘alroq edi, ya’ni mikroneyr ko‘rsatgichlari 4,5-4,6 bo‘lgan bo‘lsa, ammo, yuqorida ta’kidlab o‘tilgandek, keyingi 2011-2012 yillarda maqsadli seleksiya ishlarini olib borilishi natijasida yuqori tola sifatiga o‘rtacha 4,2 mikroneyrga erishildi va ishlab chiqarish sinovidan o‘tkazilib (550 gektarda), “Paxtakor-1” g‘o‘za navini birlamchi urug‘chiligi tashkil etildi [6,8.].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi olimlari tomonidan g‘o‘zaning yangi “Zangi-Ota-2”, “Ishonch” va “Zafar” navlariga patent olindi.

Fanlar akademiyasi xabariga ko‘ra1, g‘o‘zaning yangi istiqbolli «Zangi-Ota-2» navi: tezpishar, tola chiqimi va sifati yuqori, turli tuproq iqlim sharoitiga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi [8.].

Hozirda bu nav Qashqadaryo viloyati yangi navlar urug‘ligini ko‘paytirish fermer xo‘jaligida ko‘paytirilmoqda.

G‘o‘zaning yangi istiqbolli “Ishonch” navi andoza navlarga qaraganda, suv tanqisligi, tuproq sho‘rxokligiga bardoshli, tola sifati jahon standartlariga to‘la javob beradi. “Ishonch” g‘o‘za navi hozirgi kunda Qashqadaryo viloyati-ning suv tanqis tumanlarida ekib ko‘paytirilmoqda [34].

G‘o‘zaning istiqbolli “Zafar” navi olingan natijalarga asosan respublika-ning turli viloyat nav sinash shoxobchalarida tolaning sifat ko‘rsatkichlari yuqori va barqaror bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bu nav hozirgi kunda Quva tumani yangi navlarni urug‘ligini ko‘paytirish fermer xo‘jaliklarida ekib ko‘paytirilmoqda [7].

Bundan oldinroq O‘zbekistonda g‘o‘zaning yangi - “Niyat” navi yaratilgandi.O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari davlat reyestriga 40 ta g‘o‘za navi kiritilgan bo‘lib, shundan 5 tasi o‘rtapishar, 35 tasi ertapishar navlarni tashkil qiladi.

So‘ngi yillarda respublikada faoliyat yuritib kelayotgan paxta-to‘qima-chilik klasterlari tomonidan mahalliy sharoitda yaratilgan Buxoro-6, Buxoro-8, Buxoro-102, Sulton, S-8290 singari yuqori hosildorlik va ertapishar-likka ega navlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Paxta tolasi tarkibi (%): sellyuloza-90,35-94,6; suv-7; suvda eriydigan moddalar-0,5; inkrustatsiya moddalari-0,75; yog‘ va mum- 0,4; azot moddalari-0,5; kul-0,12. Tola devori bir necha qatlamli tuzilishga ega. Qalinligi 1 mk dan kichik bo‘lgan tashki katlam birinchi devor yoki kutikula deyiladi. Kutikula kimyoviy tarkibi va tuzilishi bo‘yicha asosiy sellyuloza devoridan jiddiy farq

qilib, tarkibida (% hisobida) sellyuloza-54, oqsil-14, pektin moddalari-9, mum - 8, kul-3, kutin-4 bor. Turli sanoat navlarining kimyoviy tarkibi ham turlicha. Tola tarkibida gidrofob xossali mum borligi uchun tola yaxshi ho‘llanmaydi. Paxta tolasi, asosan, shaffof moddalar (sellyuloza, yog‘, mum) dan tashkil topsada xira bo‘ladi, chunki tarkibida har xil mayda qo‘shimchalar bor. Yorug‘lik birinchi devor sirtidan notekis kaytishi tufayli tola oq bo‘lib ko‘rinadi. Tolaning birinchi navi oqroq, past navlari to‘qroqsariq yoki jigarrang bo‘ladi [36].

G‘uzaning eng chetki ko‘saklarida shakllangan tola odatda sifatsizroq bo‘ladi. Kuzatishlardan ma’lumki, g‘o‘zaning 108-F navida asosiy hosil 1-4-konuslarda shakllanadi.Tadqiqotlarga ko‘ra, 1-konusda hosilning 29,6%, 2-konusda 36,1%, 3-konusda 19,2%, 4-konusda 11,9% va 5-konusda 3,2% shakllangan.

108-F g‘o‘za navi 20-25 kun mobaynida bo‘yiga o‘sadi va shu davrda uning devorlarida sellyuloza qatlamlari asta-sekin yig‘ila boradi. Undan keyin esa o‘sishdan to‘xtab, sellyuloza qatlamlari juda tez sur’at bilan ko‘payadi va pishishi bilan undagi suv bug‘lanib, spiral, ya’ni zanjirsimon shaklga kiradi. Pishib yetilmagan tolada esa sellyuloza ko‘p yig‘ilmaydi va uning devori yupqa bo‘lib qoladi, natijada, tola sifati yomonlashadi. Shuning uchun paxtani mumkin qadar ertaroq pishirib, sovuqqa qolmasdan yig‘ib-terib olish lozim [3].

Respublika paxta maydonlarining asosiy qismida paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan yaratilgan navlar yetakchilik qilib kelmoqda.

Xususan, joriy yilda ham asosiy maydonlarda ertapishar Sulton navi 188 ming 938 gektar, Buxoro-102 navi 161 ming 840 gektar, o‘rtapishar Buxoro-6 navi esa 77 ming 743 gektar, Andijon-35 navi 75 ming 907 gektar, Buxoro-10 navi 62 ming 799 gektarni tashkil etadi [3,4].

Quruq paxta ishlanmagan ham paxta tolasi sirtini asosiy tavsiflari taxminan paralell tarzda joylashgan tola o‘qiga nisbatan o‘tkir burchak ostida (20-300) bo‘lgan tunlardan iborat bo‘ladi. Bunday sirtli struktura fibrillarni konfiguratsion spiral joylashishi bilan bog‘liq bo‘lib, ikkinchi devorlaridagi spirallik teskari yo‘nalgan qismlardagi replikalarni aniqlash orqali isbotlangan. Bu qismlarda tuklar va qatlamlarni yo‘nalishi o‘zgargan bo‘ladi. Uzunligi 10 mkm va qatlamlararo masofa 0,55 mkm bo‘ladi [5-6].

Shuningdek , tuklar va qatlamlardan tashqari kichik yoriqlar, chuqurchalar va qavariqlar ham bo‘ladi. Ko‘pchilik paxta navlari tolalarning sirtini elektron mikraskop usulida tekshirilganda, ularning sirti deyarli bir xil, yuqorida ta’kid-langan element va shakllardan iborat ekanligini ma’lum qilgan [8].

Besh kunlik tolalar sirti tekshirilganda, unda tola o‘qi bo‘ylab orentir-langan fibrilalar ko‘rinib turadi. Shuningdek 10-15 kunlik tolada ham fibrilalar yaqqol ko‘rinadi, ammo ularning diametrlari biroz kichiklashgan bo‘ladi. Tolani yoshi kattalashishi bilan fibrilalar kichrayib boradi, 30 kundan keyin to‘liqligicha yog‘ va pektin moddalar bilan qoplanib qoladi [8].

Har bir qaralayotgan qatlamda fibrillalar parallel bo‘lmagan holatda joylashadi, ammo bir - biri bilan kesishgan, to‘qilgan bo‘lib, birlamchi devor strukturasini ikki turdan iborat deb qarash mumkin bo‘ladi. Ushbu turlar qalinligi turlicha, nisbatan qalinrog‘i uch kunlik tolada kuzatiladi. Birlamchi devorning umumiy qalinligi 0,1μkm dan ortiq emas. Sellyuloza bo‘lmagan birlamchi struktura devoriga shimilib olinadi. Ammo bog‘lovchi pilyonka (kutikula) faqat tola sirtida hosil bo‘ladi [9].

Yetilib pishgan paxta tolasi uch qatlamga ega bo‘ladi: birinchi tashqi qatlam yoki kutikula, ikkinchi qatlam-sellyuloza, uchinchi-tola qatlami ekanligi ham aniqlangan. Alohida olingan fibrillalar qalinligi 100-150 A0 ni tashkil etadi. Fibrillalar dastaga to‘plangan, spiral tarzda buralgan bo‘ladi. Spirallar burchagini tola bo‘ylab og‘ish burchagi rentgenografik usullarda aniqlanishi mumkin. Bundan farqli boshqa bir xossalar ikkilamchi strukturada kuzatilmaydi. Qobug‘i kam yetilgan tolaning sirti dag‘alroq ekanligi aniqlangan [10].

Tolalar pishib yetilganligini baholashni interpretatsiyasini obyektiv geometrik parametrlar yordamida amalga oshirish imkoniyatini beruvchi paxta tolalari ko‘ndalang kesimning modeli tuzildi.

Ushbu tadqiqot ishida paxta tolasi yuzasining, shuningdek uning molekulyar darajadagi strukturasi energetik holatini aniqlash uchun tolalar yuzasining tuzilishi va ular hosil qilayotgan turli fizik tabiatga ega bo‘lgan kuchsiz maydonlarni suyuq kristallar (SK) yordamida vizuallashtirish amalga oshirilgan, shuningdek, infraqizil spektroskopiya usullari: to‘liq ichki aks ettirish va qattiq immersion muhitlar usuli [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A.A., Karimov A.K. G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi. - Toshkent: Fan, 2018.

2. O‘zbekiston Paxtachilik Ilmiy-Tadqiqot Instituti. G‘o‘za navlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. - Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. Paxtachilik bo‘yicha me’yoriy tavsiyalar. - Toshkent, 2021.

4. Cotton Breeding and Seed Production Research Institute. Cotton Varieties of Uzbekistan. - Tashkent, 2019.

5. International Cotton Advisory Committee. World Cotton Production and Research Reports. - Washington, DC, 2022.

6. Food and Agriculture Organization. Cotton Production Guidelines. - Rome, 2021.

7. FAO rasmiy sayti

8. O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi

9. ICAC rasmiy sayti

10. Genetics and Breeding of Cotton. New Delhi: Oxford & IBH Publishing, 2017.

ПАХТА ТОЗАЛАШ КОРХОНАЛАРИДА ҲАВОНИ ЧАНГ ВА ТОЛАЛИ ЧИҚИНДИЛАРДАН ТОЗАЛАШНИНГ САМАРАЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

т.ф.д.,профессор Ш.Хакимов
таянч докторант М.Нарзуллоева
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Аннотация*. Мазкур мақолада пахта саноати корхоналарида ҳосил бўладиган толали чиқиндиларни ҳаводан самарали йиғиш технологияларини такомиллаштириш масалалари ўрганилган. Ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўладиган чанг ва толали чиқиндиларнинг инсон саломатлиги ҳамда атроф-муҳитга салбий таъсири таҳлил қилинган. Аспирация, пневмотранспорт, циклон ва фильтр қурилмаларининг ишлаш принциплари кўриб чиқилган ҳамда ҳавони тозалаш самарадорлигини ошириш бўйича илмий таклифлар берилган. Шунингдек, энергия тежамкор технологияларни қўллаш, чиқиндиларни қайта ишлаш ва автоматлаштирилган бошқарув тизимларини жорий этиш орқали экологик хавфсизликни таъминлаш имкониятлари асосланган.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования технологий улавливания волокнистых отходов из воздуха на предприятиях хлопковой промышленности. Проанализировано негативное влияние пыли и волокнистых отходов, образующихся в процессе производства, на здоровье человека и окружающую среду. Изучены принципы работы аспирационных систем, пневмотранспорта, циклонов и фильтрующих устройств, а также предложены методы повышения эффективности очистки воздуха. Особое внимание уделено вопросам энергосбережения, переработки отходов и автоматизации технологических процессов.*

Abstract.*This article discusses the improvement of technologies for collecting fibrous waste from the air in cotton industry enterprises. The negative impact of dust and fibrous waste generated during the production process on human health and the environment is analyzed. The operating principles of aspiration systems, pneumatic transport, cyclone separators, and filtration devices are studied, and methods for increasing air purification efficiency are proposed. Special attention is paid to energy-saving technologies, waste recycling, and automation of technological processes.*

Пахта саноати мамлакат иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда пахта хом ашёсини етиштириш ва уни саноат асосида қайта ишлаш жараёнлари йил сайин ривожланиб бормоқда. Пахтани қайта ишлаш жараёнларида юқори унумдорликка эришиш билан бирга экологик хавфсизликни таъминлаш, меҳнат шароитларини яхшилаш ва энергия ресурсларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади [4,6]. Айниқса, пахта тозалаш ва қайта ишлаш корхоналарида ҳосил бўладиган толали чиқиндилар ҳамда чанг заррачалари ишлаб чиқариш муҳитига салбий таъсир кўрсатади [3,4]. Бу чиқиндиларнинг ҳавога тарқалиши инсон саломатлигига зарар етказади, технологик ускуналарнинг иш самарадорлигини пасайтиради ва атроф-муҳит ифлосланишига сабаб бўлади [4]. Пахтани қабул қилиш, ташиш, қуритиш, жинлаш, линтерлаш ва пресслаш жараёнларида турли ўлчамдаги толалар ва органик чанглар ҳосил бўлади. Бу чиқиндилар енгил бўлганлиги сабабли ҳаво муҳитида узоқ вақт сақланиб қолади ва вентиляция оқими таъсирида ишлаб чиқариш биносининг турли қисмларига тарқалади. Айниқса, майда дисперсли чанг заррачалари инсон организми учун хавфли ҳисобланади. Улар нафас олиш йўллари орқали ўпкага кириб бориб, бронхит, астма, аллергик реакциялар ва касбий ўпка касалликларини келтириб чиқаради. Шу билан бирга, ҳаводаги чанг концентрациясининг ортиши ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини камайтиради ва ишлаб чиқариш муҳитида ёнғин хавфини оширади.Пахта саноати корхоналарида ҳавони тозалаш ва толали чиқиндиларни йиғиш учун аспирация тизимлари кенг қўлланилади. Аспирация тизими махсус сўриш қурилмалари, ҳаво қувурлари, вентиляторлар, циклон қурилмалари ва фильтрлаш ускуналаридан ташкил топган бўлиб, ишлаб чиқариш жараёнида ажралиб чиққан чангли ҳавони қабул қилиш ва тозалаш вазифасини бажаради. Ушбу тизим орқали ҳаво муҳитидаги зарарли моддалар миқдорини камайтириш мумкин бўлади.

Пневмотранспорт тизимлари ҳам толали чиқиндиларни йиғишда муҳим аҳамиятга эга. Бу тизимларда ҳаво босими ёрдамида чиқиндилар қувурлар орқали ҳаракатлантирилади. Пневмотранспорт тизимлари юқори самарадорликка эга бўлиб, чиқиндиларни қисқа вақт ичида марказлашган йиғиш нуқтасига етказиб бериш имконини беради. Бундай тизимлар ишлаб чиқариш жараёнларининг узлуксизлигини таъминлашда муҳим роль ўйнайди [1].

Толали чиқиндиларни ҳаводан ажратишда циклон қурилмалари кенг қўлланилади. Циклон қурилмаси марказдан қочма куч таъсири асосида ишлайди. Чанг ва толали заррачалар билан аралашган ҳаво циклон ичига тангенциал йўналишда киритилади. Айланма ҳаракат таъсирида оғир заррачалар девор томон ҳаракатланади ва пастки қисмда жойлашган бункерга тушади. Тозаланган ҳаво эса юқори қисми орқали чиқиб кетади. Циклон қурилмаларининг асосий афзалликлари конструкциясининг

соддалиги, ишончлилиги ва хизмат кўрсатиш харажатларининг нисбатан камлиги ҳисобланади. Бироқ, циклон қурилмалари майда дисперсли чанг заррачаларини тўлиқ ушлаб қола олмайди. Шу сабабли ҳавони юқори даражада тозалаш мақсадида қўшимча фильтрлаш тизимларидан фойдаланилади [2]. Пахта саноатида асосан енгли ва матоли фильтрлар қўлланилади. Бунда ҳаво махсус фильтр материаллари орқали ўтказилади ва чанг заррачалари фильтр сиртида ушлаб қолинади. Тозаланган ҳаво эса атмосферага чиқарилади. Замонавий фильтр қурилмаларининг самарадорлиги 95–99 фоизгача етади [5]. Фильтр қурилмаларининг иш самарадорлиги кўп жиҳатдан фильтр материалининг хусусиятларига боғлиқ. Сўнгги йилларда синтетик ва композицион материаллардан тайёрланган фильтрлар кенг қўлланилмоқда. Бундай материаллар юқори мустаҳкамликка, намликка чидамлиликка ва узоқ хизмат қилиш хусусиятига эга. Бу эса фильтр қурилмаларининг эксплуатация харажатларини камайтириш имконини беради.

Толали чиқиндиларни ҳаводан йиғиш технологияларини такомиллаштиришда энергия тежамкор ускуналардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Вентиляторлар аспирация тизимининг асосий элементи ҳисобланади ва электр энергиясининг асосий қисми ушбу қурилмалар томонидан сарфланади. Шу сабабли юқори самарали вентиляторлардан фойдаланиш, ҳаво қувурларининг аэродинамик қаршилигини камайтириш ва автоматлаштирилган бошқарув тизимларини жорий этиш орқали энергия сарфини сезиларли даражада қисқартириш мумкин [6].

Ҳозирги вақтда саноат корхоналарида автоматлаштирилган бошқарув тизимларидан кенг фойдаланилмоқда. Бу тизимлар ҳаво босими, ҳаво сарфи ва чанг концентрациясини доимий назорат қилиб туради. Датчиклар ёрдамида олинган маълумотлар асосида тизимнинг ишлаш режими автоматик тарзда бошқарилади. Масалан, чанг миқдори ортиши билан вентилятор қуввати автоматик равишда оширилади. Бу эса ҳавони тозалаш самарадорлигини ошириш билан бирга энергия тежалишини ҳам таъминлайди.Толали чиқиндиларни қайта ишлаш ҳам иқтисодий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга. Йиғиб олинган чиқиндилардан турли техник маҳсулотлар ишлаб чиқариш мумкин. Масалан, толали чиқиндилардан иссиқлик изоляция материаллари, техник матолар, мебель саноати учун тўлдиргич материаллар ва қурилиш маҳсулотлари тайёрланади. Бу эса чиқиндисиз технологияларни жорий этиш ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш имконини беради.

Экологик нуқтаи назардан қараганда, толали чиқиндиларни ҳаводан самарали йиғиш атмосфера ҳавосининг ифлосланишини камайтиради [4,7]. Атмосферага чиқариладиган чанг миқдорининг қисқариши аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишда муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, ишлаб чиқариш биноларида ҳаво муҳитининг яхшиланиши меҳнат

шароитларини қулайлаштиради ва ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини оширади. Ривожланган давлатларда ҳавони тозалашнинг кўп босқичли тизимлари кенг қўлланилмоқда [5,7]. Бундай тизимларда циклон, енгли фильтр ва электростатик чанг ушлагичлар биргаликда ишлатилади. Кўп босқичли тозалаш тизими ҳаводаги зарарли заррачаларни деярли тўлиқ ушлаб қолиш имконини беради. Шунингдек, интеллектуал бошқарув тизимлари орқали қурилмаларнинг ишлаш жараёни масофадан туриб назорат қилинади.Пахта саноатида толали чиқиндиларни ҳаводан йиғиш технологияларини янада такомиллаштириш учун илмий тадқиқот ишларини ривожлантириш талаб этилади [1,6]. Янги турдаги фильтр материалларини яратиш, энергия тежамкор вентиляторлар ишлаб чиқиш ва автоматлаштирилган бошқарув тизимларини такомиллаштириш бу соҳадаги асосий йўналишлардан бири ҳисобланади [2,7]. Шу билан бирга, экологик тоза ва чиқиндисиз технологияларни жорий этиш келгусида пахта саноатининг барқарор ривожланишини таъминлайди. Пахта хомашёсини дастлабки қайта ишлаш жараёни мураккаб технологик босқичлардан иборат бўлиб, ушбу жараёнда катта миқдорда чанг ажралиб чиқади. Технологик ва ташиш машиналаридан тарқалаётган чанг ишлаб чиқариш бинолари ҳамда завод ҳудудини ифлослантириб, инсон саломатлиги ва ускуналар ишига салбий таъсир кўрсатади. Шу сабабли пахта тозалаш саноатида чангсизлантириш, ҳавони тозалаш ва санитария-гигиена талабларига риоя қилиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Пахта хомашёсидан ажралиб чиқадиган чанг органик ва минерал фракциялардан ташкил топади. Органик фракцияга пахта бўлаклари, кўсак қобиғининг майдаланган қисмлари ва қисқа толалар кирса, минерал фракция тупроқ, қум ва ташқи аралашмалардан иборат бўлади. Бу аралашмалар пахта йиғим-терими, ташиш ва сақлаш жараёнларида ҳосил бўлади. Технологик жараённинг дастлабки босқичларида, айниқса пахта хомашёсини ташиш ва тозалаш вақтида минерал чанг кўпроқ ажралади, жараённинг охирги босқичларида эса, хусусан линтерлаш ва пресслашда органик чанг миқдори ортиб боради. Пневматик ташиш тизимидан ўтаётган ҳавода 10–20% органик ва 80–90% минерал заррачалар мавжуд бўлса, линтерлардан чиқадиган ишлатилган ҳавода органик чанг миқдори 80–90% гача етади. Пахта тозалаш заводларида технологик ускуналардан ажралиб чиқадиган ҳавонинг чангланиш даражаси пахтанинг нави, намлиги ва ифлосланганлик даражасига боғлиқ бўлади. Паст навли ва ифлос пахтани қайта ишлашда чанг ажралиши энг юқори даражада кузатилади. Тозалаш ускуналарининг аспирация тизимларида ҳаво сарфи 4–6 м³/с бўлиб, ҳавонинг чангланиши 1000–3000 мг/м³ ни ташкил этади. Пахта хомашёсини пневматик ташиш тизимида эса ҳаво сарфи 6 м³/с бўлиб, чангланиш даражаси 3000–6000 мг/м³, айрим ҳолларда эса 12000 мг/м³ гача етади. Толани ва линтани пневматик ташиш тизимларида ҳавонинг чангланиш даражаси 1700–2500 мг/м³

Причинами изменения формы изделия могут быть: I) из маленькой сделать большую и наоборот (например, из короткого жилета сделать длинный. Это прием модульного свертывания и модульного развертывания; 2) из простой формы составить сложную и наоборот (например, к жилету пристегнуть, привязать модули и полупить длинное пальто с капюшоном, кокетками, карманами, сумками и головными уборами или из простых модулей в виде квадратов, треугольников и ромбов составить сложный декоративный узор, орнамент, монокомпозицию, которая органично

впишется в изделие; 3) изменяя форму, изменить назначение изделия (например, был жилет — стало пальто, т.е. верхняя одежда, и т.д.) (Рис.1).



Можно из одинаковых модулей составлять разные изделия: жилеты разной длины и формы, сарафаны, юбки разной длины, блузоны, полупальто, пальто длинные с капюшонами, накладными воротниками, головные уборы, сумки и др. Таким образом, изменение ассортимента происходит путем модульного проектирования.

Форма модулей может быть и более сложная: в виде цветов, листьев, бабочек, зверей, птиц. Такие модули достаточно сложно пристегивать и отстегивать, но их можно соединять «наглухо», встык друг к другу, с помощью «брид» (элемент вышивки «ришелье»). Создаются красивейшие ажурные композиции, которые накладываются на лекала изделия (допустим, платья) и все фрагменты сшиваются с изнанки. Из получившегося ажурного полотна можно моделировать вставки или целиком изделия. Модули разной конфигурации могут создавать сложные варианты комплектования одежды, наслаиваясь друг на друга (табл. 1).

Современный процесс эксплуатации одежды создает условия, которые позволяют экспериментировать, т.е. создавать всегда новый индивидуальный образ. Возможность экспериментировать, видоизменять различные предметы или элементы одежды, позволяет потребителю получать практически неограниченную возможность моделировать множество вариантов модного костюма.

Pionova Ann - модули представляют собой прямоугольные полосы	**Chanel** - модули разных форм, пропорций и размеров, соединенных между собой по принципу оригами	**Fioen van Balgooi - м**одули, вырезанные из ткани одинаковой формы с разными размерами

Проектирование и сборка фрагментов в разнообразные изделия таят в себе огромные, ранее не использованные возможности. Но, к сожалению, такой прием проектирования одежды применяется пока очень редко.

Модульная функциональная одежда - одна из важных инноваций современной текстильной промышленности. Они экологически, экономически и функционально выгодны. Внедрение инноваций в производство одежды, особенно использование хлопковых волокон, будет способствовать развитию местной промышленности. Для развития производства модульной одежды в швейной промышленности Узбекистана необходимо проводить новые исследования в технологических и научных направлениях.

Использованные литературы

1. Сильчева Л.В. Современные подходы к проектированию трансформируемой одежды. Москва, стр 28-38. 2014.
2. Возьмилова А.А., Петушкова Г.И. Классификация методов модульного проектирования одежды. Научный журнал «Костюмология»., №4, Том 5, 2020
ISO 15797:2018 — Industrial washing and finishing of workwear.
3. Hanif M. et al. "Cooling garments and phase change materials in extreme environments", Journal of Textile Engineering, 2020.

O‘ZBEKISTONDA KIYIM ISHLAB CHIQARISHDA O‘LCHAMLAR BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Magistr. N.D. Shodibekova, dotsent Ece Demirelli Aslan
Toshkent to’qimachilk va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda kiyim ishlab chiqarishda o‘lcham-lar bilan bog‘liq muammolar aytib o’tilgan. Hozirgi kunda kiyim o‘lchamlari iste’molchilar uchun bir xil va aniq emasligi, turli ishlab chiqaruvchilarda o‘l-chamlar har xil bo‘lgani uchun xaridorlar qiyinchiliklar tug’dirishi, kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalarda mamlakatimizga moslashgan aniq tana o’lchamlari standartining yo’qligi aytib o’tilgan. Maqolada bu muammolarni hal qilish yo‘li va natijasi, kiyim sifatini yaxshilash uchun zaruriy tafsiyalar ko’rsatilgan.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с размерной типологией в производстве одежды в Узбекистане. Отмечается, что действующие размерные обозначения одежды не являются унифицированными и однозначными для потребителей, различия в размерной сетке у разных производителей создают существенные затруднения для покупателей, а на отечественных швейных предприятиях отсутствует стандарт антропометрических измерений, адаптированный к особенностям населения страны. В статье предложены пути решения указанных проблем и ожидаемые результаты их реализации, а также сформулированы рекомендации, необходимые для повышения качества выпускаемой одежды.*

Abstract: *This article addresses the issues related to sizing in garment manufacturing in Uzbekistan. It highlights that clothing sizes are currently inconsistent and unclear for consumers, that discrepancies in sizing across different manufacturers create difficulties for buyers, and that there is an absence of a standardized body measurement system adapted to the population of Uzbekistan within domestic garment-producing enterprises. The article presents proposed solutions to these problems along with their anticipated outcomes, and provides recommendations necessary for improving garment quality.*

O‘zbekiston ko’p asrlik boy tarix va madaniy me’roslarga ega davlatlardan biridir. Shu bilan bir qatorda tabiiy resurslarga boyligi, turli sohalarda samarali rivojlanayotganligi va yuqori natijalarga erishayotganligi bilan uning xalqaro maydondagi nufuzi oshib bormoqda.

Mamlakatimiz so‘ngi yillarda jadal rivojlanayotgan davlatlar qatoridan o’rin egalab kelmoqda. Mamlakatda iqtisodiy islohotlar, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi imkoniyatlarni yaratib kelmoqda. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish

sohalari izchil rivojlanib, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim va texnologiyalar sohasiga katta e’tibor qaratilib yosh avlodning salohiyatini yanada yuksaltirishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda kiyim ishlab chiqarish sanoati keng rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Mamlakatda tabiiy tolalar jumladan, paxta xomashyosining mavjudligi ishlab chiqarish zanjirining to‘liq shakllanishi va eksport imkoniyatining oshib borishi ushbu sohaning iqtisodiyotni muhim yo‘nalishiga aylantirmoqda. Biroq, sohada hali ham o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri kiyim o‘lchamlari bilan bog‘liq masaladir.

Kiyim ishlab chiqarishda o‘lcham masalasi mahsulot sifatini belgilovchi asosiy omildan biri hisoblanadi. O‘lchamlarning noto‘g‘ri yoki bir xil standart asosida ishlab chiqilmaganligi nafaqat ichki bozorda, balki eksport jarayonlarida ham muammolarni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekistonda bu boradagi asosiy muammo yagona standartlashtirilgan o‘lcham tizimining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ko‘plab ishlab chiqaruvchilar o‘z ichki o‘lcham jadvaliga tayanadi, natijada bir korxonada “M” o‘lcham deb belgilangan kiyim boshqa korxonadagi “M” o‘lchamdan sezilarli farq qilishi mumkin. [1]

Yana bir muhim muammo aholining antropometrik o‘lchamlari bo‘yicha zamonaviy va keng qamrovli ma’lumotlar bazasining yetishmasligidir. Kiyim dizayni va andaza tayyorlash jarayonlari inson tana tuzilishiga mos ravishda ishlab chiqiladi. Ammo O‘zbekistonda aholining tana o‘lchamlari bo‘yicha yangilangan ilmiy tadqiqotlar kamligi sababli, ko‘plab ishlab chiqaruvchilar xorijiy standartlarga tayanishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa mahalliy iste’molchilarning tana tuzilishiga mos kelmaydigan kiyimlar ishlab chiqarilishiga olib keladi. [2]

Texnologik jihatlar ham o‘lcham muammolarining yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi korxonalarda eskirgan uskunalardan foydalanilishi, matoning xususiyatlarini to‘liq hisobga olmasligi, ishlab chiqarish jarayonidagi aniqlikning yetishmasligi natijasida tayyor mahsulotlarda o‘lchamlar orasida tafovutlar yuzaga keladi. Ayniqsa, matoning yuvilgandan keyin qisqarishi yoki cho‘zilishi kabi omillar oldindan hisobga olinmasa, kiyimning yakuniy o‘lchami kutilgan natijadan farq qiladi.[3]

Kadrlar masalasi ham dolzarb muammodan biri hisoblanadi. Kiyim ishlab chiqarishda konstruksiyasini ishlab chiqish va andaza tayyorlash, texnologik jarayonni to’g’ri yo’lga qo’yish bilan shug‘ullanuvchi malakali mutaxassislar yetishmasligi sababli, o‘lchamlar aniqligida kamchiliklar yuzaga keladi. Tajribasiz mutaxassislar tomonidan tayyorlangan andazalar ko‘pincha inson tanasiga mos kelmaydi, bu esa mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Global bozor bilan integratsiyalash jarayonida ham to’g’ri o‘lchamlar masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlarda turlicha o‘lcham tizimlarini qo‘llashadi. Masalan, Yevropa, Amerika va Osiyo o‘lcham tizimlari bir-biridan ancha farq qiladi. O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchilar ushbu tizimlarga

to‘liq moslashmagani sababli eksportga ishlab chiqariladigan mahsulotlarning o‘lchamlari mos kelmaslik holatlari kuzatiladi. Bu esa mahsulotlarning qaytarilishiga, qo‘shimcha xarajatlarga va brend nomining sinishiga olib keladi (1-rasm).

1-rasm. O’lchamlar orasidagi farq.

So‘nggi yillarda zamon talabi bo’lgan onlayn haridlarning rivojlanishi ham o‘lcham muammosini yanada dolzarblashtirib qo‘ymoqda. Xaridorlar kiyimni sinab ko‘rmasdan xarid qilganligi sababli, o‘lchamdagi kichik xatolik ham mahsulotning qaytarilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar uchun iqtisodiy zarar keltib chiqaradi.

Shuningdek, mahalliy matolarning o‘ziga xos xususiyatlari ham o‘lchamlar bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, hozirgi kunga talab darajasi oshib borayotgan atlas va adras kabi milliy matolar har bir partiyada turlicha bo‘lishi mumkin. Bu esa standart o‘lchamlarni saqlashda qiyinchiliklarni yuzaga chiqarmoqda.

Yuqorida ko’rsatilgan muammolarni bartaraf etish uchun bir qator chora-tadbirlarni qo’llash zarur. Avvalo, yagona milliy o‘lcham tizimini ishlab chiqish va uni barcha korxonalarda tadbiq etish lozim. Shu bilan birga, aholining antropometrik ko‘rsatkichlari bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilishi muhimdir. Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlarni tayyorlash ham muammoni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda kiyim ishlab chiqarishda o‘lchamlar bilan bog‘liq muammolar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni hal etishda kompleks yondashuvlar talab qiladi. Ushbu muammolar bartaraf etilsa, mahsulot sifati oshadi, iste’molchilar ishonchi mustahkamlanadi va mamlakatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunova Z.N. “Amaliy antropologiya asoslari”. - Toshkent: UMID nashriyoti, 2022.
2. Дунаевская Т.Н. Основы прикладной антропологии и биомеханики / Дунаевская Т.Н., Коблякова Е.Б., Ивлева Г.С., Ивлиева Р.В.; под ред. Кобляковой Е.Б. - СПб.: Информационно-издательский центр МГУДТ, 2005. - 280 с.
3. https://studref.com/656205/tovarovedenie/osnovnye_trebovaniya_otsenka_kachestva_tkan yh_lent.

“URBAN CHIC” USLUBIDA DJINS MATOSIDAN AYOLLAR ZAMONAVIY KIYIMLARINI YARATISH

M1-24 guruh talabasi Faxrutdinova N.Z., dotsent Mirtalipova N.X.
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy moda yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Urban Chic uslubining xususiyatlari hamda denim matosidan foydalangan holda ayollar kiyimini loyihalash jarayoni tahlil qilingan. Dizayn yechimlari, konstruktiv xususiyatlar va estetik talablar asosida innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы особенности одного из современных направлений моды — стиля Urban Chic, а также процесс проектирования женской одежды с использованием денимовой ткани. Рассмотрены инновационные подходы на основе дизайнерских решений, конструктивных особенностей и эстетических требований.*

Abstract. *This article analyzes the characteristics of one of the modern fashion trends, the Urban Chic style, as well as the process of designing women’s clothing using denim fabric. Innovative approaches based on design solutions, structural features, and aesthetic requirements are examined.*

Hozirgi kunda moda sanoati tez sur’atlar bilan rivojlanib, yangi uslub va yo‘nalishlar shakllanmoqda. Shulardan biri — Urban Chic uslubi bo‘lib, u shaharlik ayollarning kundalik hayotiga mos, qulay va estetik jihatdan jozibador kiyimlarni o‘z ichiga oladi. Urban Chic uslubi nafaqat tashqi ko‘rinish, balki hayot falsafasini ham ifodalaydi. Ushbu uslub shaharlik insonning dinamik hayoti, erkinligi va individualligini aks ettiradi.

Urban Chic uslubi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida shakllanib, street style (ko‘cha modasi) va klassik uslub elementlarining uyg‘unlashuvi natijasida rivojlandi. Ushbu yo‘nalish urban madaniyat, yoshlar submadaniyati va zamonaviy dizayn tendensiyalari ta’sirida keng ommalashdi [1]. Dastlab oddiy kundalik kiyimlar sifatida shakllangan bu uslub keyinchalik yuqori moda (high

fashion) kolleksiyalariga ham kirib bordi. Bugungi kunda Urban Chic mashhur dizaynerlar kolleksiyalarida, moda haftaliklarida va ommaviy brendlarda keng qo‘llanilmoqda.

Urban Chic uslubi kiyimlarning inson harakatiga mos, qulay bo‘lishi, ortiqcha dekorativ elementlar qo‘llanilmagan xolda, sodda, lekin zamonaviy shakllar ustuvor hisoblanishi, ko‘p cho‘ntaklar, transformatsiyalanuvchi elementlar va universal dizaynlarni keng qo‘llanilishi, neytral ranglarni tanlanishi; sport, klassik va casual elementlarni o‘zida birlashtiri shi bilan ajralib turadi.

Mazkur uslubda material tanlash muhim bosqich hisoblanadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan materiallar jins matosi, paxta tolali matolar, trikotaj polotnolar, eko-charm va x.k xisoblanadi.

Material tanlashda ekologik omillar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qayta ishlangan xomashyolardan foydalanish tendensiyasi ortib bormoqda. Dizayn va konstruktiv yechimlar

Urban Chic uslubida kiyim loyihalashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinadi: siluetlar, oversize shakllar, to‘g‘ri kesim, yengil erkin fasonlar, konstruktiv elementlar, katta cho‘ntaklar, metall aksessuarlar, dekorativ choklar, qatlamli (layered) dizayn. Kiyimdagi kompozitsion yechimlarni yaxshilashda muvozanat, proporsiya va ritm muhim rol o‘ynaydi. Minimalizm asosida estetik uyg‘unlik yaratiladi.

Bugungi kunda Urban Chic uslubi quyidagi innovatsiyalar bilan boyimoqda:Sustainable fashion (barqaror moda), qayta ishlangan denim matolar, transformatsiyalanuvchi kiyimlar, raqamli dizayn va 3D modellashtirish [1]. Bu yondashuvlar moda sanoatining ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot ishi doirasida “Urban Chic” uslubida ayollar kiyimi komplekti ishlab chiqildi. Unda djins matosi qo‘llanildi (1-rasm).

1- rasm. Urban Chic uslubida taklif etilayotgan ayollar kiyimi to‘plami

Urban Chic uslubi asosida yaratilgan analoglar tahlili natijasi shuni ko‘rsatdiki, djins matosini qo‘llash bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Djins matosi asosan paxta tolalaridan tayyorlanadigan zich to‘qilgan mato hisoblanadi. Uning o‘ziga xosligi diagonal (sarja) to‘qish usulida ishlab chiqariladi. Bu esa matoga yuqori mustahkamlik va o‘ziga xos tekstura beradi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda denim tarkibiga elastiklikni oshirish maqsadida oz miqdorda elastan (spandex) tolalari ham qo‘shilishi mumkin. Natijada mato yanada qulay va harakatga moslashuvchan bo‘ladi. Denim matosining eng muhim xususiyatlaridan biri uning yuqori mustahkamligidir. Zich to‘qilish tufayli u mexanik ta’sirlarga chidamli bo‘lib, uzoq vaqt davomida foydalanish imkonini beradi. Shu sababli denimdan tayyorlangan kiyimlar tez eskirmaydi va uzoq muddat o‘z funksional xususiyatlarini saqlab qoladi. Denim ko‘p marotaba yuvishga chidamli bo‘lib, o‘z shaklini yaxshi saqlaydi. Bu xususiyat kundalik foydalanish uchun juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, shim va kurtkalar kabi kiyimlarda bu afzallik katta ahamiyatga ega. Paxta asosidagi mato bo‘lganligi sababli denim havo o‘tkazuvchanligi, namlikni shimib oluvchanligi yuqori bo‘lib, bu xususiyat uni kundalik kiyimlar uchun qulay va gigiyenik materialga aylantiradi. Quyida laboratoriya sharoitida tekshirilgan djins matosi xususiyatlarini ahamiyatlilik darajasi berilgan (2-rasm).



2-rasm. Djins matosining ahamiyatlilik darajasi bo‘yicha afzalligi

Urban Chic uslubi zamonaviy shaharlik hayot talablariga to‘liq javob beradigan moda yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu uslub qulaylik, funksionallik va estetikani o‘zida mujassam etadi. To‘g‘ri tanlangan materiallar va konstruktiv yechimlar asosida yaratilgan kiyimlar nafaqat zamonaviy, balki raqobatbardosh mahsulot sifatida ham e’tirof etiladi. Djins (denim) matosi o‘zining mustahkamligi, bardoshliligi, qulayligi va estetik jozibadorligi bilan zamonaviy moda sanoatida muhim o‘rin egallaydi. Uning universalligi turli xil kiyimlarni yaratish imkonini beradi, bu esa uni dizaynerlar va iste’molchilar orasida ommabop qiladi. Shu bilan birga, ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish

texnologiyalarining rivojlanishi denim matosining kelajakdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barbara Cimatti, Giampaolo Campana, Laura Carluccio**.** Eco Design and Sustainable Manufacturing in Fashion: A Case Study in the Luxury Personal Accessories Industry. Procedia Manufacturing**.** Volume 8, 2017, Pages 393-400

ПОДГОТОВКА ЧЕСАЛЬНОЙ ЛЕНТЫ ИЗ ОТХОДОВ ШЕРСТИ НА ЧЕСАЛЬНОЙ МАШИНЕ ДЛЯ ОБЪЕМНЫХ ТЕРМОСКРЕПЛЕННЫХ НЕТКАНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Канд.техн.наук, доцент, А.А.Кушимов
Джизакский политехнический институт.

Annotatsiya.*Jun tolalaridan tayyorlangan noto'qima issiqlik izolyatsiya materiallarining xususiyatlari va ularni tarash mashinasida ishlab chiqarish ko'rsatilgan. Tarashlangan to'rning mustahkamligi uning qalinligi bilan ham ortishi aniqlangan. Tarash roliklari va rulonning tezligi, ishchi elementlar orasidagi masofa, rulonning qo'shilish miqdori va boshqa parametrlar to'rning tuzilishi va mustahkamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.*

Аннотация. *Показаны свойства нетканых теплоизоляционных материалов из шерстяных волокон и их производство на чесальной машине. Установлено, что прочность чесаного полотна также увеличивается с его толщиной. Скорость вращения чесальных валиков и валика, расстояние между рабочими элементами, степень перекрытия валиков и другие параметры оказывают существенное влияние на структуру и прочность полотна.*

Abstract. *The properties of nonwoven thermal insulation materials made from wool fibers and their production on a carding machine are described. It is established that the strength of the carded fabric also increases with its thickness. The rotation speed of the carding rollers and the roller, the distance between the working elements, the degree of roller overlap, and other parameters significantly affect the structure and strength of the fabric.*

Сферы применения нетканых материалов всё больше расширяется с каждым днем. Давно известно использованием их в дорожном и жилом строительстве, медицине, космическом и автомобильном машиностроении, а также в отрасли высокой моды.

Именно востребованность нетканых материалов дала толчок к началу их массового производства [1].

Казахстанский рынок шерсти определенно можно назвать неразвитым; текущие масштабы производства в этом секторе не оправдывают создание полноценной системы контроля качества и сертификации товаров. Грубая шерсть рассматривается производителями, специализирующимися на мясном овцеводстве, даже не как побочный продукт, а как отходы производства, которые они готовы продать по любой цене, оправдывающей расходы на хранение шерсти.

Производство нетканых материалов в мире с каждым годом становится наиболее перспективным направлением текстильной промышленности. Объемы производства нетканых материалов и потребления растут намного быстрее, чем тканей и трикотажа. Это объясняется тем, что цикл производства нетканых материалов от получения волокнистого сырья до выпуска готового изделия в несколько раз короче технологии выработки классических видов текстиля и не требует масштабных денежных средств, а широкое разнообразие свойств позволяет применять их в самых разных сферах человеческой деятельности.

В отличие от других отраслей текстильной промышленности сырьевая база для производства нетканых материалов отличается большим разнообразием. Для выработки нетканых материалов используются все виды химических волокон и натуральных, вторичное текстильное сырьё, волокнистые отходы текстильного производства. Нетканые полотна можно вырабатывать из волокнистого сырья одного или нескольких видов. Ассортимент нетканых материалов очень разнообразен, поэтому сырьё вырабатывают в зависимости от назначения и заданных свойств материала.

Основным требованием к объемному термоскрепленному нетканому материалу является теплоизоляция. Физико-технические свойства используемой теплоизоляции оказывают определенное влияние на теплотехническую эффективность и эксплуатационную надежность конструкций и изделий, трудоемкость монтажа, возможность ремонта в процессе эксплуатации и в значительной степени определяют сравнительную технико-экономическую эффективность различных вариантов утеплителя.

Теплоизоляционные конструкции следует проектировать из материалов, обеспечивающих:

- тепловой поток через изолированные поверхности оборудования и трубопроводов согласно заданному технологическому режиму или нормированной плотности теплового потока;

- исключение выделения в процессе эксплуатации вредных, пожароопасных и взрывоопасных, неприятно пахнущих веществ в количествах, превышающих предельно допустимые концентрации;
- исключение выделения в процессе эксплуатации болезнетворных бактерий, вирусов и грибков.

Материалы и изделия должны удовлетворять следующим общим техническим требованиям:

- обладать теплопроводностью не более 0,175 Вт/(м·°С) при 25°С;
- иметь плотность (объемную массу) не более 500 кг/м^2;
- обладать стабильными физико-механическими и теплотехническими свойствами;
- не выделять токсичных веществ и пыли в количествах, превышающих предельно допускаемые концентрации [2].

На чесальных машинах любого типа при непрерывном чесании процесс состоит из трех последовательных операций: утонение продукта (холста) и удаление крупных сорных примесей, прочесывание волокон зубчатыми и игольчатыми поверхностями и снятие прочеса и формирование ленты.

Рассмотрим устройство и работу валичной чесальной машины ЧВ-12-180-Ш, а также особенности исполнения отдельных узлов на валичных машинах других типов.

Узел приемного барабана чесальной машины ЧВ-12-180-Ш состоит из питающей решетки 1 (рис. 1), уплотнительного валика 2, питающих валиков 3, 21, чистительного валика 20 и приемного барабана 4. Питающие валики 3, 21 медленно (со скоростью от 0,21 до 1,2 м/мин) подают зажатый между ними слой волокна к приемному барабану 4, вращающемуся со скоростью 30 - 60 м/мин. Зубья чистительного валика 20 и приемного барабана 4 в зоне их взаимодействия расположены также перекрестно, и окружная скорость приемного барабана 4 значительно больше скорости чистительного валика 20. Благодаря этому все клочки волокнистого материала будут сняты приемным барабаном 4 с чистительного валика 20. При взаимодействии приемного барабана 4 с питающими валиками 3, 21 часть клочков может остаться в гарнитуре верхнего питающего валика 3 и подводится им к линии центров между этим питающим валиком 3 и приемным барабаном 4. Зубья этих рабочих органов в зоне их взаимодействия расположены перекрестно, благодаря чему верхний питающий валик 3 будет полностью очищен приемным барабаном 4 от волокнистого материала. Таким образом,

гарнитура обоих питающих валиков 3, 21 при подходе к питающей решетке 1 окажется полностью очищенной от волокнистого материала.



Рис. 1. – питающая решетка, 2 – уплотнительный валик, 3 – верхний питающий валик, 4 – приемный барабан, 5 – съемный валик, 6 – рабочий валик, 7 –сорная полочка, 8 – надбегуниик, 9 – бегун, 10 – подбегунник, 11 – верхний съемный барабан, 12 – съемный гребень, 13 – верхняя отводящая решетка, 14 – нижняя отводящая решетка, 15 – нижний съемный барабан, 16 – поддерживающий валик, 17 – главный барабан, 18 – перегонный барабан, 19 – барабан предпрочеса, 20 – чистительный валик, 21 – нижний питающий валик

Важнейшими факторами, от которых зависят структура и свойства прочеса, являются вид и геометрические размеры составляющих его волокон. Прочность соединения волокон в прочесе характеризуется усилием, которое необходимо приложить для его растаскивания.

В таблице 1 приведены данные, характеризующие влияние линейной плотности и длины вискозных волокон на структурные показатели и прочностные свойства прочеса.

Таблица 1. Влияния линейной плотности и длины вискозных волокон на структурные показатели и прочностные свойства прочеса

Линейная плотность волокон, мтекс	Средняя длина волокон, мм	Средняя распрямленность волокон, %	Средняя продольная протяженность волокон, %	Средняя поперечная протяженность волокон, %	Средний угол ориентации волокон, град.	Средняя относительная разрывная нагрузка прочеса, мН/текс
330	35,0	45,0	52,0	29,0	16,0	34,2
	56,0	40,0	48,0	18,0	10,0	56,8

790	60,0	40,0	50,0	21,0	13,0	34,7
1460	36,0	38,0	55,0	38,0	19,0	4,9
	51,0	48,0	55,0	28,0	14,0	13,7

Данные таблицы 1 свидетельствуют о следующем:

- с увеличением длины волокон показатели их распрямленности и протяженности снижаются, а прочность прочеса повышается;

- с уменьшением линейной плотности волокон показатели их распрямленности и протяженности также снижаются; прочность прочеса при этом повышается примерно во столько же раз, во сколько снижается линейная плотность волокон.

Таким образом, снижение показателей распрямленности и протяженности волокон в прочесе, как правило, сопровождается повышением его прочностных свойств. Этим объясняется, в частности, тот факт, что применение более извитых волокон приводит к повышению прочностных показателей прочеса.

Прочность прочеса возрастает также с увеличением его толщины. На структуру и прочность прочеса существенное влияние оказывают скорости рабочих валиков и бегуна чесальной машины, разводки между рабочими органами, величина присадки бегуна и другие параметры. Так как окончательное формирование прочеса происходит на съемном барабане при его взаимодействии с главным, то наибольшее влияние на структуру и свойства прочеса оказывает скорость съемного барабана.



Продолжительность взаимодействия главного и съемного барабанов, с

Рис. 2. Зависимость показателей протяженности волокон и прочности прочеса от скорости съемного барабана чесальной машины. Р – Разрывная нагрузка прочеса, сН, х,у – Коэффициенты продольной и поперечной протяженности

Таким образом, параметры прочеса можно изменять путем регулировки режима работы чесальной машины, и прежде всего скорости съемного барабана. Прочес, получаемый с чесальных машин, не является

равнопрочным (изотропным). Максимальную прочность прочес имеет в направлении схода его со съемного барабана. В зависимости от степени ориентации волокон в прочесе и их протяженности различие между прочностными показателями прочеса в продольном и поперечном направлениях (т.е. степень его анизотропии) может существенно изменяться. Чем больше распрямленность волокон в прочесе и чем большая часть волокон имеет углы ориентации в пределах от 0° до 10°, тем выше прочность прочеса в продольном направлении и ниже в поперечном. В частности, для прочеса, состоящего из вискозных волокон линейной плотности 1460 мтекс, соотношение прочностных показателей в продольном и поперечном направлениях может изменяться от 5:1 до 5:3,5. Снижение линейной плотности волокон до 830 мтекс приводит к увеличению этого соотношения до 10:1. При линейной плотности волокон 400 мтекс это соотношение составляет уже 20:1.

К нетканым материалам, в зависимости от их назначения и области применения, предъявляются различные требования в отношении анизотропности по прочностным и другим показателям. Например, геотекстильные нетканые полотна, основа для искусственной кожи и ряд других материалов должны быть изотропными, т.е. обладать близкими по величине показателями свойств в различных направлениях. Как отмечалось выше, прочность нетканого материала в том или ином направлении зависит от ориентации в нем волокон, которая определяется в основном конструкцией чесально-холстоформирующего устройства и которую можно регулировать различными способами. В частности, на обычных шляпочных и валичных чесальных машинах (в том числе оборудованных расчесывающими сегментами) волокна ориентируются преимущественно в направлении движения продукта.

Степень ориентации волокон на валичной чесальной машине определяется большим числом факторов: величиной разводок между главным барабаном и рабочими валиками, выбором гарнитуры (угла наклона и числа зубьев или игл на единицу поверхности рабочего органа), скоростями и размерами рабочих органов. В частности, снижение скорости рабочих валиков способствует лучшей параллелизации волокон в прочесе, а увеличение приводит к получению прочеса с более хаотичным расположением волокон. Большое значение имеет также величина дуг чесания, которая зависит от диаметров взаимодействующих рабочих органов и длины перерабатываемых волокон. С уменьшением диаметров рабочих органов длина дуги чесания при прочих равных условиях резко снижается, что обусловливает получение прочеса и холста с менее ориентированным расположением волокон. Однако возможности снижения анизотропности прочеса за счет регулировки режима работы традиционных чесальных машин весьма ограничены [3].

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. http://www.polyline.ru/publications/proizvoditeli-netkanyh-materialov
2. http://www.tutteplo.ru/documents/batiz.pdf.
3. Сергеенков А.П. Теория процессов, технология, оборудование подготовки смесей и холстообразования: Учебник для вузов. – М.: МГТУ им. А. Н. Косыгина, 2004. – 633 с.
4. http://www.polyline.ru/publications/proizvoditeli-netkanyh-materialov
5. http://www.tutteplo.ru/documents/batiz.pdf.
6. Sergeenkov A. P. Process theory, technology, equipment for preparing mixtures and canvas formation: Textbook for universities. - Moscow: Kosygin Moscow state technical University, 2004. - 633 p.

KOSTYUMBOP MATODAN ChIQINDI TURLARI VA ULARNING TAXLILI

Dotsent Madjidova Sh.G.
Magistrant Nurullayeva M.Z.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada erkaklar kostyumini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan tikuv korxonasida xosil bo‘ladigan chiqindi turlari ko‘rsatilgan. Taxlil natijalari shuni qo‘rsatadiki asosiy chiqindilarni to‘pdan qoladigan laxtaklar tashkil qiladi.*

Аннотация*. В данной статье описываются виды отходов, образующихся на швейном предприятии, специализирующейся на производстве мужских костюмов. Результаты анализа показывают, что основными отходами являются концевые остатка ткани.*

Abstract. *This article describes the types of waste generated at a garment factory specializing in the production of men's suits. The analysis reveals that the primary waste is fabric end trim.*

Tikuvchilik sanoati yengil sanoatning eng jadal rivojlanayotgan va mahsulotga talab yuqori bo‘lgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Kiyim ishlab chiqarishda tannarxini asosiy qismini unga sarflanadigan material tashkil qiladi. Shuning uchun undan ratsional foydalanish muxim axamiyatga ega. Tikuv korxnalarida matoning solishtirma ulgurji bahosi mahsulot tannarxida 80-90% ni tashkil etsa, matodan foydalanish koeffitsienti 0,86dan oshmaydi. Biroq, ushbu chiqindilarni minimallashtirish, ulardan samarali foydalanish va qayta ishlash bugungi kunda ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan dolzarb masalaga aylangan. Kostyumbop materiallar, odatda, qimmatbaho xomashyo sirasiga kirishi sababli,

ularning har bir santimetridan unumli foydalanish korxona foydasini oshirishning asosiy omilidir.

Kostyumbop materiallardan foydalanish jarayonida chiqindilar asosan uch turga bo‘linadi.

1. Andaza oralig‘idagi qirqimlar hosil bo‘ladi. Ularning miqdori andazalarning qanchalik zich joylashtirilganiga bog‘liq. Ayniqsa, katakli yoki gulli matolarda rapport (naqsh) moslashtirish zarurati chiqindi miqdorini 15-20% gacha oshirishi mumkin.
2. Yordamchi material chiqindilari: Astar, flizelin, dublerin kabi qotirmalar hamda qo‘shimcha bezak materiallarining qirqimlari. Ular asosan kichik bo‘laklar, uzun cho‘zinchoq tasmalar yoki burchakli kesimlar ko‘rinishida bo‘ladi.

Ish samaradorligini pasaytiruvchi omillar sirasiga quyidagilarni sanab o‘tishimiz mumkin:

- Andazalarni joylashtirishda (raskladka) qo‘lda yo‘l qo‘yilgan xatoliklar;
- Mato enining andaza o‘lchamlariga mos kelmasligi;
- Matodagi to‘quv nuqsonlari (qiyshiqlik, dog‘lar, rang farqi);
- Eskirgan texnologik uskunalar va avtomatlashtirilmagan kesim jarayonlari.

Chiqindilardan ratsional foydalanish yo‘nalishlari

Tikuvchilik korxonalarida resurs tejamkorligini ta’minlash uchun quyidagi usullarni qo‘llash tavsiya etiladi:

1. Ikkinchi darajali mahsulotlar ishlab chiqarish (Upcycling): Mayda mato bo‘laklaridan galstuklar, cho‘ntak dastro‘mollari, qo‘lqoplar, bolalar o‘yinchoqlari yoki dekorativ aksessuarlar tayyorlash. Bu chiqindiga aylanishi kerak bo‘lgan matoga yangi qiymat beradi.
2. To‘ldiruvchi material sifatida foydalanish: Juda mayda qirqimlar va ip chiqindilari yostiqlar, mebellar, yumshoq o‘yinchoqlar va sport anjomlari (masalan, boks qoplari) uchun sifatli to‘ldiruvchi xomashyo bo‘lib xizmat qiladi.
3. Sanoat qayta ishlashiga yo‘naltirish: Yirik korxonalar chiqindilarni saralab, regenerat tolalar olish uchun qayta ishlash zavodlariga topshirishi lozim. Bu tolalardan noqandli matolar, texnik to‘qimalar va izolyatsiya materiallari olinadi.
4. SAPR tizimlarini joriy etish: Zamonaviy kompyuter dasturlari (masalan, Gerber, Lectra) yordamida andaza joylash sxemasini (nesting) optimallashtirish mato sarfini 5-8% gacha tejash imkonini beradi.

Xulosa.

Kostyumbop material chiqindilarini kamaytirish va ulardan oqilona foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Andaza joylash jarayonini raqamlashtirish, chiqindilarni qayta ishlashning yangi yo‘nalishlarini joriy etish va texnologik intizomga rioya qilish tikuvchilik

sohasini “chiqindisiz texnologiya” (Zero Waste) tamoyillari asosida rivojlantirishning bosh garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadamirzayev B.B. Abduvaliyeva N.A. Abdulxodiyeva M.A.// Tikuv buyumlarini ishlab chiqarishdagi chiqindilarning turini o‘rganish// "Экономика и социум" №2(105) 2023
2. Adilova Umidaxon, Nurmatova Durdonaxon // Kostumbop materiallarni ishlab chiqarishda mahalliy resurslardan foydalanish// Modern education and development Выпуск журнала No-26 B.369
3. R.M. Ismailova, M.K. Rasulova, B.Sharipov. Tikuvchilik asoslari: o‘quv qo‘llanma -Toshkent: “Turon Nashriyot”, 2021. 208 b.

ПОЛУЧЕНИЕ КОМПОЗИТНОЙ БУМАГИ НА ОСНОВЕ МАКУЛАТУРЫ И БАЗАЛЬТОВЫХ ВОЛОКОН

Х.А. Бабаханова, Н.Х. Атаханова, Н.Ж. Садриддинова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. *В работе разработана технология получения композитной бумаги на основе макулатуры типа А с добавлением базальтовых волокон. Исследовано влияние АКД и мела на свойства бумаги. Установлено, что оптимальный состав бумажной массы, содержащий 30 % базальтовых волокон и 4 % АКД, обеспечивает улучшение эксплуатационных характеристик.*

Annotatsiya. *Ushbu ishda A turdagi makulatura asosida bazalt tolalari qo‘shilgan kompozit qog‘oz olish texnologiyasi ishlab chiqildi. AKD va melning qog‘oz xossalariga ta’siri o‘rganildi. 30 % bazalt tolalari va 4 % AKD dan iborat optimal tarkib qog‘ozning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashi aniqlandi.*

Abstract. *This study presents the development of a technology for producing composite paper based on type A waste paper with the addition of basalt fibers. The effects of AKD and chalk on paper properties were investigated. It was found that the optimal composition, containing 30% basalt fibers and 4% AKD, improves the performance characteristics of the paper.*

В настоящее время актуальным является использование переработанного сырья в бумажной промышленности. Перспективным направлением является применение базальтовых волокон, обладающих высокой прочностью и термостойкостью, что позволяет улучшить физико-механические свойства бумаги [1-4]. Целью работы является получение композитной бумаги и оценка их свойств.

В качестве объектов исследования использовались композиции макулатуры и базальтовых волокон (90:10, 70:30, 50:50) с добавлением АКД (2–4 %) и мела (2 %). Введение базальтовых волокон направлено на модификацию структуры и повышение прочностных и эксплуатационных характеристик бумаги.

Таблица № 1

Основные физико-механические характеристики базальтовых волокон

Наименование показателя	Ед. изм.	Значение	Метод испытания
Теплопроводность, λ	Вт/м·оК	не более 0,038	ГОСТ 7076-99 п.7
Прочность на сжатие при 10% деформации	кПа	не менее 20	ГОСТ 17177-94 п.8
Прочность при растяжении перпендикулярно лицевым поверхностям	кПа	не менее 10	ГОСТ 17177-94 п.10.4
Содержание органических веществ	%	не более 4,0	ГОСТ 17177-94 п.11
Кратковременное водопоглощение при частичном погружении	кг/м^2	не более 1	ГОСТ 17177-94 п.8
Водопоглощение при частичном погружении образцом в течение заданного длительного времени	кг/м^2	не более 3	ГОСТ 17177-94 п.10.4
Горючесть	степень	НГ	ГОСТ 17177-94
Плотность	кг/м^2	82 -94	ГОСТ 17177-94 п.7

Подготовка бумажной массы осуществлялась по стандартной технологии, включающей замачивание макулатуры, её измельчение (35–37 °ШR) и введение базальтовых волокон и химических добавок с последующим перемешиванием до однородного состояния. Базальтовые волокна длиной ~1,5 мм вводились в заданных соотношениях 90:10, 70:30 и 50:50. В состав также добавлялись АКД (2–4 %) и мел (2 %).

Формование листов проводилось на установке Rapid Köthen с получением образцов диаметром 200 мм и массой 80–90 г/м², после чего осуществлялись прессование и сушка [5].

Физико-механические свойства бумаги оценивались по стандартным методикам (табл. 2).

Таблица № 2

Свойства опытных образцов бумаги

Процентное соотношение макулатуры: базальтовое волокно	АКД%	Удлинение при разрыве, м	Прочность на разрыв, N	Кол-во сгибов	Белизна, %	Кобб$_{30}$, г/м²	Содер-жание золы, %
90:10	2	2550	34,2	5	74,2	50	15,5
70:30	2	2500	33,1	3	63,7	65	27,1
50:50	2	2400	29,7	3	65,2	83	28,9
90:10	4	2850	40,2	5	74,5	40	15,3
70:30	4	2700	37,5	2	64,4	55	28,2
50:50	4	2500	33,1	2	68,5	71	33,4

Результаты исследований показали, что увеличение содержания базальтовых волокон до 50 % приводит к снижению механической прочности (на ~6 %) и увеличению впитывающей способности (до ~66 %), что связано с ослаблением межволоконных связей и ростом пористости структуры. Наиболее рациональным является содержание 30 % базальтовых волокон, при котором прочность снижается незначительно (~2 %), а водопоглощение увеличивается умеренно (~30 %).

Установлено, что введение АКД (2–4 %) способствует гидрофобизации материала. При 4 % АКД и 30 % базальтовых волокон наблюдается повышение прочности (до ~8 %) и снижение впитывающей способности (до ~15 %) за счёт уменьшения смачиваемости волокон.

Таким образом, оптимальным является состав, содержащий 30 % базальтовых волокон и 4 % АКД, обеспечивающий сбалансированное сочетание прочностных и гидрофобных свойств. Разработанная композиция перспективна для применения в технологиях печати без увлажнения.

Список литературы

1. Song S., Lyu Y., Zhang M. et al. Broadband sound absorption cellulose/basalt fiber composite paper with excellent thermal insulation and hydrophobic properties // *Industrial Crops and Products*. – 2024.

2. Multifunctional organic-inorganic basalt fiber/alginate fiber composite paper for flame retardancy and sound insulation // *Composites Communications*. – 2025.

3. Sustainable cellulose nanofibers/basalt nanoscales composite toward high-performance insulation paper // *International Journal of Biological Macromolecules*. – 2025.

4.Х.А.Бабаханова, Н.Х.Атаханова, Н.Ж.Садриддинова, Д.Ч.Равшанзода Использование отходов базальтовых волокон в бумажной отрасли // Известия ВУЗов Технология текст.промышленности. №1 (416), 2026. С.175-180.

5.Х.А.Бабаханова, Н.Ж.Садриддинова, Н.Х.Атаханова, Н.Х.Турсунбоева Микроскопический анализ качества тиснения на бумаге с добавлением базальтовых волокон // 1-Международная научно-практическая конференция ТТУ. Душанбе. 5 марта 2026.

QADOQLASH MAHSULOTLARINI CHOP ETISHDA TAJRIBAVIY QOG‘OZLARNI QO‘LLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

PhD, dotsent A.Djalilov
PhD, assistent K.M.Kabilova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘qimachilik mato chiqindilarining atrof-muhitga ta’siri muhokama qilindi va qayta ishlash amaliyotlari aylanma iqtisodiyot doirasida barqarorlikni oshirishga ta’siri va olingan tajribaviy qog‘ozlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается воздействие текстильных отходов на окружающую среду, оценивается влияние методов переработки на повышение устойчивости в рамках экономики замкнутого цикла, а также оценивается экономическая эффективность экспериментальных исследований, проведенных на основе полученных данных.*

Annotation. *This article discusses the environmental impact of textile waste, evaluates the impact of recycling practices on increasing sustainability within a circular economy, and evaluates the economic efficiency of the resulting experimental papers.*

To‘qimachilik sanoati global ifloslanishga katta hissa qo‘shadigan sohalardan biri bo‘lib, sohada har yili katta miqdorda chiqindilar ajralib chiqadi. Ushbu ekologik muammoni innovatsion regeneratsiya strategiyalari va to‘qimachilik chiqindilaridan, xususan, paxta va aralash mato chiqindilaridan maqsadli foydalanish orqali hal qilish resurslarni tejash va barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rilishi mumkin. Qayta ishlangan paxta tolalari yetarlicha mavjudligi, biologik parchalanishi va tejamkorligi bilan

ajralib turadi, yashil kompozitlarda mustahkamlovchi materiallar sifatida namoyon bo‘ladi, ammo ularning salohiyatini to‘liq tushunish va undan foydalanish uchun keng qamrovli tadqiqotlar zarur.

Ushbu maqolada TMChni qog‘oz sanoatida qo‘llab, qadoqlash mahsulotlari uchun yangi tarkibli qog‘oz olindi. Shuningdek, TMChning atrof-muhitga ta’siri muhokama qilindi va qayta ishlash amaliyotlari aylanma iqtisodiyot doirasida barqarorlikni oshirishga ta’siri va olingan qog‘oz turlarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi.

Yelimlovchi modda sifatida GPMS va MKK yelimlaridan foydalanish, bosma qog‘ozlarning mustahkamlik xossalarini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. 1 va 2-jadvallarda turli yelimlardan foydalanishda moddiy xarajatlar hisoblari keltirilgan (xomashyoning ulgurji bozor narxlari 02.09.2025 kungi holatiga ko‘ra hisoblangan (valyuta kursi: 1 AQSh dollari 12 465 so‘m).

1-jadval

Qadoqlash qog‘ozini tayyorlash moddiy xarajatlari hisobi
(massa ≈90±4 g/m^2)

Xomashyo va materiallar nomi	1 kg narxi, so‘m	An’anaviy texnologiya bo‘yicha 1 t qog‘oz uchun xarajatlar		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha 1 t qog‘oz uchun xarajatlar	
		Miqdori, kg	So‘m	Miqdori, kg	So‘m
Paxta sellyulozasi	13000	850	11050000	-	-
PS	13000	-	-	400	5200000
TMCh	4000	-	-	400	1600000
Modifikatsiyalangan kation kraxmal yelimi	19600	20	392000	20	392000
Kaolin	1500	100	150000	100	150000
Achchiqtosh	1800	25	45000	25	45000
Dioksid titan	35000	3	105000	3	105000
Uniflok	5000	2	10000	2	10000
Jami asosiy moddiy xarajatlar			**11752000**		**7502000**

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshirildi:

$$E=(Z_1-Z_2)$$

bu yerda: Z_1 –100% paxta sellyulozasidan an’anaviy texnologiya bo‘yicha qadoqlash qog‘ozi ishlab chiqarish bo‘yicha moddiy xarajatlar;

Z_2 – taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha tajribaviy qog‘ozlarni ishlab chiqarish moddiy xarajatlari.

$$E=(Z_1- Z_2) = 11752000 – 7502000 = 4250\ 000 \text{ (MKK yelimi)}$$

$$E=(Z_1- Z_2) = 11460000 – 7210000 = 4250\ 000 \text{ (GMPS yelimi)}$$

2-jadval

Qadoqlash qog‘ozini tayyorlash moddiy xarajatlari hisobi
(massa ≈90±4 g/m^2)

Xomashyo va materiallar nomi	1 kg narxi, so‘m	An’anaviy texnologiya bo‘yicha 1 t qog‘oz uchun xarajatlar		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha 1 t qog‘oz uchun xarajatlar	
		Miqdori, kg	So‘m	Miqdori, kg	So‘m
Paxta sellyulozasi	13000	850	11050000	-	-
PS	13000			400	5200000
TMCh	4000			400	1600000
Gidroksipropilmetilsellyloza yelimi	5000	20	100000	20	100000
Kaolin	1500	100	150000	100	150000
Achchiqtosh	1800	25	45000	25	45000
Dioksid titan	35000	3	105000	3	105000
Uniflok	5000	2	10000	2	10000
Jami asosiy moddiy xarajatlar			**11460000**		**7210000**

Qog‘oz tarkibiga TMCh chiqindilarini kiritishdan asosiy maqsad, mahsulot turlarini ko‘paytirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishdan iborat.

1,0 tonna qadoqlash qog‘ozi olish uchun 50 foiz paxta sellyulozasi tarkibiga 50 foiz TMCh chiqindilarini qo‘shganda, tajribaviy qadoqlash qog‘ozlarini ishlab chiqarishda xomashyo xarajatlarini 4 250 000 so‘mga kamayganini ko‘rishimiz mumkin (3-7-jadvallar).

Taklif qilinayotgan tajribaviy qadoqlash qog‘ozlari xorijdan eksport qilinayotgan ba’zi turdagi bosma material o‘rnini bosishi mumkin, bu holat ishlab chiqarishda moddiy resurslarning sezilarli darajada tejalishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi korxonalarda mahalliy xomashyolardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, respublika ko‘lamida qadoqlash mahsulotlari uchun mo‘ljallangan qog‘ozlarni ishlab chiqarish muammosini hal qilishga, chiqindilardan maqsadli foydalanish hisobiga ma’lum ekologik muammolarning yechilishiga xizmat qiladi.

Kichik korxona misolida qog‘oz ishlab chiqarish uskunasida bir kunda 3 ta ishchi tomonidan 10 tonna mahmulot ishlab chiqarilishi hisobga olinsa:

Dastgohning elektor energiya sarfi:

Xdv =EDQ * Tsm *Nen = 4*8*1500 = 48000 so‘m

Yoritish uchun elektr energiyasi sarfi:

Xyor = 0,023*S * Tsm *Nen / K = 0.023 * 72 * 8 * 1500 / 1,2 = 16560 so‘m

Jami elektr energiya:

Een.j = 48000 +16560 = 112560 so‘m
IH soatbay = Ss *TK*Tsm *IS = 9850,94*1,46 * 8 * 3 = 345177 so‘m
Kunlik ish haqi qo‘shimchalar bilan:
IH kun =IH soatbay + Qo‘shimchalar = 345177 + 207106= 552283 so‘m

3-jadval

Qadoqlash qog‘ozi tannarxi hisobi (Modifikatsiyalangan kation kraxmali, MKK)

Xarajatlar turi	An’anaviy texnologiya bo‘yicha (so‘m)		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha (so‘m)	
	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot
Moddiy harajatlar	**11752000**	**11752**	**7502000**	**7502**
Elektr energiya xarajatlari	112560	112,56	112560	112,56
Ish haqi xarajatlari	552283	552,28	552283	552,28
Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma	66274	66,27	66274	66,27
Asosiy vositalar amartizatsiyasi	2182	2,18	2182	2,18
Boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar	13807	13,81	13807	13,81
Jami mahsulot tannarxi	12499106	12499,1	8249106	8249,1

4-jadval

Qadoqlash qog‘ozi tannarxi hisobi (Gidroksipropilmetilsellyuloza, GPMS)

Xarajatlar turi	An’anaviy texnologiya bo‘yicha (so‘m)		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha (so‘m)	
	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot
Moddiy harajatlar	**11460000**	**11460**	**7210000**	**7210**
Elektr energiya xarajatlari	112560	112,56	112560	112,56
Ish haqi xarajatlari	552283	552,28	552283	552,28
Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma	66274	66,27	66274	66,27
Asosiy vositalar amartizatsiyasi	2182	2,18	2182	2,18
Boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar	13807	13,81	13807	13,81
Mahsulot tannarxi	12207106	12207,1	7957106	7957,1

5-jadval

Mahsulot narxining shakllanishi, qadoqlash qog‘ozi (MKK)

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy texnologiya bo‘yicha (so‘m)		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha (so‘m)	
	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot
Mahsulot tannarxi	12499106	12499,1	8249106	8249,1
Rentabellik	20%	20%	20%	20%
Mahsulot samaradorligi	2499821,2	2499,82	1649821,2	1649,82
Mahsulotni ulgurji narxi	14998927,2	14998,92	9898927,2	9898,93
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1799871,26	1799,88	1187871,26	1187,87
Shartnomaga asaslangan ulgurji narx	16798798,46	16798,8	11086798,46	11086,8

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, qadoqlash qog‘ozi an’anaviy texnologiya asosida ishlab chiqarilganda 1 kg mahsulotni shartnomaga asoslangan ulgurji narxi 16798,8 so‘mni, taklif qilinayotgan texnologiya asosida, ya’ni qog‘oz tarkibiga PS va TMCh chiqindilarini kiritgan holda ishlab chiqarilganda 11086,8 so‘mni tashkil qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, taklif qilinayotgan texnologiya asosida ishlab chiqarilganda 1 kg mahsulotni qiymati 5712 (16798,8 - 11086,8 = 5712) so‘mga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. 1 kg mahsulotdan olinadigan qo‘shimcha foyda 850 so‘mni tashkil qiladi.

MKK qo‘shilganda qadoqlash qog‘ozi ishlab chiqarish iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili esa shuni ko‘rsatadiki, bunda ishlab chiqarilgan 1 kg mahsulotni shartnomaga asoslangan ulgurji narxi an’anaviy texnologiya bo‘yicha 16406,34 so‘mni, taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha esa 10694,34 so‘mni tashkil qiladi. Natijada 1 kg mahsulot qiymati 5712 so‘mga arzonlashadi, 1 kg mahsulotdan olinadigan qo‘shimcha foyda 850 so‘mni tashkil qiladi.

6-jadval

Mahsulot narxining shakllanishi, qadoqlash qog‘ozi (GPMS)

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy texnologiya bo‘yicha (so‘m)		Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha (so‘m)	
	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot	1 tonna mahsulot	1 kg mahsulot
Mahsulot tannarxi	12207106	12207,1	7957106	7957,1
Rentabellik	20%	20%	20%	20%
Mahsulot samaradorligi	2441421,2	2441,42	1591421,2	1591,43
Mahsulotni ulgurji narxi	14648527,2	14648,52	9548527,2	9548,52
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1757823,26	1757,82	1145823,26	1145,82
Shartnomaga asaslangan ulgurji narx	16406350,46	16406,34	10694350,46	10694,34

7-jadval

Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Qadoqlash qog‘ozi (ming so‘m)		Qadoqlash qog‘ozi (ming so‘m)	
	An’anaviy texnologiya bo‘yicha	Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha	An’anaviy texnologiya bo‘yicha	Taklif qilinayotgan texnologiya bo‘yicha
Xomashyo xarajatlari	**11752**	**7502**	**11460**	**7210**
Elektr energiya xarajatlari	112,56	112,56	112,56	112,56
Ish haqi xarajatlari	552,28	552,28	552,28	552,28
Ijtimoiy sug‘urtaga ajratma	66,27	66,27	66,27	66,27
Asosiy vositalar amartizatsiyasi	2,18	2,18	2,18	2,18
Ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajat	13,81	13,81	13,81	13,81
Mahsulot tannarxi	12499,1	8249,1	12207,1	7957,1
Rentabellik	20%	20%	20%	20%
Mahsulot samaradorligi	2499,82	1649,82	2441,42	1591,43
Mahsulotni ulgurji narxi	14998,92	9898,93	14648,52	9548,53
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1799,88	1187,87	1757,82	1145,82
Shartnomaga asaslangan ulgurji narx	15794,7	11086,8	16406,34	10694,35

Taklif qilinayotgan qadoqlash qog‘ozini ishlab chiqarishda asosiy xomashyo o‘rniga PS va TMCh chiqindilarini kiritgan holda ishlab chiqarilganda 1 kg mahsulot qiymatini 5712 so‘mga pasaytirishga erishiladi va 1 kilogramm qog‘ozdan olinadigan qo‘shimcha foyda esa 850 so‘mni tashkil qiladi, 1 tonna mahsulotdan: (MKK) qadoqlash qog‘ozidan 1649,82 ming so‘m va (GPMS) qog‘ozidan 1591,43 ming so‘m foyda olishiga erishiladi. Har ikkala mahsulotni 1 kilogrammidan 850 so‘mdan qo‘shimcha foyda olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джалилов А.А., Ешбаева У.Ж. Оценка показателей качества печати на композиционных упаковочных материалах // Universum: Технические науки. −2020. −№9 (78). −С.15−18.

2. Djalilov A.A., Kabilova K.M. Tajribaviy qadoqlash qog‘ozlarida olingan nusxalar yuzasining mikroskopik tahlili // O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali. –

2025. – №3. – B. 188–193.

3. Djalilov A.A., Yeshbayeva U.Dj., Rafikov A.S. Paper with introduction of waste of polyacrylonitrile fiber // European Science Review – 2018. −№ 7–8. −P. 211–213.

4. Мартьянова О.С., Кононов Г.Н., Говязин И.О. Исследование свойств бумаги для струйной печати // Лесной вестник. – 2008. – №6. – С. 88–92.

TIBBIY-PROFILAKTIKA, REABILITATSIYA FUNKSIYASIGA EGA KIYIMLARNI ISHLASH MEHANIZMINI TADQIQ QILISH

texnika fanlari doktori, professor, M.K.Rasulova,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti.
texnika fanlari falsafa doktori G.S.Orziqulova,
Jizzax politexnika instituti.

Anotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda kiyimning funksionalligini oshiruvchi va ishlab chiqarishni yangi assortiment bilan boyitib rivojlantirishga xizmat qiluvchi tibbiy-profilaktika, reabilitatsiya funksiyasiga ega kiyimlarni ishlash mehanizmi tadqiq qilingan va o‘rganib chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье исследован и изучен механизм действия одежды с медико-профилактической и реабилитационной функциями, которая в наши дни повышает функциональность одежды и способствует развитию производства за счёт обогащения его новым ассортиментом.*

Abstract. *This article investigates and studies the mechanism of action of clothing with medical, preventive, and rehabilitative functions, which nowadays enhances the functionality of clothing and contributes to the development of production by enriching it with a new range.*

Respublikamizda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda mehnat va energiya sarfini kamaytirish, qulay, sifatli mahsulotlarni xalqqa yetkazish, mahalliy xom-ashyodan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ergonomik, ekspluatatsion va estetik talablarga javob beradigan kiyimlarini yaratish, optimal texnologik ishlov berish parametrlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, raqobatbardosh bo‘lgan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi dizayn va funksionallikni oshirish orqali yengil sanoat mahsulotlari yangi assortiment turlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kiyim bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning rivojlanishining oldini olish vazifasini bajaradi, bu vazifalar orqali kiyimning funksionalligini oshirish, yangi assortiment orqali ishlab chiqarishni samarali kengaytirish mumkin. Masalan, orqa miya kasalliklarining rivojlanishining oldini olish uchun – kiyimga integratsiyalashgan korsetlar yoki korsetlardan foydalangan holda, reabilitatsiya qilishning texnik vositalarini kiyimga kombinatsiyalash, kiyimlar qatlamlariga biriktirilgan tibbiy mahsulotlar, umurtqa kasalliklarining rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaslik yoki qo‘llab-quvvatlash uchun kiyimlar, homilador ayollar – tug‘ruqdan oldingi va tug‘ruqdan keyingi bandaj funksiyasi bo‘lgan turli funksiyali kiyimlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ushbu mahsulotlarning prinsipi kiyimning muayyan kasallikning rivojlanishini oldini olish yoki oldini olish uchun bajarishi kerak bo‘lgan funksiyalarni bajarishdan iborat. Kiyimda tibbiy moslamaning tanaga ta’sir qilish mexanizmi o‘rganiladi, ushbu jarayon kiyim yoki uning uchun maxsus moslamani loyihalashda amalga oshiriladi. Dastlab tadqiqot ishida mavjud muammoga yechim bo‘luvchi tibbiy moslama yoki mahsulot ishlash mexanizmi, uning konsruktiv hususiyatlari o‘rganilishi talab etiladi.



1-rasm. Tibbiy-profilaktika, reabilitatsiya funksiyasiga ega kiyimlarni tadqiq qilish tartibi.

Reabilitatsiyaning texnik vositalari va tibbiyot buyumlari ko‘p detallardan tashkil topgan tizim bo‘lib, ularni tibbiyot detallarini o‘z ichiga oladi, maishiy kiyim mos ravishda maishiy detallardan iborat bo‘lishi kerak. Davolash-profilaktika va reabilitatsiya maqsadlaridagi maishiy kiyimlar o‘ziga xos funksiyalar majmuasiga ega bo‘lib, ular maishiy kiyim detallari funksiyalaridan va tibbiyot buyumlar detallarining funksiyalaridan shakllanadi. Ba’zi bir detallar ham maishiy kiyimi, ham reabilitatsiya va profilaktika kiyimlari funksiyalarini bajarishi mumkin, biz bu detallarni maishiy tibbiyot detallari deb atashimiz mumkin. Shu bilan birga, tibbiyot buyumlari va maishiy kiyimlari ma’lum funksiyalarga ega bo‘lib, ularning amalga oshirilishi ularning tarkibiy

tuzilishining elementlari bo‘lgan buyum detallari bilan ta’minlanadi. Davolash-profilaktika va reabilitatsiya mahsulotlarini ishlab chiqish va loyihalashda ma’lum sifat ko‘rsatkichlarini talab etishidan tashqari, ularning qo‘shimcha funksiyalarni bajarish qobiliyati va ushbu qobiliyatni obyektiv sinovdan o‘tkazishb muhimdir. Shu munosabat bilan obyektiv biologik-fiziologik tajribalar va mahsulotlardan foydalanishni subyektiv psixologik baholash asosida davolash-profilaktika va reabilitatsiya mahsulotlarining samaradorligini aniqlash mumkin. Bu kabi kiyimlardan foydalanishning samaradorligi deganda buyumning berilgan funksiyani bajarish qobiliyatini va olinadigan natijalarga aniqlik va to‘liqlik bilan erishish darajasini, ehtimollik yoki foiz sifatida ifodalanganligi tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, tibbiy-profilaktika, reabilitatsiya funksiyasiga ega kiyimlarni loyihalashda quyidagi ketma-ket keladigan algoritm harakatlariga asoslanadi:

-organizmning holatidagi og‘ishlarni va tuzatishga muhtoj parametrlarni aniqlash;
-tibbiyot yoki reabilitatsiya vositalaridan foydalangan holda tuzatish usulini aniqlash;
-ushbu buyumlarning organizmga ta’siri tamoyilini aniqlash va tuzatish natijalariga erishish;
-buyum qo‘llanish sohasini aniqlash;
-maishiy kiyimi yoki tikuv buyumlariga o‘rnatilishi kerak bo‘lgan buyumlar elementlarini aniqlash;
-kiyimning konstruktiv-texnologik parametrlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan turli kasalliklarni tibbiy-profilaktika, reabilitatsiya funksiyasiga ega kiyimlar bilan davolash yo‘liga erishish samarali hal qilinadi. Ishlab chiqarishda yangi dizayndagi kiyimlar assortimenti bilan rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Seidi T. The Tubingen Hip Flexion Orthosis as a repositioning orthosis // Orthopade 41: 2012, -P 195-199
2. Poitout, Dominique G. Biomechanics and Biomaterials in Orthopedics // (Ed.)1st ed. published by Springer. 2004, p. 416 illus.,ISBN 978-1-85233-481-9
3. Orziqulova G., Tulqunova M., Rasulova M. Design features of apparel for early children with orthopedic diseases // O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali. Ilmiy-texnikaviy jurnali. N_3.2021.94-104.
4. Бикбулатова А.А. Научные основы проектирования лечебно-профилактической и реабилитационной одежды // Дис. док.техн.наук. – 05.19.04/ МГУС, М., 2022.- 119-121 с.

5. Rasulova M., Orzikulova G. ORTOPEDIK NUQSONI MAVJUD BOLALAR KIYIMINI ISHLAB CHIQISH // SCIENCE AND INNOVATIVE DEVELOPMENT. – 2023. – T. 6. – №. 1. – 54-61-b..

MODA SANOATIDA EKOLOGIK BARQARORLIK

f.f.n.prof. Raxmatullayeva U.S.
talaba, Abduxakimova M.A.
Toshkent To’qimachilik va Yengil Sanoat Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eko modaning bugungi kundagi tendensiyasi, ijtimoiy ta’siri hamda barqaror moda sanoatining rivojlanish omillari muhokama qilingan. Shuningdek, organik materiallardan foydalanish, “vegan design”, “slow fashion” va “aylanma iqtisodiyot” modellarining moda sanoatidagi o‘rnini tahlil qilinadi.*

Annotation. *This article discusses the social impact of eco-fashion and the factors contributing to the development of the sustainable fashion industry. It also examines the role of “vegan design”,“slow fashion” and “circular economy” models in the fashion industry.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается социальное влияние эко-моды и факторы развития устойчивой модной индустрии. Также, изучается роль моделей “веган дизайн” “slow fashion” и “circular economy” (циркулярная экономика) в индустрии моды.*

Eko-moda bugungi kunda global moda sanoatida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani barchamizga ma’lum bo‘lib, bu asosan moda va textil sanoatining atrof-muhitga ta’siri haqidagi xavotirlar ortib borayotgani bilan bog‘liq. Barqaror eko moda yo‘nalishi keng ko‘lamli bo‘lib, ushbu yo‘nalish organik va qayta ishlangan materiallardan foydalanishni, miqdordan ko‘ra sifatga e’tibor qaratgan holatda kiymlarni uzoq muddat kiyish g‘oyasi, chiqindi resurslarini qayta ishlash hamda, hayvonlardan olinadigan materiallarga 419lternative holatda o‘simliklardan olinadigan tabiy va innovatsion bio-asosli “charm”lar ishlab chiqarish, bundan tashqari eski kiyimlardan “quroq” usuli orqali yangi kiymlar yaratish texnologiyalarini rivojlantirish g‘oyalarini ilgari suradi .

Moda sanoatining ta’minot zanjiri vertikal ketma-ketlikda bo‘lib, bu zanjir qishloq xo‘jaligidan tabiy tolalar yetishtirish va olish, material ishlab chiqarish uchun neft-kimyo sanoati, logistika va chakana savdo kabi ko‘p tarmoqlarni qamrab oladi. Global tolalar ishlab chiqarishning taxminan 60% foizi moda sanoatiga yo‘naltiriladi[3]. Bunday keng ko‘lamli tizim moda sanoatining atrof muhitga ta’sirini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan eko- fashion, qisqa emas, balki uzoq muddatli iste’molga yo‘naltirilgan dizayn tamoyillarini shakillantirmoqda.

O‘zbekiston ham organik va sifatli to‘qimachilik materiallari ishlab chiqarish borasida rivojlanib bormoqda. Mamlakatda, ipak, jun, zig‘ir, ayniqsa, paxta xomashyosi asosida ishlab chiqariladigan tabiiy matolar keng qo‘llaniladi. Quyidagi jadvalda asosiy talab qilinadigan materiallarning tabiiylik darajasi ko‘rsatilgan (jadval-1).

Beqasam	Abr band adras	Nimshoyi	Atlas	Baxmal
100% paxta	100% paxta	Tanda ipak 60% Arqoq paxta 40%	100% ipak	100% ipak

1-jadval Materiallarning tabiiylik darajasi

Qo‘shimcha ma’lumot sifatida shuni aytish mumkunki, global nuqtai nazardan barqaror moda va organik materiallardan amaliyotda muvaffaqiyatli foydalanayotgan va o‘z mahsulotlariga aylanma iqtisodiyot modelini qo‘llay olgan eko fashion brendlaridan bri Eileen Fisher hisoblanadi. Eileen Fisher quyidagi circular amaliyotdan foydalanadi:

- **“Take-back”** dasturi: eski kiyimlarni mijozlardan qaytarib oladi;
- **“Rewear”** (qayta kiyish): yaxshi holatdagi kiyimlarni qayta sotadi;
- **“Renew”** (yangilash): eski kiyimlarni qayta tiklab yangi dizayn qiladi;
- **“Recycle”** (qayta ishlash): yaroqsiz kiyimlarni tolaga aylantirib yangi material sifatida ishlatadi.

  Ma’lumki, eko modaning material innovatsiyasi yo‘nalishining bir qismi bo‘lgan **vegan fashion** kiyim va aksessuarlar ishlab chiqarishda hayvonlardan olingan materiallardan umuman foydalanmaydi. Bu yondashuv hayvonlarga zarar yetkazmaslik va ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Asosiy tamoyillari: charm, jun, pat va boshqa hayvon mahsulotlaridan foydalanilmaydi. Shu yo‘nalishdagi dizaynerlaran biri Stella McCartney hayvonlardan olinadigan materiallardan butunlay voz kechgan va vegan fashion tamoyillarini ilgari suradi. U o‘simliklar asosidagi materiallar, bio-asosli innovatsion matolar, qayta ishlangan tolalarni ishlatiladi. Charmga

421Alternative sfatida esa Stella McCartney **“mirium r”** matosidan foydalanadi [4]. (1-rasm)

1-rasm Mirum r matosi

Mirum bu yangi turdagi, 100% bio-asosli material bo‘lib, u faqat tabiiy xomashyolardan tayyorlanadi va umuman plastik tarkibiga ega emas. U o‘zining tashqi ko‘rinishi va mustahkamligi jihatidan yuqori sifatni ta’minlab, kompaniyaning asosiy qadriyatlarini aks ettiradi. Mirum tarkibi turli tabiiy ingredientlar asosida tayyorlanadi: tabiiy kauchuk, kokos tolalari, biomassa ko‘miri, kork (po‘kak), o‘simlik moylari, mumlar va boshqa tabiiy rang beruvchi moddalar kiradi. Mirum materiali yaqn kelajakda tabiiy mato asosiga biriktiriladi va bu jarayonda neft-kimyo mahsulotlaridan foydalanish butunlay istisno etiladi.

Eko fashion doimiy ravishda **fast fashionga** qarama-qarshi bo‘lib kelgani ma’lum. 2025-yildagi GLOBAL 2000 tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab ultra fast-fashion mahsulotlari xavfli darajada zaharli kimyoviy moddalarga ega. E’tiborlisi, tekshirilgan mahsulotlarning 85% neft asosidagi sintetik materiallardan ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari 2024-yilda so‘rovda qatnashgan kompaniyalarning 82% yangi sintetik tolalarni kamaytirish uchun qayta ishlangan polyesterga o‘tishni rejalashtirayotganini bildirgan.2025-yil Textile Exchange ma’lumotiga ko‘ra:qayta ishlangan polyesterning 98% plastik butilkalardan olinadi. Bir qarash bilan aytganda bu eko moda sohasi uchun rivojlanishdek ko‘rinishi mumkin lekin, 23 ta yangi va qayta ishlangan polyester kiyim namunalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlangan polyester o‘rtacha grammiga 12,000 ta tolani ajratib chiqardi — bu yangi polyesterga nisbatan 55% ko‘proq. 29 ta mahsulot (12 ta yangi polyester va 17 ta qayta ishlangan polyester) ustida o‘tkazilgan qo‘shimcha sinov ham shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlangan polyester 50% ko‘proq massa yo‘qotadi ya’ni u ko‘proq tolalar ajratadi[1].Polyester kiyimlarni yuvish jarayonida mikroplastik ajralgan tolalar

oqova suv tizimlari orqali daryolar va okeanlarga yetib borib, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi matolar shu kabi jiddiy muammo tug‘dirayotgan bir vaqtda, eko-fashion doirasida chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan samarali yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday yondashuvlardan biri sifatida “**Quroq”** usuli alohida o‘rin tutadi. Ushbu usul orqali eski kiyim va mato qoldiqlaridan yangi dizayndagi mahsulotlar yaratiladi bu esa moda sohasidagi kreativliylik g‘oyalarini yanada yuksaltirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa

Moda sanoati global va murakkab tizim bo‘lib, atrof-muhitga sezilarli zarar yetkazadi. Ayniqsa, sintetik materiallar va mikroplastiklar ekologik muammolarni kuchaytirmoqda. Shu sababli, eko-fashion barqaror yechim sifatida muhim ahamiyatga ega. Organik materiallar, qayta ishlash, aylanma iqtisodiyot va quroq usullari chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi.

Umuman olganda, eko-fashion atrof-muhitni himoya qilish va ongli iste’molni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.genevaenvironmentnetwork.org
2. www.reserchgate.net
3. Niinimaki et al 2020
4. www.stellamccartney.com

QORAKO‘L MAHSULOTLARIDAN AYOLLAR ZAMONAVIY KIYIMLARINI YARATISH

assistent U.Saydaliyeva
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qorako‘l mo‘yna mahsulotlaridan foydalangan holda ayollar zamonaviy kiyimlarini yaratish jarayoni tahlil qilingan. Dizayn yechimlari, konstruktiv xususiyatlar va estetik talablar asosida innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс создания современной женской одежды с использованием каракулевого меха. Проанализированы дизайнерские решения, конструктивные особенности и эстетические требования.*

Abstract. *This article discusses the process of creating modern women's clothing using karakul fur. Design solutions, structural features, and aesthetic requirements are analyzed.*

Hozirgi kunda moda sanoati jadal rivojlanib, milliy materiallardan foydalanishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Shulardan biri — qorako‘l mo‘ynasi bo‘lib, u o‘zining betakror teksturasi, nafisligi va yuqori sifat

ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi. Qorako‘l mahsulotlari nafaqat an’anaviy kiyimlarda, balki zamonaviy moda yo‘nalishlarida ham keng qo‘llanilmoqda. Qorako‘l mo‘ynasi O‘zbekistonning milliy boyliklaridan biri bo‘lib, uning asosida yaratilgan kiyimlar milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini aks ettiradi.

Qorako‘l mo‘ynasi qo‘zichoq terisidan olinadigan tabiiy material bo‘lib, uning asosiy xususiyati — o‘ziga xos jingalak (buklama) yuzasi va yaltiroq ko‘rinishidir. Ushbu material yuqori issiqlikni saqlash xususiyatiga ega bo‘lib, sovuq iqlim sharoitida ayniqsa qulay hisoblanadi.

Zamonaviy moda dizaynida qorako‘l mahsulotlari turli yo‘nalishlarda qo‘llanilmoqda: paltolar va yarim paltolar, jilet va kurtkalar, yubkalar va aksessuarlar, kombinatsiyalangan kiyimlar (qorako‘l + mato yoki charm).Bugungi kunda dizaynerlar qorako‘l mo‘ynasini faqat klassik ko‘rinishda emas, balki innovatsion shakllarda ham qo‘llamoqdalar. Ayniqsa, Urban Chic, casual va minimalizm uslublarida qorako‘l materialidan keng foydalanilmoqda.

Qorako‘l mahsulotlaridan kiyim loyihalashda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi: siluetning soddaligi va erkinligi, materialning tabiiy teksturasini saqlash, ortiqcha bezaklardan voz kechish, funksionallik va qulaylikni ta’minlash, kombinatsiyalangan materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qorako‘l mo‘ynasi qalin va o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgani sababli konstruksiyada maxsus texnologik yondashuv talab etiladi. Kesim jarayonida material yo‘nalishi va buklamalari hisobga olinadi. Bu esa tayyor mahsulotning estetik ko‘rinishiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, yarim tayyor mo‘yna mahsulotlari (bo‘laklar, patchwork elementlar) yordamida yangi dizayn kompozitsiyalarini yaratish mumkin. Bu usul chiqindilarni kamaytirish va materialdan samarali foydalanish imkonini beradi. Mo’ynali kiyimlardan dekorativ bezaklarning funktsional tuzilishini qurish funktsiyalarini quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm). Funktsiyalarning asosiy yo’nalishi - mo’ynali buyumlarni hajmli dekorativ bezatish - odamlarni atrof-muhit omillaridan himoya qilish va iste’molchilar talablariga javob berish.

1-rasm. Bezak tuzilishining tarkibiy qismlari;
1- tabiiy charm qiyqimlari;2- mustahkamlovchi chok; 3- tabiiy mo’yna qiyqimlar.

Charm + mo’yna buyumlarning hajmli dekorativ bezaklari ma’lum bir tarzda tartibga solingan elementlardan iborat bo’lib, ularning asoslari har xil bo’lgan geometrik shakllardagi qobiqlardan iborat.

Tabiiy mo’ynadan tayyorlangan kiyimlar o’zining yuqori eskirishga chidamliligi bilan ajralib turadi va xizmat qilish muddati uning dastlabki shaklini saqlagan holatiga qarab aniqlanadi. Mo’yna kiyimlaridan asosiy material sifatida va konstruktiv-dekorativ element turlari sifatida foydalanish mumkin. Hajmli shakl elementlarining mustahkamligi ipli biriktirish va bichish usullaridan foydalangan holda olinishi shakllantirilganga nisbatan yuqori bo’ladi, ammo yuqorida keltirganidek, yarim tayyor mahsulotning yaxlitligini buzish zaruriyati ular istiqbollarini pasaytiradi. Bundan tashqari ipli biriktirish va bichish usullarida ishlab chiqarilgan bezaklar buyumning mehnat sarfini oshiradi. Shu sababli hajmli bezak elementlarini tayyorlash usullarini ishlab chiqishda elementlarni hajmli shakllari mustahkaligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Ayollar kiyimining asosan ko‘krak va tirsak, yelka sohalari deformasiyaga ko‘proq uchraydigan qismlari hisoblanadi. Erkaklar kiyimining asosan orqa koketka, tirsak hamda yelka sohalari deformasiyaga ko‘proq uchraydigan qismlari hisoblanadi. Chunki inson nafas olish jarayonida ko‘krak qafasi kengayishi natijasida kiyimning tanani shu joyiga nisbatan cho‘zilish ya’ni deformasiya hosil bo‘ladi. Gavdaning yelka sohasi ayniqsa kurak sohasiga yopishib hamda osilib turishini inobatga olsak aynan kiyimning shu sohasida deformasiya qiymati yuqori bo’ladi. Kiyim ishlab chiqarish usuli ko‘p jihatdan uning konstruksiyasiga, shakliga, bichimiga, fasoniga va unga qo‘yilgan talablarga bog‘liq. Shu bilan bir qatorda eng asosiy ko‘rsatkich beradigan shaklni saqlab qolishi materialning xususiyatlariga bog‘liq. Har qanday kiyimni tikish jarayoni alohida detallar va uzellarni tikib, ularni asosiy detalga yig‘ishdan iborat bo‘ladi. Moda olamida dizaynerlar faoliyati va ular tomonidan ishlab chiqilgan sanoat namunalari muhim o’rin tutadi. Dizaynerlar o’z kollektsiyalarida taqdim etgan uslublarning keng assortimenti mo’ynali kiyimlarga bo’lgan iste’molchilar talabini kun sayin ortib borayotganini aks ettiradi. Ushbu talab va yangi turdagi texnologiyalarning paydo bo’lishi ta’sirida mo’ynali mahsulotlarning assortimentlari jadal rivojlanib bormoqda. Mo’ynali kiyimlar dabdabalikdan voz kechib, shunchalik odatiy holga aylandiki, u hamma joyda kiyiladi. Keyingi yillarda mo’yna sanoatida sezilarli o’sish kuzatilmoqda, uning kelajagi ishlab chiqarish hajmi bo’yicha o’rta korxonalarning ishlashi, assortimentni o’zgartirish sohasida moslashuvchan siyosatni amalga oshirish va ularning ko’p qismini investitsiya qilishdan iborat.

Qorako‘l mahsulotlari zamonaviy ayollar kiyimlarini yaratishda muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining tabiiyligi, mustahkamligi va estetik jozibadorligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy dizayn yondashuvlari bilan uyg‘unlashgan holda qorako‘l kiyimlari nafaqat milliy, balki global moda talablariga ham javob bera oladi. To‘g‘ri konstruktiv yechimlar va innovatsion dizayn asosida yaratilgan qorako‘l mahsulotlari raqobatbardosh va dolzarb bo‘lib qoladi. To‘g‘ri tanlangan

materiallar va konstruktiv yechimlar asosida yaratilgan kiyimlar nafaqat zamonaviy, balki raqobatbardosh mahsulot sifatida ham e’tirof etiladi. Qorako‘l mo‘ynasi o‘zining tabiiyligi, yuqori issiqlikni saqlash xususiyati, mustahkamligi hamda nafis va betakror teksturasi bilan zamonaviy moda sanoatida muhim o‘rin egallaydi. U nafaqat funksional jihatdan qulay, balki estetik jozibadorligi bilan ham ajralib turadi. Qorako‘l mahsulotlari uzoq muddat xizmat qilishi, o‘z shakli va ko‘rinishini yaxshi saqlashi bilan qadrlanadi. Shu bilan birga, uning noyob jingalak yuzasi va tabiiy yaltiroqligi dizaynga hashamat va individuallik bag‘ishlaydi, bu esa uni zamonaviy ayollar kiyimlarini yaratishda keng qo‘llash imkonini beradi.Uning universalligi turli xil kiyimlarni yaratish imkonini beradi, bu esa uni dizaynerlar va iste’molchilar orasida ommabop qiladi. Shu bilan birga, ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish texnologiyalarining rivojlanishi denim matosining kelajakdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cimatti B., Campana G., Carluccio L. *Eco Design and Sustainable Manufacturing in Fashion*. Procedia Manufacturing, 2017.

2. O‘zbekiston yengil sanoati bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.

ƘORREKTOR ELEMENTLI REABILITATSIYA KIYIMINI LOYIHALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

katta o`qit. M.Y.Umarova
t.f.d., prof. M.K.Rasulova
Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsiya kiyimini loyihalashda qo’llanadigan korrektor elementlarining tarkibiy qismlari va funksional maqsadlari haqida ma’lumot keltirilgan. O‘tkazilgan tahlil natijalari korrektor elementli reabilitatsiya kiyimini loyihalashda tadqiqot vazifalarini shakllantirishga imkon beradi.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о компонентах и функциональном назначении корректорных элементов, используемых при проектировании реабилитационной одежды для женщин с ограниченными возможностями передвижения. Результаты проведенного анализа позволяют сформулировать задачи исследования при проектировании реабилитационной одежды с корректорным элементом.*

Annotation *This article provides information on the components and functional purposes of corrective elements used in the design of rehabilitation clothing for women with limited mobility. The results of the conducted analysis*

allow for the formulation of research objectives when designing rehabilitation clothing with a corrective element.

Reabilitatsiya kiyimlari harakatni cheklovchi va hayot sifatini pasaytiruvchi keng tarqalgan patologik kasalliklarni va tayanch-harakat tizimi davolanishga muhtoj bemorlarni jismoniy terapiya va medikamentoz davolashni o‘z ichiga olgan samarali reabilitatsiya qilishning maxsus kompleks vositasini tashkil etadi [1].

Tayanch harakat tizimi uchun ortopedik korset (korrektor) - bu umurtqa pog‘onasining vertikal holatini ta’minlovchi, yelkalarni burish burchagini to‘g‘ri saqlab, umurtqa pog‘onasi bo‘g`imlarining patologik o‘zgarishlarni sozlovchi elastik ortopedik buyumdir. Ortopedik korrektor (fiksator) yo‘naltirilgan mexanik ta’sir hisobiga umurtqa bo‘limlari, yelka kamari va orqa mushaklari holatini to‘g‘ri shakllantiradi va qayd etadi [2].

Konstruktiv jihatdan korrektorlar - bu turli qattiq elementlar (plastinalar va spitsalar) ga ega bo‘lgan elastik buyumlardir, ularning materiali va miqdori korsetning qattiqligiga ta’sir qiladi. Binobarin, korrektor elementlarini tahlil qilish va konstruksiyalarning samaradorligini oshirish uchun material va ularning geometrik parametrlarini ilmiy asoslangan holda tanlash zamonaviy ko‘p funksiyali reabilitatsiya kiyimlarini loyihalashda dolzarb vazifa hisoblanadi [3].

Reabilitatsiya kiyimining tarkibiy qismi sifatida korrektor buyumlari quyidagi elementlar majmuasidan iborat (1-rasm) [4].



1-rasm. Reabilitatsiya kiyimidagi tuzatish moslamalarining tarkibiy qismlari

Reabilitatsiya kiyimidan foydalanish samaradorligi asosan quyidagi funksiyalarni bajaruvchi korrektsiyalovchi bilan belgilanadi (2-rasm) [4].

Korrektor elementlari to‘g‘ri tanlanganda ularning ish samaradorligi ortadi, bu esa insonning jismoniy va psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, harakat erkinligini cheklamaydi [5].



2-rasm. Reabilitatsiya kiyimidagi tuzatish elementlarining funksional maqsadlari

Mamlakatimizda va xorijda harakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kiyim-kechak assortimenti dizayni bo‘yicha tahlil qilish mavjud tajribani tizimlashtirish, belgilangan muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun quyidagi omillarni aniqladi [5]:

- tayanch-harakat tizimi shikastlangan ayollar uchun reabilitatsiya kiyimida korrektsiya elementlarini loyihalash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yetarli emas;

- xorijda ishlab chiqarilgan kiyim namunalari tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlarning yechish va kiyish vaqtidagi tabiiy fiziologik ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirish uchun moslashtirilmagan;

- sintetik va sun’iy materiallarning kiyim-kechaklarda ommaviy qo‘llanilishi tufayli inson organizmiga allergik reaktsiyalari va ularning salbiy oqibatlari;

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun xorijda ishlab chiqarilgan reabilitatsiya kiyimlari narxlarining qimmatligi.

O‘tkazilgan tahlil natijalari tadqiqotning quyidagi vazifalarini shakllantirishga imkon beradi:

-tayanch-harakat a’zolari shikastlangan ayollar uchun reabilitatsiya kiyimlarini korrektor elmentlarining ilmiy asoslangan parametrlari asosida loyihalashtirish;

- tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslarning ehtiyojlariga muvofiq reabilitatsiya kiyimini yechish va kiyishda qulaylikni ta’minlash;

-tabiiy mahalliy to‘qimachilik xomashyosidan foydalangan holda inson organizmiga allergik reaksiyalarning oldini olish va korrektor elementlarining konstruktsion materiali massasini kamaytirish hisobiga reabilitatsiya kiyimlarining ergonomikligini oshirish;

-ishlab chiqarishni mahalliylashtirish sharoitida reabilitatsiya kiyimlari narxini pasaytirish.

Harakat imkoniyati cheklangan ayollar reabilitatsion kiyimini loyihalash uchun taklif etilayotgan usul va texnologiyalarning joriy etilishi iste`molchilarning talablariga javob beradigan va jahon bozorlarida raqobatbardosh bo`ladigan reabilitatsion kiyim uchun yangi loyiha yechimlarini beradi. Bunday hollarda, buyumning funksionalligi loyihalashtirilgan obyektning

asosiga aylanadi, o`ziga xos texnik jihatdan yangi innovatsion yechimlarni ishlab chiqish bo`yicha dizayn jarayoni shakllanishini ta`minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бикбулатова А.А. Научные основы проектирования лечебно-профилактической и реабилитационной одежды: дис. … д-ра техн. наук: 05.19.04/МГУС, М., 2022.-119-121с.
2. М.К.Расулова, М.Ю.Умарова Изучение требований потрибителей при проектировании адаптационной одежды для людей с ограниченными возможностями Journal os Advanced Scientific Research (ISSN:0976-9595) Vol.5.Issue 10 page 31 Impact factor 9.
3. K.B.Mirziyodova, M.K.Rasulova, M.Y.Umarova “Design issues of adaptive garments for women with disabilities” CAHIERS MAGELLANES-NS Volume 06 Issue 2 2024.
4. Пинчук С.И. Организация эксперимента при моделировании и оптимизации технических систем // Учеб. пособие. Днепропетровск: ООО Независимая издательская организация «Дива», 2008.248 с.
5. Сидняев Н.И., Вилисова Н.Т. Введение в теорию планирования эксперимента // -М.МГТУ.2011 г. с.48

CLASSIFICATION DES CRÉATEURS DANS LE BUSINESS DE LA MODE

ТИТЛП
Ассистент кафедры «Мода и дизайн»
PhD, Н.З.Ахмедова

Аннотация. *В данной статье рассмотрены иследования проведённые на основе типологии дизайнеров с учётом размещение другими дизайнерами и творческими организациями использования ряда нематериальных ресурсов на примере Rieple&Gander.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rieple & Gander misolida bir qator nomoddiy resurslardan foydalangan holda boshqa dizaynerlar va ijodiy tashkilotlarning joylashishini hisobga olgan holda dizaynerlar tipologiyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.*

Annotation. *Dans cet article examine les études menées sur la base d'une typologie de concepteurs, en tenant compte de la mise en place par d'autres concepteurs et organisations créatives d'une série de ressources intangibles sur l'exemple Rieple & Gander.*

"Le cycle de mode - est un peu anachronique. Nous montrons toujours les vêtements en février, et il ne sera pas disponible avant juillet, août ou septembre. À ce moment-là, les images de la collection étaient visibles sur l'Internet, et avant les nausées étaient discutées sur les blogs, les réseaux sociaux et les Style.com, et

lorsque la collection est entrée dans le magasin, les gens étaient déjà [fatigués d'elle], le cycle de mode ne correspond pas à la vitesse de communication. Au lieu de montrer les choses sur le passerelle qui n'apparaîtront pas dans les magasins en quelques mois, nous devons montrer les choses qui peuvent être achetées en même temps. Net-à-porter s'en est bien sorti avec Roland Moore et Halston. Au lieu d'être plus réactifs, nous faisons plus de saisons et plus de collections, et ce n'est pas la solution, la solution est de donner aux gens ce qu'ils veulent quand ils le veulent ".

Les couturiers élaborent les nouvelles conceptions et dans le cadre du procès créateur assument la responsabilité de la réalisation de ces conceptions en forme d'à la mode sous la forme de modèles des vêtements. Il existe différents types de créateurs de mode et de détaillants de mode à travers le monde et ils opèrent dans différents segments de marché tels que la marque de mode, les maisons de créateurs ou la grande distribution. Les créateurs de différents secteurs de l'industrie de la mode s'influenceront les uns les autres; ils sont inextricablement liés par le processus de conception et s'inspirent de tout ce avec quoi ils entrent en contact.

Rieple & Gander ont mené une étude sur la typologie des créateurs de mode et ont conclu qu'il existe quatre classifications dans lesquelles la plupart des créateurs de vêtements appartiennent: les individualistes, les dirigeants, les interprètes et les reproducteurs.

Les concepteurs sont intrinsèquement liés par le processus de conception et les uns avec les autres. La recherche de Rieple & Gander se concentre sur la typologie des concepteurs et sur la façon dont la mise en commun avec d'autres concepteurs et organisations créatives leur permet d'utiliser un certain nombre de ressources intangibles, comme les scènes de rue, l'humeur sociale et l'atmosphère, pour créer de nouveaux designs[1].

Tableau 1.

Classification de la typologie des designers selon le modèle de Rieple & Gander

HAUTE



[1] Source: Rieple & Gander, 2025

Les individualistes - Mavericks

Les individualistes sont des concepteurs exclusivement créatifs (et non commerciaux) et assument souvent le rôle de directeur créatif du design ou de consultant pour la prévision des tendances. Les individualistes consultent les meilleures maisons de design dans les domaines saisonniers de choix du couleur, de style et de tissu. Ces concepteurs ne sont surtout pas intéressés par les tendances actuelles des consommateurs ou du marché; au lieu de cela, ils créeront des vêtements de mode, de nouvelles images et des directions pour la marque, préférant conduire plutôt que suivre. Des exemples d'individualistes modernes incluent John Galiano, Vivienne Westwood et Alexander McQueen (il sera intéressant de voir comment l'entreprise tente de remplacer son air de conception après sa mort en 2010).

Leaders- Les dirigeants

Les dirigeants de la mode sont des concepteurs « top » qui sont devenus des noms reconnus au cours de leur carrière, soit en travaillant dans d'autres maisons de mode (comme Donna Karan pour Anna Klein), soit en créant un modèle commercial plutôt qu'un modèle créatif. Les dirigeants innovent de manière très chic et novatrice et créent souvent leur propre label; par exemple, le concepteur Tom Ford a créé son propre label après avoir travaillé à Gucci.

Interpreters- Les interprètes

Les interprètes ont pris un rôle relativement nouveau dans la mode. Ils ne sont ni concepteurs, ni acheteurs ni développeurs de produits, mais hybrides tous les trois. Ces gens ont une vision commerciale et sont surtout préoccupés par le choix des images clés pour la saison. Les interprètes travaillent en étroite collaboration avec le merchandising et les aspects techniques de l'entreprise et concentreront leurs efforts sur la façon dont la marque ou le détaillant fait part à ses consommateurs de leur message de conception. Des exemples d'entreprises qui utilisent des interprètes incluent KarenMillen, Anthropologie et BananaRepublic. En outre, les grands réseaux commerciaux ou marques avec leurs propres labels tels que Houseof Fraser, JC Penney et The Limited recrutent également des interprètes de la mode.

Reproducteurs - Reproducers

Les reproducteurs (également connus sous le nom de créateurs de mode rapide) travaillent avec une équipe d'acheteurs et de développeurs de produits pour gérer l'apparence et la convivialité d'un détaillant ou d'une marque en

particulier. Ils veillent à ce que la palette de couleurs et les tendances du look correspondent à l'entreprise ou à la marque. Ces concepteurs exigeants sur le plan commercial doivent s'assurer que, même si la direction est «correcte», elle est à la fois portable et rentable.

Les haut-parleurs trouvent, sélectionnent et adaptent des idées et des tendances à un segment de marché spécifique. Ce n'est peut-être pas un rôle très créatif, mais il faut des compétences techniques pour mettre en évidence les tendances des podiums qui réussiront à atteindre la rue principale. Les grandes chaînes de distribution telles que H&M, Zara, Gap et Forever 21 utilisent des haut-parleurs.

Conclusion

L'étude de la typologie de Rieple & Gander démontre que le succès dans le business de la mode ne dépend pas uniquement de la créativité pure, mais de l'équilibre entre l'innovation artistique et la réactivité face au marché. Les Individualistes et les Dirigeants façonnent l'esthétique future, tandis que les Interprètes et les Reproducteurs assurent la viabilité commerciale en adaptant ces visions à la consommation de masse. En 2026, cette classification reste fondamentale pour comprendre comment les marques de "fast-fashion" et les maisons de haute couture coexistent dans un écosystème numérique où la vitesse de communication redéfinit constamment les cycles de production.

Bibliographie

1. **Rieple, A. & Gander, J. (2009).** *Design as a strategic resource: A management perspective*. Management Decision, Vol. 47, No. 2.
2. **Godart, F. (2010).** *Sociologie de la mode*. Paris: Réseaux (Puf).
3. **Gale, C. & Kaur, J. (2004).** *The Fashion Design Process*. London: Bloomsbury Academic.
4. **Bandinelli, R. & Gaeta, L. (2020).** *La gestion du business de la mode : Stratégies et processus*. Paris: Dunod.
5. **Erner, G. (2004).** *Victimes de la mode ? Comment on nous crée des besoins*. Paris: La Découverte.

DIZAYN ASOSIDA YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

YSM kafedrasi katta o‘qituvchi Mirboboyeva Gulxayo Abdusattorovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti
94-24 YSM guruh talabasi Qosimova Zeboxon Avazbek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizaynning o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy*

texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida mahsulot sifatini yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Bozor talablariga moslashish, estetik va funksional dizayn yaratish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Аннотация: *В данной статье анализируется роль дизайна в повышении конкурентоспособности продукции лёгкой промышленности. Рассматриваются пути улучшения качества продукции на основе современных технологий и инновационных подходов. Освещаются вопросы адаптации к рыночному спросу, создания эстетичного и функционального дизайна, а также повышения эффективности производства.*

Annotation: *This article analyzes the role of design in increasing the competitiveness of light industry products. It examines ways to improve product quality based on modern technologies and innovative approaches. The study highlights adaptation to market demand, creation of aesthetic and functional design, and improvement of production efficiency in the industry.*

Yengil sanoat bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha aholi ehtiyojlarini qondirish bilan birga eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda global bozor sharoitida raqobat keskinlashib, mahsulot sifatiga, dizayniga va innovatsion yechimlarga talab ortib bormoqda. Dizayn mahsulotning tashqi ko‘rinishi bilan birga uning funksional xususiyatlarini ham belgilovchi muhim omilga aylandi. Yengil sanoat korxonalarida zamonaviy dizayn yondashuvlarini qo‘llash mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, iste’molchilarning didi va talablarining o‘zgarishi ishlab chiqaruvchilardan doimiy innovatsiyalarni talab etadi. Shu sababli, dizayn asosida yangi mahsulot turlarini yaratish va assortimentni kengaytirish dolzarb masalaga aylangan.

Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizayn asosiy strategik omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish yetarli emas, balki uning tashqi ko‘rinishi, qulayligi va iste’molchi talablariga mosligi ham muhimdir. Dizayn jarayoni mahsulotni loyihalashdan boshlab uning ishlab chiqarilishi va bozorga chiqishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Shu sababli dizaynerlar va muhandislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Yengil sanoatda innovatsion texnologiyalar, xususan, kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish va raqamli dizayn vositalari mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Bozor tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, iste’molchilar ko‘proq estetik jihatdan chiroyli, qulay va ekologik toza mahsulotlarga e’tibor qaratmoqda. Shu sababli dizayn jarayonida ekologik omillar ham hisobga olinishi kerak.[1].

Yengil sanoatda assortimentni kengaytirish ham raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo‘lidir. Turli xil dizayndagi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali korxonalar turli iste’molchilar segmentini qamrab olishi mumkin.

Dizayn omillarining raqobatbardoshlikka ta’siri

1-jadval.

Dizayn omili	Ta’sir yo‘nalishi	Natija
Estetik ko‘rinish	Iste’molchini jalb qilish	Sotuv hajmi oshadi
Ergonomika	Qulaylikni oshirish	Iste’molchi qoniqishi ortadi
Innovatsiya	Yangi mahsulot yaratish	Bozor ulushi kengayadi
Ekologik dizayn	Atrof-muhitga moslik	Barqaror rivojlanish

Dizayn asosida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish ham muhimdir. Raqamli texnologiyalar yordamida xomashyo sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, marketing va dizayn o‘rtasidagi integratsiya mahsulot muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. Reklama va brending jarayonida dizaynning ahamiyati juda katta. Yengil sanoatda xalqaro tajribalarni o‘rganish ham muhim. Rivojlangan davlatlarda dizayn markazlari ishlab chiqarishning asosiy qismi sifatida qaraladi.[2].

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi: innovatsion dizayn, sifat nazorati, iste’molchi tahlili va texnologik yangilanishlar.[3]. Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy dizayn yondashuvlarining integratsiyalashuvi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda faqat estetik ko‘rinish emas, balki mahsulotning intellektual dizayn konsepsiyasi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa “aqlli dizayn” tushunchasini shakllantirib, mahsulotning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, foydalanuvchi ehtiyojlarini avtomatik tahlil qiluvchi raqamli tizimlar asosida yaratilgan dizaynlar iste’molchi bilan bevosita moslashuvni ta’minlaydi.

Xulosa

Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizayn muhim strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy dizayn yondashuvlari mahsulotning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning funksionalligi, sifati va iste’molchi talablariga mosligini ham yaxshilaydi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli dizayn vositalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va

samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, assortimentni kengaytirish va bozor talablarini chuqur tahlil qilish korxonalar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Yengil sanoatda dizayn va texnologiyaning uyg‘unligi raqobatbardosh mahsulotlar yaratishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi hamda xalqaro bozorda o‘rin egallash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov A. A. Yengil sanoat texnologiyalari va ishlab chiqarish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017. [1]
2. Mirzayev Sh. M. Sanoat dizayni asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015.[2]
3. Tursunov B. T. Ishlab chiqarish texnologiyasi va yengil sanoat. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. [3]
4. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti. O‘quv qo‘llanma: Yengil sanoat mahsulotlari dizayni. Toshkent, 2020.

KIYIM BEZAKLARINING INSON PSIXOLOGIYASI VA MADANIYATIDAGI AHAMIYATI

YSM kafedrasikatta o‘qituvchi (PhD), I.N. Obidova
Farg‘ona davlat texnika universiteti
M43-25 guruh magistranti M.Abdumitalova
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada kiyimdagi bezaklarning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Bezaklarning psixologik jihatlari inson kayfiyati, o‘zini ifoda etish, o‘ziga ishonch hissini kuchaytirishdagi o‘rni hamda madaniy jihatlari-milliy qadriyatlarni saqlash, tarixiy xotirani uzatish va marosimlardagi ramziy ma’nolari yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние украшений на одежде на психологию человека. Особое внимание уделяется психологическим аспектам украшений, включая их роль в формировании настроения, самовыражении и уверенности в себе, а также их культурным аспектам – сохранению национальных ценностей, передаче исторической памяти и символическому значению в церемониях.*

Annotation: *This article analyzes the impact of clothing decorations on human psychology. The psychological aspects of decorations are highlighted, including their role in human mood, self-expression, and self-confidence, as well as their cultural aspects - preserving national values, transmitting historical memory, and symbolic meanings in ceremonies.*

Libos dizayni, faqat estetik shakl yaratish emas, balki inson organizmi (fiziologiya) va ruhiyati (psixologiya) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga olgan holda funksional va emotsional jihatdan mos mahsulot ishlab chiqish jarayonidir. Kiyimdagi bezaklar (kashta, naqsh, panjal, metall bezak, ruchka, ramzli elementlar) faqat estetik element emas; ular insonning shaxsiyati, ijtimoiy maqomi, guruhga mansubligi, tarixiy xotirasi va siyosiy yoki diniy e’tiqodlarini ifoda etuvchi vizual matn hisoblanadi. Ushbu vizual tilni tadqiq etish semiotika, etnografiya va psixologiyaning kesishgan joyidadir.

Psixologik ahamiyati**.** Kiyim va uning bezaklari insonga “men kimgaman” degan xabarni tashiydi -milliy, diniy, jinsiy yoki professional identifikator sifatida. Bu o‘zini-o‘zi tasdiqlash (self-verification) va o‘zini ifoda etish vositasidir.

Tadqiqotlar kiyim tanlovi va tashqi ko‘rinishning kayfiyat, ishonch va hattoki xulq-atvorga ta’sir qilishini ko‘rsatadi -“dress-for-success” yoki “enclothed cognition” kabi hodisalar orqali. Kiyinish orqali odam o‘zini qulayroq, rasmiyroq yoki jozibadorroq his qilishi mumkin.[1]

Qimmat mato, murakkab kashta yoki zargarlik -qadimdan ijtimoiy maqom va boylik belgisi bo‘lib kelgan. Bezaklarning qiyofasi boshqalar tomonidan tezda o‘qiladigan “signal” hisoblanadi. Madaniy va historik ahamiyati. Ko‘plab jamiyatlarda kashta va ornamentlar tarixiy voqealarni, miflarni, qishloq-hayotini yoki klan/urug‘ belgilarini saqlovchi vizual xotira rolini bajaradi. Masalan, an’anaviy bluz yoki kashtalar jamiyatning madaniy o‘zligini mustahkamlaydi; UNESCO ham bir qancha kashta va mato texnikalarini madaniy meros deb e’tirof etgan.

Tug‘ilish, nikoh, dafn kabi marosimlarda bezaklar maxsus ma’noga ega: ba’zan himoya, ba’zan baraka, ba’zan ijtimoiy statusni ko‘rsatadi. Ushbu tizimlar odatda avloddan-avlodga o‘tiladi va ayollar, ustalar orqali o‘rganiladi.

Bezaklar orqali guruhlar o‘z qarashlarini ifoda etishi, resistensiya ko‘rsatishi yoki diasporada madaniy izqitishni davom ettirishi mumkin. Markaziy Osiyo (O‘zbek kashtalari)**:** naqshlar ko‘pincha tabiat (gul, yulduz), himoya ramzlari (kross, chiziqlar) va hududiy belgilardan tashkil topgan; ularning har biri oilaviy, hududiy yoki statusni anglatishi mumkin. [2]

- Global misollar: tatreez (Palestine), phulkari, kantha (Hind, Subkontinent), Zmijanje va boshqa Evropa kashtalari - barchasi jamiyat xotirasi, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va identifikatsiyaga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari va dalillar

- Antropologik etnografiya: kiyim odamlardan intervyu, marosim kuzatuvlari orqali tahlil qilinadi.
- Psixologik eksperimentlar**:** “enclothed cognition” va uslub orqali sub’ektlarning kayfiyati ishlash samarasi o‘rganiladi.

- Madaniy meros tashkilotlari (UNESCO**)**: an’anaviy tikuv va kashta texnikalarining roli hamda saqlash zarurati haqida hujjatlar.

Xulosa

Kiyimdagi bezaklar inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat estetik go‘zallik yaratadi, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy hamda madaniy aloqani mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bezaklar orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini, ichki dunyosini va ijtimoiy mavqeini ifoda etadi. Ular shaxsning o‘ziga ishonchini oshirish, kayfiyatini yaxshilash va jamiyatda o‘z o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bezaklar milliy identitet, tarixiy xotira va madaniy merosni avloddan avlodga uzatishda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moda va psixologiya asoslari: Karen Pine. Mind What You Wear: The Psychology of Fashion. – London: 2012.
2. O‘zbekiston milliy kashtachiligi bo‘yicha: O‘zbek xalq amaliy san’ati (kashtachilik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2010.
3. Traditional Crafts and Intangible Cultural Heritage Documentation. – Paris, 2017.

SANOATDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI (IT) TA'LIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH: METODIK YONDASHUVLAR, RAQAMLI INSTRUMENTLAR VA EKOTIZIMLAR

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institute
Moda va dizayn kafedrasi
Sindarova Shoxista Maxammatovna

Annotatsiya: *Hozirgi zamon fan metodologiyasi ilmiy faoliyatning ma’nosini, uning ijod, amaliyot, ijtimoiy borliqning ma’naviyat sohasi, kengroq aytganda, butun madaniyat bilan aloqasini aniqlaydi. Ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari hamda texnoparklarni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yurak jarrohligidan keyingi reabilitatsiya davrida ayol bemorlar uchun mo‘ljallangan tibbiy kiyimlarning konstruktiv, gigiyenik va ergonomik muammolari tahlil qilindi. So‘rovnoma natijalari asosida mavjud tibbiy kiyimlarning asosiy kamchiliklari aniqlanib, bemorlarning ehtiyojlari va reabilitatsiya jarayonini hisobga olgan holda tibbiy kiyimlarni loyihalash uchun zarur bo‘lgan talablar shakllantirildi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются конструктивные, гигиенические и эргономические проблемы медицинской одежды для пациенток в период реабилитации после операций на сердце. На основе результатов исследования выявлены основные недостатки существующей медицинской одежды и сформулированы необходимые требования к ее*

проектированию с учетом потребностей пациенток и процесса реабилитации.

Abstract. *This article analyzes the design, hygienic, and ergonomic problems of medical clothing for female patients during the rehabilitation period after open-heart surgery. Based on survey results, the main shortcomings of existing medical clothing were identified, and the necessary requirements for its design were formulated, taking into account patients' needs and the rehabilitation process.*

Yurak-qon tomir kasalliklari zamonaviy tibbiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u dunyo miqyosida o‘limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakatda qayd etilgan o‘lim holatlarining 58,9 foizi aynan yurak-qon tomir kasalliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan [1]. Yurak jarrohligida keng qo‘llaniladigan operatsiya usullaridan biri median sternotomiya bo‘lib, u ko‘krak suyagini vertikal kesish orqali yurakka kirish imkonini beradi.

Bunday jarrohlik amaliyotidan keyin bemorlarning reabilitatsiya davri uzoq davom etadi va bu davrda ko‘krak qafasining barqarorligini ta’minlash, jarrohlik yarasini himoya qilish hamda bemorning harakatlarini ma’lum darajada cheklash muhim ahamiyatga ega [2]. Shu sababli operatsiyadan keyingi davrda bemorlarga maxsus tibbiy kiyimlar – ko‘krak bandajlari, korsetlar yoki qo‘llab-quvvatlovchi ichki kiyimlardan foydalanish tavsiya etiladi [3].

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan ko‘plab tibbiy kiyimlar ayol bemorlarning anatomik xususiyatlariga to‘liq mos kelmaydi. Natijada bemorlarda harakatlanish paytida noqulaylik, teri tirnash xususiyati, ortiqcha bosim yoki psixologik noqulaylik kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli ayol bemorlar uchun mo‘ljallangan tibbiy kiyimlarni takomillashtirish va ularni ergonomik hamda gigiyenik jihatdan optimallashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ochiq yurak jarrohligidan keyingi reabilitatsiya davrida foydalanilayotgan tibbiy kiyimlarning kamchiliklarini aniqlash maqsadida so‘rovnoma usuli qo‘llanildi. So‘rovnomada tibbiy korset yoki ko‘krak bandajlaridan foydalanayotgan bemorlar ishtirok etdi.

So‘rovnoma orqali quyidagi masalalar o‘rganildi:

- mavjud tibbiy kiyimlarning konstruktiv kamchiliklari;
- bemorlar uchun eng muhim ergonomik xususiyatlar;
- tibbiy kiyimning yangi modelida bo‘lishi kerak bo‘lgan qo‘shimcha imkoniyatlar.

So‘rov natijalari bemorlarning real ehtiyojlarini aniqlashni hamda tibbiy kiyimlarni loyihalash jarayonida foydalanuvchi markazli yondashuvni qo‘llash imkonini berdi. So‘rov natijalari mavjud tibbiy kiyimlarda bir qator muhim muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Respondentlarning aksariyati tibbiy

kiyimning qo‘ltiq osti qismi qattiqligi asosiy noqulayliklardan biri ekanligini ta’kidladi. Ushbu konstruktiv kamchilik harakatlanish jarayonida ishqalanish hosil qilib, bemorlarda qo‘shimcha noqulaylik tug‘diradi.
Bundan tashqari quyidagi kamchiliklar ham qayd etildi:

- matoning qattiqligi va dag‘alligi;
- tibbiy kiyimdagi choklarning haddan tashqari ko‘pligi;
- ko‘krak sohasining ortiqcha siqilishi;
- kundalik harakatlar vaqtida noqulaylik paydo bo‘lishi;
- mato havo o’tkazmasligi natijasida jarohat o‘rnida terlash.

So‘rov natijalariga ko‘ra, bemorlar uchun tibbiy kiyimda quyidagi xususiyatlar eng muhim hisoblanadi.

1-jadval.

Tibbiy kiyim xossalari	**Respondentlar ulushi**
mato sifati	92.3 %
nafas oluvchanlik	92.3 %
oson kiyib-yechish	92.3 %
teri bilan mosligi	69.2 %
estetik ko‘rinish	38.5 %

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bemorlar uchun eng muhim jihatlar material sifati, gigiyenik xususiyatlar va kiyimdan foydalanish qulayligi hisoblanadi.
Respondentlar yangi model tibbiy kiyimlarda yumshoq va yengil to‘qimachilik materiallaridan foydalanishni, kiyib-yechishni osonlashtiruvchi konstruktiv yechimlar qo‘llashni, terlashni kamaytiruvchi va namlikni chiqaruvchi matolardan foydalanishni hamda qo‘ltiq osti sohasida yumshoqroq matodan bo‘lishini taklif qildilar:

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari mavjud tibbiy kiyimlar ayol bemorlarning anatomik va ergonomik ehtiyojlariga to‘liq mos kelmasligini ko‘rsatdi. Ayniqsa qo‘ltiq osti sohasidagi qattiq konstruksiya hamda mato sifati bemorlar uchun asosiy noqulaylik manbai hisoblanadi.

So‘rov natijalari asosida sternotomiya jarrohligi reabilitatsiyasi uchun mo‘ljallangan tibbiy kiyimlarni loyihalashda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish zarurligi aniqlandi: yuqori nafas oluvchanlikka ega to‘qimachilik materiallaridan foydalanish, ergonomik va anatomik jihatdan mos konstruksiya yaratish, kiyimni oson kiyib-yechish imkoniyatini ta’minlash, bemorning harakatiga to‘sqinlik qilmaydigan yumshoq materiallardan foydalanish. Ushbu talablar asosida ishlab chiqiladigan tibbiy kiyimlar bemorlarning reabilitatsiya jarayonini yanada samarali tashkil etish va ularning kundalik hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Statistika Qo‘mitasi 2024 yil o‘lim ko‘rsatkichi. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2
2. Selten, K., Schnoering, H., Zayat, R., Aljalloud, A., Moza, A., Autschbach, R., & Tewarie, L. (2021). Prevention of Sternal Wound Infections in Women Using an External Sternum Fixation Corset. *Annals of thoracic and cardiovascular surgery: official journal of the Association of Thoracic and Cardiovascular Surgeons of Asia*, *27*(1), 25–31. https://doi.org/10.5761/atcs.oa.19-00293
3. Bolling, K., Long, T., Jennings, C. D., Dane, F. C., & Carter, K. F. (2021). Bras for Breast Support After Sternotomy: Patient Satisfaction and Wear Compliance. *American journal of critical care: an official publication, American Association of Critical-Care Nurses*, *30*(1), 21–26. https://doi.org/10.4037/ajcc2021687

MAHALLIY PAXTA IPlARIDAN TAYYORLANGAN NAQSHLI KOSTYUMBOP TO‘QIMALAR SIFATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA STRUKTURAVIY TAHLILI

Xaydarova Mashxura Qurbonali qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Maqolada ayollar kostyumi uchun mo‘ljallangan yangi naqshli to‘qima namunalarining fizik-mexanik va gigiyenik xususiyatlari tadqiq etilgan. Besh xil variantdagi namunalarning havo o‘tkazuvchanligi, namlik shimuvchanligi va mustahkamlik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinib, to‘qima zichligining mato sifatiga ta’siri ilmiy asoslangan.*

Аннотация: *В статье исследованы физико-механические и гигиенические свойства новых образцов узорчатых тканей, предназначенных для женских костюмов. Проведен сравнительный анализ воздухопроницаемости, гигроскопичности и прочностных характеристик пяти вариантов образцов, на основе чего научно обосновано влияние плотности ткани на её качественные показатели.*

Abstract: *The article investigates the physico-mechanical and hygienic properties of new patterned fabric samples designed for women's suits. A comparative analysis of air permeability, moisture absorption, and strength*

indicators of five sample variants was conducted, providing a scientific basis for the influence of fabric density on material quality.

To‘qimachilik sanoatida kastyumbop matolar assortimentini kengaytirish, ayniqsa, mahalliy xomashyo hisobiga tayyor mahsulot tannarxini pasaytirish bugungi kunning strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayollar kostyumi uchun mo‘ljallangan matolar nafaqat yuqori estetik jozibadorlikka, balki inson salomatligi uchun muhim bo‘lgan optimal fizik-gigiyenik xususiyatlarga ham ega bo‘lishi lozim.

Ma’lumki, kostyumbop buyumlar uzoq vaqt davomida tana bilan muloqotda bo‘ladi, bu esa matoning havo o‘tkazuvchanligi va gigroskopiklik ko‘rsatkichlariga alohida talablar qo‘yadi. Agarda mato havo almashinuvini yetarli darajada ta’minlamasa, bu tana mikroiqlimining buzilishiga va kiyish jarayonida noqulayliklarga olib keladi. Tadqiqotimizning dolzarbligi shundaki, biz zamonaviy ITEMA rapirali to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlaridan foydalanib, mahalliy paxta iplaridan naqshli (dobby) to‘qima olish va uning sifat ko‘rsatkichlarini kompleks optimallashtirishni maqsad qildik. Ayniqsa, matoning yuzaviy zichligi va havo o‘tkazuvchanligi o‘rtasidagi oltin muvozanatni topish, 1-variant misolida yuqori gigiyenik samaradorlikka erishish imkonini berdi.

Tadqiqotning amaliy qismi "Quva tekstil" MCHJ bazasida va Namangan muhandislik-texnologiya instituti laboratoriya sharoitida o‘tkazildi. Tajriba obyekti sifatida tarkibi 100% paxta tolasidan iborat bo‘lgan, chiziqli zichligi 20/2 Nm va 16/1 Nm bo‘lgan iplar tanlab olindi. Ushbu iplarning tanlanishi matoning kastyumbop buyumlar uchun zarur bo‘lgan qattiqlik va pishiqlik darajasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. **Strukturaviy loyihalash:** To‘qimalarni ishlab chiqarishda zamonaviy ITEMA rapirali to‘quv dastgohi imkoniyatlaridan foydalanildi. To‘qima zichligining mato xossalariga ta’sirini o‘rganish uchun besh xil variant (I-V) ishlab chiqildi. Bunda arqoq bo‘yicha zichlikni bosqichma-bosqich 180, 200, 222, 240, 260 ip/10 sm gacha oshirish orqali mato strukturasining o‘zgarishi kuzatildi.
2. **Laboratoriya sinovlari:** Har bir variantning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari GOST 3813-72 va GOST 11027-2014 standartlari asosida sinovdan o‘tkazildi. Havo o‘tkazuvchanligi ВПТМ-2 asbobida 8 mm tirqishli bosim farqi metodikasi bilan aniqlandi.

3. **Matematik tahlil:** To‘qima zichligi (P) va havo o‘tkazuvchanligi (V) o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda regression tahlil usuli qo‘llanildi. Bu bizga mato zichligi ortishi bilan strukturaviy teshiklarning qanday geometrik tartibda yopilib borishini modellashtirish imkonini berdi.

Kompleks baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, matoning strukturaviy parametrlari uning fizik xossalarini to‘liq belgilab beradi. Quyidagi jadvalda buni batafsil ko‘rishimiz mumkin:

1-jadval. To‘qima namunalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tahlili

Variantlar	Zichlik (ip/10sm)	Havo o‘tkazuvchanligi (sm3/sm2·s)	Uzilish kuchi (Tanda), N	Qalinligi (mm)	Namlik shimish (%/s)
I-namuna	180	479	684.0	0.415	41.97
II-namuna	200	453	576.1	0.643	495.4
III-namuna	220	430	734.0	0.674	0.00
IV-namuna	240	403	870.2	0.686	0.00
V-namuna	260	375	938.2	0.708	33.40

Havo o‘tkazuvchanligi va mikroiqlim: Tajriba natijalariga ko‘ra, I-namunada havo o‘tkazuvchanligi eng yuqori ko‘rsatkichni (479$sm^3/sm^2 \ s) qayd etdi. Bu matoning nisbatan siyrakroq ekanligi va tolalararo masofaning kengligi bilan bog‘liq. Zichlik 260 gacha ortganida esa (V-namuna), ko‘rsatkich 375 gacha tushib ketdi. Bu shuni anglatadiki, mato qanchalik zich bo‘lsa, havo qarshiligi shunchalik ortadi. Kastyumbop matolar uchun oralig‘idagi ko‘rsatkich (I va II variantlar) eng optimal balans hisoblanadi.

Namlikni shimish va kapillyarlik: Eng qiziqarli natija II-namunada kuzatildi (495.4 %/s). Bu namuna kapillyar so‘rilish tezligi bo‘yicha mutlaq yetakchi bo‘ldi. Nega aynan II-namuna? Chunki bu variantda ipning buralishi va to‘quv o‘rilishi o‘zaro shunday geometrik nisbatda bo‘lganki, ular namlikni o‘ziga tez so‘rib oladigan "mikro-kanallar" hosil qilgan. III va IV namunalarda esa zichlikning haddan tashqari yuqoriligi bu kanallarni "siqib" qo‘ygan, natijada namlik shimish keskin kamaygan.

Mexanik mustahkamlik: Uzilish kuchi bo‘yicha V-namuna eng yuqori natijani ko‘rsatdi (938.2 N). Bu tabiiy hol, chunki 10 sm maydondagi iplar soni ko‘p bo‘lishi kuchning taqsimlanishini yaxshilaydi. Biroq, kastyumbop mato uchun faqat mustahkamlik emas, balki qaytar deformatsiya (shaklini saqlashi) muhimroq. Tadqiqotimizdagi barcha namunalarda qaytar deformatsiya 80\% dan yuqori bo‘ldi, bu kiyimning tirsak va tizza qismlarida cho‘zilib qolmasligini kafolatlaydi.



1-rasm. Ayollar kostyumi uchun naqishli yangi to‘qimalarni fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini kompleks baholash

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan kompleks tadqiqotlar va fizik-mexanik sinovlar natijasida quyidagi yakuniy xulosalarga keldik:

1. **Eng maqbul variant:** Barcha olingan namunalar ichida 1-variant kastyumbop matolar uchun qo‘yiladigan gigiyenik talablarga eng yuqori darajada javob beradi. Uning havo o‘tkazuvchanligi (479 $cm^3/cm^2\backslash s$) qolgan namunalardan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, bu ayollar kostyumini kiyish jarayonida tana haroratining mo‘tadilligini ta’minlaydi.
2. **Strukturaviy tahlil:** 1-variantning yuza zichligi (180 g/m^2) va qalinligi (0.415 mm) matoga o‘ziga xos yengillik va yumshoqlik baxsh etadi. Bu esa kiyimning nafaqat chidamli, balki estetik jihatdan nafis ko‘rinishini kafolatlaydi.
3. **Iqtisodiy samaradorlik:** ITEMA rapirali to‘quv mashinalarida 1-variant texnologiyasi bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, xomashyo sarfini optimallashtirish hisobiga tannarxni sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. П.С.Сиддиқов.Оптимизация технологических процессов и параметров при изготовлении национальных авровых тканей//автореф.д.т.н. Ташкент, 2017 г, 39
2. У.Т.Абдуллаев. Мураккаб тўқималар асосида янги таркибли матолар ишлаб чиқариш технологиясининг тадқиқоти//автореф.дис.техника фанлари номзоди. – Тошкент, ТТЕСИ, 2007 й. - 12 б.
3. М.А.Сайфиева.Тўқув усулида бадиий безаш асосида янги таркибли газламалар яратиш//дисс. т.ф.н., Тошкент, 2009 й, 25,100-б.
4. М.А.Сайфиева. “Бўйлама ва кўндаланг йўл-йўл бўртма нақшли тўқималарнинг қиёсий тадқиқоти”//Тўқимачилик муаммолари №3/2007, 47-б.
5. М.А.Сайфиева, Э.Ш.Алимбаев, У.Т.Абдуллаев. “Бош ва мураккаб тўқималар ўрилиши асосида бўртма нақшли газламалар ишлаб чиқаришга оид”//Тўқимачилик муаммолари №3/2007, 55-б.
6. У.Б.Ражапова, С.М.Исроилова. Турли толалар аралашмасидан олинган костюмбоп матоларнинг физик-механик хоссаларининг тадқиқоти // “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами (2-қисм), 29-30 ноябр, 2013 й, 119-121 б.
7. У.Б.Ражапова. Костюмбоп матоларнинг ҳаво ўтказувчанлиги ва ғижимланмаслигига турли толалар аралашмасининг таъсири // “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами, 29-30 ноябр, 2013 й, 121-123 б.
8. У.Б.Ражапова, Ш.Маҳкамова, Х.И.Ёдгорова. Костюмбоп газламаларнинг сифат кўрсаткичларига толалар аралашмасининг таъсири // “Фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашуви шароитида инновацион технологияларнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами (2-қисм), 20 ноябр, 2014й, 45-49 б.

ANTIBAKTERIAL MATERIALLAR ASOSIDA ERKAKLAR UCHUN ZAMONAVIY SPORT KOSTYUMINI ISHLAB CHIQISH

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Prof. Kasimova Aziza
Magistr: Yoqubjonova O‘lmasxon

Annotatsiya *Mazkur ishda TiO_2 nanozarrachalari bilan modifikatsiyalangan tekstil materiallari asosida erkaklar uchun zamonaviy sport kostyumini ishlab chiqishning nazariy va texnologik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot adabiyotlar sharhi, ilmiy manbalar tahlili hamda uy sharoitida o‘tkazilgan dastlabki kuzatuv tajribalari asosida olib borildi. Ishning asosiy gipotezasiga ko‘ra, TiO_2 nanozarrachalari bilan ishlov berilgan matolar sport kiyimlarining gigiyenik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, mikroorganizmlar rivojlanishini kamaytiradi hamda mahsulot xizmat muddatini uzaytiradi. Taklif etilayotgan texnologik yechimlar to‘qimachilik korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini qo‘llash imkonini beradi.*

Аннотация. *В данной работе рассмотрены теоретические и технологические основы разработки современного мужского спортивного костюма на основе текстильных материалов, модифицированных наночастицами TiO_2. Исследование выполнено на основе анализа научной литературы и предварительных наблюдательных экспериментов, проведённых в домашних условиях. В качестве основной гипотезы выдвинуто предположение о том, что модификация тканей наночастицами диоксида титана способствует улучшению гигиенических показателей спортивной одежды, снижению развития микроорганизмов и увеличению срока эксплуатации изделия. Предлагаемые технологические решения ориентированы на внедрение принципов «зелёной экономики», автоматизацию производственных процессов и использование цифровых систем управления в предприятиях текстильной и лёгкой промышленности.*

Abstract. *This study examines the theoretical and technological foundations for developing a modern men's sports suit based on textile materials modified with TiO_2 nanoparticles. The research is conducted through a review of scientific literature and preliminary observational experiments carried out under home conditions. The main hypothesis suggests that TiO_2 nanoparticle modification improves the hygienic properties of sportswear, reduces microbial growth, and extends the service life of the product. The proposed technological solutions are aimed at implementing green economy principles, production automation, and digital management systems in textile and light industry enterprises.*

Dizayn asosida yengil sanoat va matbaa mahsulotlari yangi assortiment turlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish 2-sho‘ba yo‘nalishining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Sport kiyimlari segmentida esa gigiyenik xavfsizlik, nafas oluvchanlik va funksionallik ustuvor talablar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ilmiy manbalarga ko‘ra, jismoniy faollik jarayonida ajraladigan namlik va issiqlik mikroorganizmlar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi [1]. Shu sababli antibakterial modifikatsiyalangan tekstil materiallari sport kiyimlari ishlab chiqarishda istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda [2].

Tadqiqot gipotezasi va metodologiyasi

Mazkur ish eksperimental bosqichga o‘tmagan bo‘lib, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida quyidagi gipoteza ilgari surildi:

TiO_2 nanozarrachalari bilan modifikatsiyalangan matolar:

- Bakteriyalar rivojlanishini sezilarli kamaytiradi;
- Hid hosil bo‘lishini sekinlashtiradi;
- Matoning gigiyenik barqarorligini oshiradi;
- Tez-tez yuvish zaruratini kamaytiradi;
- Suv va energiya sarfini qisqartirish orqali ekologik samaradorlikni ta’minlaydi.

Uy sharoitida o‘tkazilgan dastlabki kuzatuvlar mato yuzasining namlikni ushlab turish xususiyati va qurish tezligiga oid baholash bilan cheklangan. To‘liq laboratoriya sinovlari keyingi bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

TiO_2 nanozarrachalarining ilmiy asoslari

Titan dioksidi (TiO_2) fotokatalitik xususiyatga ega bo‘lib, ultrabinafsha nurlar ta’sirida faol radikallar hosil qiladi va bakterial hujayra devorlarini parchalaydi [3]. So‘nggi yillarda TiO_2 asosidagi nano-qoplamalar tekstil materiallarida 99 % gacha antibakterial samaradorlik ko‘rsatgani aniqlangan [4].

Zamonaviy tadqiqotlar TiO_2 bilan ishlov berilgan polyester va aralash tolali matolarda antibakterial va UV-himoya xususiyatlari sezilarli oshishini ko‘rsatmoqda [5]. Bu esa sport kiyimlari uchun muhim afzallik hisoblanadi.

TiO_2 modifikatsiyasini sanoat miqyosida joriy etish quyidagi texnologik bosqichlarni talab qiladi:

Sol-gel impregnatsiya usuli – nanozarrachalarni matoga bir tekis joylashtirish [6];

Avtomatlashtirilgan qoplama liniyalari – sifat barqarorligini ta’minlash;

Raqamli monitoring tizimlari – xomashyo va energiya sarfini nazorat qilish;

Sun’iy intellekt asosida sifat nazorati – defektlarni aniqlash va optimallashtirish.

Mazkur yondashuv ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytiradi, suv va energiya tejamkorligini ta’minlaydi hamda korxonani yashil iqtisodiyot modeliga o‘tkazishga xizmat qiladi.

Sport kostyumiga qo‘yiladigan talablar

Taklif etilayotgan model quyidagi ko‘rsatkichlarga javob berishi lozim:

Nafas oluvchanlik: ≥ 200–500 mm/s
Gigroskopiklik va tez qurish xususiyati
Elastiklik va harakat ergonomikasi
Antibakterial himoya darajasi: ≥ 99 %
Ekologik xavfsizlik

Ushbu talablar sport kiyimlarining funksional va gigiyenik sifatini belgilaydi.

Xulosa

Adabiyotlar tahlili asosida TiO_2 nanozarrachalari bilan modifikatsiyalangan tekstil materiallari erkaklar uchun zamonaviy sport kostyumini ishlab chiqishda istiqbolli yo‘nalish ekanligi aniqlandi.

Taklif etilayotgan texnologik model ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash imkonini beradi.

Keyingi bosqichda laboratoriya sharoitida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Chen X., Mao S.S. Titanium dioxide nanomaterials: Synthesis, properties and applications // Progress in Materials Science. – 2019. – Vol. 107. – P. 100–150.
2.Clarke D. High-Performance Sportswear Materials. – Cambridge: Woodhead Publishing, 2022. – 380 p.
3.Fujishima A., Zhang X., Tryk D.A. TiO_2 photocatalysis and related surface phenomena // Surface Science Reports. – 2008. – Vol. 63, № 12. – P. 515–582.
4.Rabbi M.B.U. et al. Enhancing the antimicrobial and UV resistance properties of fabric through Ag/TiO_2 nanocomposite // ACS Omega. – 2025. – Vol. 10. – P. 7697–7710.
5.Khan M.Z. et al. Surface engineering of PET fabrics with TiO_2 nanoparticles // Textiles. – 2025. – Vol. 5, № 4.
6.Brinker C.J., Scherer G.W. Sol-Gel Science: The Physics and Chemistry of Sol-Gel Processing. – San Diego: Academic Press, 2013. – 912 p.

SMART MATOLAR ASOSIDA KELAJAK KIYIMLARINI ISHLAB CHIQISH

Assistent (PhD) Z.U. Zufarova
Katta o‘qituvchi N.M.Mirfayazova
talaba Sh.B. Hasanova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institute

Annotatsiya. *Mazkur ishda smart (aqlli) tekstil materiallari asosida kelajak kiyimlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar sharhi, zamonaviy texnologik yondashuvlar va funksional matolar tahlili asosida olib borildi. Ishning asosiy gipotezasiga ko‘ra, smart*

matolar asosida yaratilgan kiyimlar inson tana holatiga moslashish, gigiyenik xavfsizlikni oshirish va kiyimning funksionalligini yaxshilash imkonini beradi.

Аннотация. *В данной работе рассмотрены теоретические и практические основы разработки одежды будущего на основе интеллектуальных (smart) текстильных материалов. Исследование выполнено на основе анализа научной литературы и современных технологических подходов к функциональным тканям. Основная гипотеза заключается в том, что smart-ткани способны адаптироваться к условиям окружающей среды и состоянию человека, повышая гигиенические и функциональные характеристики одежды.*

Abstract. *This study examines the theoretical and practical foundations for developing future clothing based on smart textile materials. The research is conducted through analysis of scientific literature and modern approaches to functional fabrics. The main hypothesis suggests that smart textiles can adapt to environmental and human body conditions, improving hygiene and functionality of clothing.*

Yengil sanoat va moda dizayni sohasida so‘nggi yillarda smart matolar (aqlli tekstil materiallari) jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu materiallar oddiy matolardan farqli ravishda tashqi muhitga yoki inson organizmiga javob bera oladi. Smart matolar harorat, namlik, bosim yoki yorug‘lik kabi omillarga moslashish xususiyatiga ega bo‘lib, kiyimlarning funksionalligini sezilarli darajada oshiradi [1, 2].

Zamonaviy jamiyatda kiyimdan faqat estetik emas, balki gigiyenik, himoya va qulaylik funksiyalari ham talab qilinmoqda. Shu sababli smart matolar kelajak kiyimlari dizaynining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [3].

Smart matolar bir nechta asosiy guruhlarga bo‘linadi:



Ilmiy manbalarga ko‘ra, smart matolar nanotexnologiya, elektronika va materialshunoslik fanlarining integratsiyasi natijasida yaratiladi. Ushbu matolar tarkibiga maxsus tolalar, sensorlar va funksional qoplamalar kiritiladi.

So‘nggi tadqiqotlar smart matolar sport kiyimlarida chidamlilik va gigiyenik xususiyatlarni sezilarli oshirishini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, ular tibbiyot sohasida bemor holatini kuzatishda ham qo‘llanilmoqda. Smart matolar asosida yaratilgan kiyimlar quyidagi afzalliklarga ega:

- tana haroratini muvozanatlash-smart matolar ichidagi termoregulyatsion materiallar issiqlikni yutish yoki chiqarish orqali tana haroratini barqaror ushlab turadi.
- terlashni kamaytirish-matoning namlikni o’tkazuvchi tuzilishi terini tez quritadi. Bu kapillyar effect orqali namlikni tashqi qatlamga chiqarish bilan amalga oshadi.
- bakteriyalarga qarshi himoya- matoga qo’shilgan kumush, rux oksidi nanozarrachalar bakteriyalarning ko’payishini to’xtatadi.
- harakat erkinligini oshirish-elastik tolalar va 3D to’qosh texnologiyasi kiyimni tanaga moslashuvchan qiladi. Natijada kiyim harakatni to’xtatmaydi.
- kiyimning xizmat muddatini uzaytirish-smart matolar kiyimning uzoqt vaqt davomida sifatini saqlab qolishiga yordam beradi. Bu ularning tarkibi va maxsus himoya xususiyatlari bilan bog’liq. Antibakterial va mustahkam tolalar kiyimni yemirilish, rang o’zgarishidan va mexanik shikastlanishdan himoya qiladi [4, 5].

Bu xususiyatlar sportchilar va faol hayot tarziga ega insonlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, smart matolar kelajak kiyimlari dizaynida muhim o‘rin egallaydi. Ular nafaqat kiyimning estetik ko‘rinishini, balki uning funksional va gigiyenik xususiyatlarini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kelgusida smart matolar asosida yaratilgan kiyimlar yengil sanoatning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J. Smart Textiles and Wearable Technology. 2023.
2. Brown A. Functional Fabrics in Modern Fashion. 2022.
3. Stoppa M., Chiolerio A. Wearable Electronics and Smart Textiles. 2014.
4. Cherenack K., van Pieterson L. Smart textiles: challenges and opportunities. 2012.
5. Textile Research Journal, Functional Clothing Studies, 2020–2025.

GAZLAMA+POLIMER KOMPOZITSIYANING KOSTYUMLIK GAZLAMALARINING CHO‘ZILISHDAGI UZILISH KUCHIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH

PhD, N.M.Artikbayeva,
t.f.d.prof.M.K.Rasulova,
talaba. N.A.Musurmonova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Maqolada polimer kompozitsiyasini to’qimachilik gazlamarining mexanik xususiyatlariga ta’siri tadqiqi tahlil qilingan. Gazlamalarning cho’zolishdagi uzilish kuchidgi o’garishlari bo’yicha tajriba natijalari keltirilgan.*

Аннотация: *В статье анализируется исследование влияния состава полимеров на механические свойства текстильных тканей. Представлены экспериментальные результаты по изменению прочности тканей на разрыв.*

Abstract: *This article analyzes the influence of polymer composition on the mechanical properties of textile fabrics. Experimental results on changes in fabric tensile strength are presented.*

Hozirgi kunda yengil sanoat buyumlarini ishlab chiqarish borasida tikuvchilik buyumlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Tikuv buyumlarining sifati bugungi kundagi turli xil kiyim ishlab chiqaruvchilari orasidagi raqobat darajasida ham ichki bozor, ham tashqi bozorda dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarilishi yuqori darajadagi mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish bilan bog’liq bo‘lib, bunda tayyorlashning yanada unifikasiyalashtirilgan texnologiyasidan foydalaniladi.

Zamonaviy kiyim assortimenti shaklini kam o‘zgaruvchanligi va iste’molchi talablariga bog’liq ravishda o‘zining yetarli darajada barqarorligi bilan ajralib turadi.

Ayollar qomatida shakl hosil qilish erkaklar qomatidan tubdan farq qiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki [1-2], ayol mijozlar uchun erkak mijozlarga nisbatan moda industriyasida yangi modellar soni ko‘proq ishlab chiqarilishi aniqlandi. Ayollar kiyimlarida murakkab fazoviy shakldagi detallar mavjudligi, bu kiyim detallarida zarur shakllarni hosil qilish va kiyim ekspluatatsiya davrida shaklbarqarorlikni saqlashini talab etadi. Shu sabab maqolada ayollar kostyumida shakl hosil qilish, shaklbarqarorlik xususiyatlari o‘rganildi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sifatli buyumlar uchun gazlamalarning plastik xususiyatlarini unchalik kamaytirmasdan uning alohida uchastkalarini shakl saqlovchanligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Tikuv buyumlariga ishlov berganda tikuvchilik matosiga ta’sir etadigan kuchlar odatda uzish yukini 1-2 % tashkil qiladi, uzayish esa 2-5 % bo‘ladi. Inson qomatida kiyim kiyilgan vaqtda eng ko‘p xarakat qiluvchi tana a’zosi qo‘l xisoblanadi. Shu sabab Y.S.Shustov ma’lumotlariga ko‘ra, eng katta uzayish yenglarning tirsak joyida bo‘ladi va u 5 % dan ortmaydi [3-4]. L.N.Pankova ma’lumotlari bo‘yicha o‘miz chokini o‘rta va pastki qismida mato eng katta kuchlarga duch keladi. Qo‘l xarakatining ko‘pligi sabab B.A.Buzov ma’lumotlariga ko‘ra [5-6] matoni eng ko‘p uzayishi ham o‘miz chokini o‘rta va pastki qismida namoyon bo‘ladi. Ko‘krakka nisbatan yuqori va pastki joylarda matoni cho‘zilishi ancha kam bo‘ladi. Undan tashqari deformatsiyani qiymati kiyim o‘lchami odam gavda o‘lchamlariga to‘g’ri kelishiga bog’liq bo‘ladi.

Tajriba davomida to‘qimachilik gazlamalarining mustahkamligini aniqlash maqsadida to‘qimachilik gazlamalarining cho‘zilishdagi uzilish kuchi taqiqoti o‘tkazildi. Tajribalar AUTOGRAPH AG-I qurilmasida sinov davomida o‘tkazildi. Tajribaviy tadqiqotlarda mavjud to‘qimachilik gazlama namunalari va tavsiya etilayotgan to‘qimachilik gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarning uzish kuchi aniqlandi [7].

Olingan natija qiymatlari 1-jadvalga kiritildi.

1-jadval

To‘qimachilik gazlama, gazlama+polimer kompozitsiya uzilish kuchi va uzilishdagi uzayish bo‘yicha tadqiqot natijalari ma’lumoti

№	Gazlama turi	Gazlama				Gazlama+ polimer kompozitsiya			
		Uzilish kuchi, N		Uzilishdagi uzayish, %		Uzilish kuchi, N		Uzilishdagi uzayish, %	
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq
1	Namuna-1	468	294	14	24	526	281	13	18
2	Namuna-2	836	841	10	10	1001	-	24	-
3	Namuna-3	388	294	14	18	401	306	11	17
4	Namuna-4	710	712	12	13	991	727	14	15
5	Namuna-5	286	285	11	12	305	399	13	14
6	Namuna-6	382	290	13	16	397	301	11	15
7	Namuna-7	277	287	11	12	299	382	13	14
8	Namuna-8	701	699	12	13	971	712	14	14
9	Namuna-9	282	190	13	14	291	256	11	13
10	Namuna-10	434	388	12	13	412	389	11	12
11	Namuna-11	742	733	14	15	997	735	15	16

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘qimachilik gazlama namunalarida uzilish kuchi tanda bo‘yicha 282-836 N gacha, arqoq bo‘yicha esa 190-841 N gacha, uzilish kuchi 6.2% dan 16.4% oshgani ma’lum bo‘ldi. To‘qimachilik

gazlama+PVA kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarda esa tanda bo‘yicha 291-1001 N gacha, arqoq bo‘yicha esa 281-735 N gacha o‘zgarib 4.4% dan 13.5% oshganini ko‘rish mumkin [1,8].

Uzilishdagi uzayish ko‘rsatkichlari to‘qimachilik gazlamalarda tanda bo‘yicha 11-15 % gacha, arqoq bo‘yicha esa 10-24% gacha ekani ko‘rsatdi, uzilish kuchi 6.2% dan 16.4% ekani ma’lum bo‘ldi. To‘qimachilik gazlama+ PVA kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarda esa tanda bo‘yicha 11-24% gacha, arqoq bo‘yicha esa 12-18% gacha o‘zgarib 28.5% dan 30% oshganini ko‘rsatdi
(1-jadval).

Jadvaldagi 2-namuna arqoq bo‘yicha uzilmagani, gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilganda ham namuna uzilmagani ma’lum bo‘ldi.

Kiyim detallarining mustahkamligi ortsa kiyim detallarida shakl hosil bo‘lish va shaklbarqarorlik xususiyati ortadi. Maqolada kiyim detallari shaklbarqarorligiga erishish maqsadida mavjud ishlov berish texnologiyasi o‘rni yangi ishlov berish kiyim detallarida polimer kompozitsiyani qo‘llash texnologiyasi taklif qilindi. Tajribaviy tadqiqotlar natijalari gazlama+polimer kompozitsiyani tikuv buyumlarida qo‘llash namunaning mustahkamigi ortishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shaklbarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.
2.Артикбаева Н.М., Расулова М.К., Шин И.Г. Влияние складкообразования на формоустойчивость тканевой оболочки, пропитанной полимерной композицией // УЗМУ хабарлари, 2024 йил, Б 348-352.
3.Н.М.Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха //Иванова2019 г. № 5 (383) 2019.-С181-186.
4.Комарова А.А., Веселов В.В. Использование современных химических препаратов для формоустойчивой обработки швейных изделий // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2009.-№1(313).- С.89-9.
5.Корнилова Н.Л., Горелова А.Е. К вопросу учета формовочных свойств материалов при проектировании одежды // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2007.-№ 6с (304).-С.86-88.
6.Жерницын Ю.Л., Гуламов А.Э.. Методическое указание по выполнению научно-исследовательских и лабораторных работ по испытанию продукции текстильного назначения. Ташкент 2007 г.
7.Artikbayeva N.M., Axmedov B.B., Rasulova M.K., Musurmonova N.A, Polimer kompozisiyalar bilan ishlov berishni kostyumbop gazlamalar shakl

saqlovchanligi va shaklbarqarorligiga ta’sirini tadqiq qilish // Development of science, fevral 2025/3, 111-115 b.
8.Ташпулатов С.Ш., Артикбаева Н.М., Шин И.Г., Джураев А.Д., Черунова И.В., Плеханов А.Ф. Устройство для объемного формования деталей одежды. Патент RU №2720837 C1 13.05.2020.

QURILISH-PARDOZLASH ISHLARI USTALARI MAXSUS KIYIMLARI KONSTRUKSIYASINI ERGONOMIK TALABLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Magistr K.Vasiyeva, PhD, dotsent D.X.Isayeva,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada qurilish-pardozlash ishlari ustalari uchun zamonaviy ish kiyimlarini loyihalash masalalari ergonomikaga alohida urg‘u bergan holda ko‘rib chiqiladi. Unda mehnat sharoitlari va ish jarayonlari biomexanikasi tahlil qilingan. Shuningdek, qulaylikni oshirish, charchoqni kamaytirish hamda kasbiy xavflardan himoya qilishga qaratilgan konstruktiv yechimlar taklif etilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mehnat unumdorligining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы проектирования современной одежды для мастеров строительно-отделочных работ с упором на эргономику. Проведен анализ условий труда и биомеханики механизмов труда. Предложены конструктивные решения, направленные на повышение комфорта, снижение утомляемости и защиту от профессиональных рисков, что обеспечит высокий уровень производительности труда.*

Abstract. *This article examines the design of modern workwear for construction and finishing trade workers, with a focus on ergonomics. It includes an analysis of working conditions and the biomechanics of work-related movements. The article proposes design solutions aimed at increasing comfort, reducing fatigue, and protecting against occupational hazards, which will ensure a high level of productivity.*

Zamonaviy qurilish sohasida ish samaradorligi bevosita ustaning mehnat sharoitlariga bog‘liq. Maxsus kiyim — qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi omillardan biridir. Maxsus kiyimlarni loyihalashga doir tizimli yondashuvga ko‘ra, u “inson – ishlab chiqarish muhiti” tizimi bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi himoya qobig‘i sifatida qaralishi kerak [1]. Quruvchilar uchun an’anaviy ish kiyimlari ko‘pincha soha ichidagi mutaxassisning o‘ziga xos jihatlarini chuqur hisobga olmay, o‘rtacha andazalar asosida loyihalanadi. Bu esa harakatlar cheklanishiga va tana harorati almashinuvining buzilishiga olib keladi. Shu bilan

birga, mehnatni muhofaza qilishning me’yoriy talablariga ko‘ra, kiyim nafaqat umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlaridan himoyalangan bo‘lishi, balki qat’iy ergonomik ko‘rsatkichlarga ham javob berishi lozim [2]. Shu sababli pardozchi ustalar (suvoqchi, bo‘yoqchi, kafelchi) uchun maxsus kiyim konstruksiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ergonomik kiyimlarni loyihalash antropometrik ma’lumotlarga va foydalanuvchi harakatlarining biokinematik sxemasi tahliliga asoslanadi [3]. Pardozchi usta mehnati o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Yuqori dinamik va statik yuklamalar: Ish ko‘pincha majburiy holatlarda (cho‘kkalab, tizzalab, qo‘llarni yuqoriga ko‘targan holda) bajariladi. Qo‘llar 90 darajadan yuqoriga ko‘tarilganda, odatiy kiyim konstruksiyasi siljiydi (kurtka yuqoriga tortiladi), bu esa bel qismini ochib qo‘yadi.

Noqulay omillarning ta’siri: mayda dispersli chang, qurilish aralashmalari va harorat o‘zgarishlarining mavjudligi kiyim ostidagi bo‘shliqda normal mikroiqlimni ta’minlash uchun materiallar to‘plamini tanlashga alohida e’tibor talab qiladi [4].

Asboblarni olib yurish zaruriyati: Ishchi mayda qo‘l asboblari va o‘lchash anjomlaridan doimiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, ularning og‘irligini esa tana yuzasi bo‘ylab taqsimlash lozim.

Pardozlash ishlarida foydalaniladigan kiyimlarga bir qator ergonomik talablar qo‘yiladi. Tahlil shartlaridan kelib chiqib, pardozlovchining maxsus kiyimiga quyidagi ergonomik talablar qo‘yiladi:

Antropometrik muvofiqlik: Kiyim konstruksiyasi harakatdagi tana o‘lchamlarining o‘zgarishiga mos kelishi kerak (dinamikada erkin turishi uchun qo‘shimchalar). Masalan, o‘tirgan holatda yoy uzunligi va qadam choki uzunligi sezilarli darajada oshadi [3].

Gigiyeniklik: Yuqori jismoniy faollik vaqtida tananing qizib ketishidan himoya qilish uchun havo o‘tkazuvchanligini va namlikni chiqarib yuborishni ta’minlashi kerak.

Harakat erkinligi: Bo‘g‘im bukiladigan joylarda qon tomirlari va nerv tugunlariga bosim bo‘lmasligi lozim.

Chiroyli tashqi ko‘rinish bilan uyg‘unlik

Yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilish uchun och rangli maxsus kiyimlarga (kostyumlar va yarim kombinezonlarga) quyidagi yechimlarni joriy etish zarur: 1. Artikulyatsiyali bichim va elastik qo‘shimchalar. Harakat erkinligini ta’minlash uchun 3D-loyihalashdan foydalanib, qattiq va yassi andazalardan voz kechish kerak.

Tizza va tirsak zonalari: Bo‘g‘imlarning yarim bukilgan holatini takrorlaydigan anatomik vitochkalarni joriy qilish lozim.

Cho‘ziluvchan panellar: Bel, qadam choki va qo‘ltiq osti sohalarida elastik materiallardan (masalan, spandeks qo‘shilgan aralash matolardan) foydalanish. Bu keskin harakatlar va cho‘kkalash paytida matoning tortilishini ta’minlaydi.

Zaif zonalarni (tizza bo‘g‘imlarini) himoyalash. Kafel teruvchilar va suvoqchilar ish vaqtining sezilarli qismini tizzalariga tayanib o‘tkazganliklari sababli, shimlar amortizatsiya qiluvchi qo‘shimchalar uchun cho‘ntaklar bilan jihozlanishi kerak. Ushbu qismlarning konstruksiyasi tizzalab ishlaganda tizza bo‘g‘imlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalarga mos bo‘lishi lozim [5]. Cho‘ntaklarni yuqori mustahkamlikka ega poliamid matolardan (masalan, Cordura turidan) tayyorlash tavsiya etiladi.

Saqlash tizimini optimallashtirish.

Osma cho‘ntaklar: An’anaviy qoplama cho‘ntaklar o‘rniga ko‘p bo‘lmali g‘ilof-cho‘ntaklardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘tirganda ular vertikal holatini saqlab qoladi, bu esa mahkamlagichlarning tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi va asbobni sonning yumshoq to‘qimalariga bosib turadi.

Cho‘ntaklarning joylashuvi qo‘l harakati maydonining yetish zonasini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi kerak.

Mikroiqlimni tartibga solish va belni himoya qilish.

Shamollatish klapanlari: Faol ter ajraladigan zonalarda (orqa koketka, qo‘ltiq osti) havo almashinuvini kuchaytirish uchun trikotaj to‘rli klapanlar nazarda tutilishi lozim [4].

Kurtkaning uzaytirilgan ort bo‘lagi: egilganda gavda uzunligining o‘zgarishini qoplaydi, belni qurilish maydonchasidagi haddan tashqari sovqotishdan va yelvizaklardan himoya qiladi.

Qurilish-pardozlash ishlari ustalari uchun sifatli kiyimlarni ergonomik talablar asosida takomillashtirish xodimlarning salomatligi va ish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy asoslangan jarayondir. Artikulli bichim, elastik qo‘shimchalardan foydalanish, bo‘g‘imlarni himoya qilish tizimlari va ergonomik cho‘ntaklarni integratsiyalash kabi o‘zgartirishlarni joriy etish yangi avlod maxsus kiyimlarini yaratishga imkon beradi. Bunday yondashuv nafaqat tayanch-harakat apparati kasbiy kasalliklari xavfini kamaytiradi, balki toliqishni pasaytirish hisobiga umumiy mehnat unumdorligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Романов В. Е. Системный подход к проектированию чистой одежды. — М.: Легпромбытиздат, 1991. — 128 с. (Фундаментальный труд по принципам создания спецодежды).

2. ГОСТ 12.4.280-2014. Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Одежда, специальная для защиты от производственных

загрязнений и механических воздействий. Общие технические требования. — М.: Стандартинформ, 2015.

3. Коблякова Е. Б., Ивлева Г. С. и др. Конструирование одежды с элементами САПР: Учебник для вузов / Под ред. Е. Б. Кобляковой. — М.: Легпромбытиздат, 1988. — 464 с. (Базовый учебник по антропометрии и динамике движений при проектировании одежды).

4. Сурженко Е. Я. Теоретические основы и методологическое обеспечение эргономического проектирования одежды: дис. ... доктор технических наук. — СПб.: СПГУТД, 2001. — 380 с.

5. ГОСТ EN 14404-2013. Защита коленного сустава в положении стоя на коленях.

TURLI QOMAT TIPIDAGI AYOLLAR UCHUN ERGONOMIK KONSTRUKSIYA YARATISH

“Moda va dizayn” kafedrasi professori, Phd X.M.Yunusxojayeva
“Dizayn” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti I.I.Abdug‘aniyeva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik talablar asosida kiyim konstruksiyasini yaratish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ayollar qomatining antropometrik xususiyatlari, tana proporsiyalari, harakat erkinligi hamda qulaylik darajasi tahlil qilindi. Turli qomat shakllariga mos konstruktiv yechimlar ishlab chiqilib, konstruksiya jarayonida amaliy modellashtirish usullari qo‘llanildi. Natijalar ergonomik konstruksiya kiyimning funksional sifati, estetik ko‘rinishi va konstruktiv mukammalligini oshirishini ko‘rsatdi.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматриваются вопросы создания конструкции одежды для женщин с различными типами фигуры на основе эргономических требований. В ходе исследования были изучены антропометрические особенности женской фигуры, пропорции тела, свобода движений и уровень комфорта. Были разработаны конструктивные решения, адаптированные к различным типам фигуры, с применением практического моделирования. Результаты показали, что эргономичная конструкция повышает функциональность, эстетичность и конструктивное совершенство одежды.*

Annotation. *This study examines the development of clothing construction for women with different body types based on ergonomic requirements. The study analyzed anthropometric characteristics, body proportions, freedom of movement, and comfort levels of women. Constructive solutions adapted to*

various body shapes were developed using practical modeling methods. The results demonstrated that ergonomic construction significantly improves clothing functionality, aesthetic appearance, and structural perfection.

Bugungi kunda kiyim dizayni va konstruksiyasida ergonomik yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zamonaviy moda sanoatida ayollar uchun yaratilayotgan kiyimlar nafaqat estetik talablarni, balki foydalanuvchining individual anatomik va fiziologik xususiyatlarini ham qondirishi zarur. Ayollar orasida qomat shakllarining xilma-xilligi standart konstruksiyalarni har doim ham samarali qilmaydi. Natijada kiyimning tana bilan mosligi, harakat qulayligi va foydalanish sifati pasayadi. Shu sababli turli qomat tiplariga mos ergonomik konstruksiya yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ergonomik konstruksiya tana proporsiyalarini chuqur o‘rganish, individual o‘lchamlarni hisobga olish va funksional qulaylikni ta’minlash orqali kiyim sifatini oshiradi [1].

Tadqiqot davomida turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik konstruksiya yaratish maqsadida keng qamrovli antropometrik va amaliy izlanishlar olib borildi. Avvalo, ayollar qomatlari vizual va antropometrik tahlil asosida to‘rt asosiy guruhga ajratildi: qumsoat, noksimon, to‘g‘ri va doirasimon shakllar. Har bir qomat turining o‘ziga xos anatomik xususiyatlari o‘rganildi. Masalan, qumsoat qomat tipida ko‘krak va bo‘ksa proporsiyasi muvozanatli bo‘lib, bel qismi aniq ajralib turadi. Bunday qomat uchun konstruksiya yaratishda bel chizig‘ining tabiiy shaklini saqlash, vitachkalarni aniq joylashtirish va siluet muvozanatini ta’minlash muhim hisoblanadi. Noksimon qomat tipida bo‘ksa qismi kengroq bo‘lgani sababli konstruksiyada pastki qismga qo‘shimcha erkinlik berish, yuqori qismni esa vizual balanslashtirish zarur bo‘ladi. To‘g‘ri qomat tipida tana proporsiyalari nisbatan tekis bo‘lib, konstruktiv chiziqlar yordamida bel shaklini vizual hosil qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Olmasimon qomat tipida esa qorin va bel zonasidagi hajmni inobatga olib, qo‘shimcha erkinlik, qulaylik va proporsional siluet yaratish talab etiladi [2].

Tadqiqot jarayonida bazaviy konstruksiya ishlab chiqilib, har bir qomat turiga mos ravishda ergonomik modellashtirish amalga oshirildi. Dastlab standart baza andozasi tayyorlandi, so‘ngra qomatning individual xususiyatlariga qarab quyidagi konstruktiv o‘zgarishlar kiritildi: ko‘krak vitachkalari qayta joylashtirildi, bel chizig‘i optimallashtirildi, bo‘ksa va son zonasida proporsional kengaytirish qo‘llanildi, yelka nuqtalari anatomik muvozanat asosida moslashtirildi, qo‘ltiq zonasida esa harakat qulayligi uchun qo‘shimcha erkinlik yaratildi.

Amaliy tajriba sifatida turli konstruktiv variantlar qog‘oz andozalar, texnik eskizlar va maketlash usullari yordamida ishlab chiqildi. Har bir model bosqichma-bosqich tahlil qilinib, standart konstruksiya bilan ergonomik konstruksiya o‘zaro taqqoslandi. Maketlash jarayonida kiyimning silueti, tana

bilan mosligi, konstruktiv balans, vitachka joylashuvi va harakat qulayligi asosiy mezonlar sifatida baholandi.

Tajriba davomida quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi:

– Ko‘krak zonasida vitachka va hajm mosligi;
– Bel proporsiyasining individual qomatga mos shakllanishi;
– Bo‘ksa zonasida taranglik yoki ortiqcha kenglikning oldini olish;
– Yelka va qo‘ltiq zonasida anatomik qulaylik yaratish;
– Kiyimning umumiy siluetini estetik muvozanatlashtirish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ergonomik modellashtirish asosida ishlab chiqilgan konstruksiyalar standart bazaga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq bo‘ldi. Kiyimning tana bilan mosligi yaxshilandi, konstruktiv proporsiyalar individuallashtirildi, harakat qulayligi oshdi va estetik ko‘rinish mukammallashdi. Ayniqsa, bo‘ksa, bel va yelka zonalarida kiritilgan ergonomik o‘zgartirishlar kiyimning funksional sifatini oshirdi[3].

Tadqiqot jarayonida material tanlashning ham muhimligi aniqlandi. O‘rtacha elastiklikka ega matolar ergonomik konstruksiya bilan uyg‘unlashganda yuqori natija berdi. Materialning cho‘ziluvchanligi, zichligi va shaklni saqlash xususiyatlari konstruktiv yechim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli ergonomik konstruksiya yaratishda material va konstruksiya o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim omil sifatida baholandi [4].

Shuningdek, konstruktiv modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual qomat tiplariga mos differensial konstruksiya tizimi ommaviy ishlab chiqarishda ham qo‘llanishi mumkin. Bu esa turli iste’molchilar ehtiyojiga mos, sifatli va qulay mahsulotlar yaratish imkonini kengaytiradi.

Ergonomik konstruksiya yaratish jarayoni nafaqat kiyimning tashqi ko‘rinishini yaxshilaydi, balki foydalanuvchining jismoniy qulayligi, harakat erkinligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi. Shu bois zamonaviy kiyim dizaynida ergonomik modellashtirish innovatsion konstruksiyalashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi [5].

Xulosa. Turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik konstruksiya yaratish kiyimning qulayligi, funksionalligi, estetik ko‘rinishi va individual mosligini oshiradi. Antropometrik tahlil, konstruktiv modellashtirish va ergonomik yondashuv asosida ishlab chiqilgan konstruksiyalar standart usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Individual qomat xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy kiyim dizaynida sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi va foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada to‘liq qondiradi. Ergonomik konstruksiyalash yengil sanoatning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida zamonaviy moda sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР. – Москва: Легпромбытиздат, 1988. – 48–112-betlar.
2. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструирование и технология изготовления женской одежды. – Москва: Легкая индустрия, 1987. – 35–96-betlar.
3. Ермилова Д.Ю. История домов моды. – Москва: Академия, 2003. – 52–88-betlar.
4. Сунаева С.А. Эргономика в дизайне костюма. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 41–79-betlar.
5. Qosimov S.K. Kiyim konstruksiyasini loyihalash asoslari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018. – 27–84-betlar.

YOSHLAR KIYIMLARINI LOYIHALASHDA MATNLI DIZAYNINING AHAMIYATINI O’RGANISH

Magistratura talabasi Umaraliyeva D.M., dots.Vaxidova U.A.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Metallurgiya sanoati yuqori xavfli ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ishchilar ko‘pincha 1000°C dan yuqori harorat, eritilgan metall sachrashlari va infraqizil nurlanish ta’siriga duch keladi. Shu sababli maxsus himoya kiyimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

An’anaviy paxta yoki sintetik matolar bunday ekstremal sharoitlarda yetarli himoya bera olmaydi. Shu sababli, yangi avlod olovbardosh materiallar va ko‘p qatlamli tekstil tizimlarini ishlab chiqish talab etiladi[1].

Materiallar tanlashda quyidagi issiqqa chidamli tolalar ishlatildi:

- Bazalt tolasi (yuqori haroratga chidamlilik: ~800–1000°C)
- Aramid tolasi (Nomex, Kevlar)
- Alyuminizatsiyalangan matolar (issiqlik nurlanishini qaytaradi)

Tajriba usullarida materiallar quyidagi testlardan o‘tkazildi:

- Issiqlik qarshiligi testi (ISO 6942)
- Eritilgan metall tomchilari ta’siri testi
- Mexanik mustahkamlik (uzilish, ishqalanish)
- Termal degradatsiya analizi[2]

Kiyim konstruksiyasi uchun ko‘p qatlamli tizim ishlab chiqildi:

1. Tashqi qatlam – alyuminizatsiyalangan bazalt mato
2. O‘rta qatlam – issiqlik izolyatsiyasi (aramid + bazalt aralashmasi)
3. Ichki qatlam – gigiyenik va qulaylikni ta’minlovchi mato
4. Tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:
5. Issiqlik himoyasi uchun bazalt va aramid tolalar kombinatsiyasi issiqlik o‘tkazuvchanligini 25–35% ga kamaytirdi.

1-rasm. Qatlam tuzilmasi.

Eritilgan metallga chidamlilik

Alyuminizatsiyalangan qatlam:

- Metall tomchilarining yopishishini kamaytirdi
- Sirt haroratini pasaytirdi

Mexanik xususiyatlar

Aramid tolalar qo‘shilishi:

- Matoning uzilish mustahkamligini oshirdi
- Ishqalanishga chidamliligini yaxshiladi

2-rasm. Metallurgiya sanoatida ishlovchi xodimlar uchun tikilgan namunalar

Optimal struktura

Eng samarali kombinatsiya:

- 50% bazalt tolasi
- 30% aramid tolasi
- 20% maxsus sintetik tolalar[3]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yagona materialdan foydalanish yetarli emas. Ko‘p qatlamli tizim va turli tolalar kombinatsiyasi maksimal himoyani ta’minlaydi.

Bazalt tolasi yuqori haroratga chidamlilikni ta’minlasa, aramid tolalar mexanik mustahkamlikni oshiradi. Alyuminizatsiya esa issiqlik nurlanishini qaytarishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, metallurgiya sanoati uchun olovbardosh kiyimlarni loyihalashda quyidagi omillar muhim:

- Ko‘p qatlamli struktura
- Issiqqa chidamli tolalar kombinatsiyasi
- Alyuminizatsiyalangan tashqi qatlam

Taklif etilgan model ishchilarning xavfsizligini oshirish bilan birga, kiyimning xizmat muddatini ham uzaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horrocks A.R., Anand S.C. *Handbook of Technical Textiles*.
2. ISO 11612: Protective clothing against heat and flame.
3. Militky J., et al. *Special Textile Fibres*.

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLARDAN CHUVILGAN XOM IPAKNING IQTISODIY SAMARADORLIK HISOBI

texnika fanlari doktori, professor. A.E.Gulamov
texnika fanlari falsafa doktori, N.B.Esanova,
tadqiqotchi assistent U.B.Umirov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada intensiv usulda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalarini chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyasi takomillashtirildi. Takomillashtirilgan texnologiya pishirish vaqtini 15 % ga, pilla sarfini 4 % ga kamaytirib, dastgoh unumdorligini 16 % ga oshirdi hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minladi.*

Аннотация. *В данной статье В работе усовершенствованы технологии подготовки и размотки коконов гибридов Зарафшон-2 и Зарафшон-3, выращенных интенсивным методом. Предлагаемая технология сократила время варки коконов на 15 %, расход коконов на 4 % и повысила производительность оборудования на 16 %.*

Abstract. *This article study improved the processing and reeling technology of intensively reared Zarafshon-2 and Zarafshon-3 cocoon hybrids. The proposed technology reduced cocoon cooking time by 15%, decreased cocoon consumption by 4%, and increased reeling machine productivity by 16%.*

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxona Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi “SHAHRISABZ SILK PRODUCTION” mas’uliyati cheklangan jamiyatda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti olimlari ishtirokida pilla chuvish sexida Intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy duragay Zarafshon-2, Zarafshon-3 pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyalarini takomillashtirish orqali, ya’ni muqobil pillalarni bug‘lash rejimlari, chuvish tezliklarini o‘rnatish orqali avtomat pilla chuvish dastgohida sifatli xom ipak chuvib olindi.

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida tut ipak qurtinining Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragaylarini turli boqish mavjud va intensiv usullarida yetishtirib, ulardan olingan natijalarni bir-biri bilan solishtirib ko‘rilganda, iqtisodiy samaradorlik intensiv usulda yetishtirilgan sifatli pillalardan 3A sinfiga mansub xom ipak ishlab chiqarishda yuqori ekanligi aniqlandi. Ipak qurtini boqishda mavjud usulda 1006,8 kg barg sarflangan bo‘lsa, tajriba usulda 871,1 kg barg sarflangan va ozuqa farqi 135,7 kg tashkil etib, boqish kuni mavjud usulda 27 kun bo‘lib, intensiv usulda esa 24 kun davom etib, intensiv usulda boqish kunlari orasidagi farq 3 kunga qisqarishi, olingan tirik pilla hosilining 6,2 kg ga ko‘p bo‘lishi va olingan xom ipakning sifati 3 A sinfiga oshishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

2023 yilda O‘zbekistonda 1 kg ho‘l pilla-27 147 so‘m; fermerlar bilan kelishuv orqali 5 000 so‘m qo‘shilib, jami 32 147 so‘m bo‘lgan [1]. 2024 yildan boshlab pilla narxi 25 % ga oshirilgan, shuningdek, 2025 yildan bozor tamoyillari asosida erkin narxlash amalga oshirilib, pilla narxini davlat belgilashi, fermer va kasanachilar o‘zi yetishtirgan pillani faqat klasterlarga sotishi amaliyotidan voz kechildi [2].

1-jadval

100 quti ipak qurti yetishtirishda intensiv usul orqali erishilgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash

№	Ko‘rsatkich	Qiymat
1	Ozuqa farqi (1 quti)	135,7 kg
2	Boqish kunlari farqi	3
3	Qo‘shimcha tirik pilla hosili	620 kg
4	Quruq pilla miqdori	248 kg
5	Pilla narxi	40 000 so‘m/kg
6	Xom ipak chiqishi	85,5 kg xom ipak
7	1 kg xom ipak narxi (3A sinf)	60 $ = 756 000 so‘m ($ kursi=12600)
8	**88,5 kg** (3A sinfiga mos) **xom ipak uchun foyda**	**64 638 000 so‘m**
9	**Korxona 13% foyda olsa**	8 402 940 so‘m

Hozirgi narx 2024–2025 yillarda 25% ga oshirilishi hisobiga (taxminan) 40 000 – 45 000 so‘m/kg ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda 1 kg 3A sinfiga mos xom ipakni narxi **60 $/kg (~756 000 so‘m/kg)** oralig‘ida deb hisoblanadi (1-jadval).

1. Ozuqa tejalishi (100 quti ipak qurti urug‘i uchun)

135,7 kg × 100 quti = **13 570 kg = 13,57 tonna**

2. Tirik pilladan qo‘shimcha daromad:

620 kg × 40 000 = **24 800 000 so‘m**

3. Xom ipak daromadi:

A) Xom ipak chiqishi:

620 kg tirik pilladan quruq pilla chiqishi - 248 kg

620/2,5=248 kg;

248 kg quruq pilladan xom ipak chiqishi -85,5 kg;

248/2,9=85,5 kg

Solishtirma sarfi **1 kg xom ipak uchun ≈ 2,9 kg pilla**

B) Xom ipak narxlari bo‘yicha daromad 85,5 kg uchun:

(60 $ = 756 000 so‘m/kg):

85,5 × 756 000 = **64 638 000 so‘m;**

Shundan korxona 13% foyda olsa 8 402 940 so‘m ni tashkil etadi.

Intensiv usulda ipak qurti boqishda 100 quti uchun:
13,57 tonna barg tejaladi
620 kg ortiqcha tirik pilla hosil olinadi
85,5 kg yuqori sifatli xom ipak (3A sinf) olinadi.
100 quti intensiv usulda yetishtirilgan pillalardan kutiladigan sof foyda korxona uchun: 8 402 940 so‘mni tashkil etadi.

Respublikamiz hududlarida tut ipak qurtining intensiv usulda yetishtirilgan tajriba pillalarini parvarishlash va pilla yetishitirish pillakashlik korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu esa 3A sinfga to‘g‘ri keladigan xom ipak ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beradi.

Tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya natijasida intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy pillalar uchun dastlabki ishlov berish va chuvish texnologiyasini takomillashtirish orqali xalqaro standart talablarining “3A” sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, pillalarni chuvishga tayyorlash jarayonidagi pishirish vaqti 15% ga, 1 kg xom ipak ishlab chiqarishga ketadigan pillalarni solishtirma sarfi 4 % ga kamayishiga hamda chuvish dastgohini ish unumdorligi 16 % oshishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xom ipak uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3313:2018
2. ttps://xs.uz/uz/post/pilla2023
3. https://kun.uz/529486835. World Bank. Water Pollution from Textile Industry. – Washington, 2021.
4. Gulamov A.E., Esanova N.B., Umirov U.B. Nasirillayev B.U. Sodiqov D.S. “Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari” TTYSIning “O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali” ilmiy-texnika jurnali. 2024-yil №1. 72-81 betlar.
5. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B. Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig‘ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т.27.спец.выпуск №4) . 14-22 betlar.
6. 29. Gulamov A.E. Yangi mahalliy duragay pillalarini chuvish va yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish. Diss. DSc. -Toshkent. -2016. –и. 183-186.

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLALAR UCHUN AVTOMAT PILLA CHUVISH MASHINASINING OPTIMAL TEZLIGINI ANIQLASH

texnika fanlari doktori, professor. A.E.Gulamov
texnika fanlari falsafa doktori, N.B.Esanova,
tadqiqotchi assistent U.B.Umirov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada avtomat pilla chuvish mashinasida pilla chuvish tezligining xom ipak sifati va ishlab chiqarish unumdorligiga ta’siri o‘rganilgan. Pilla iplarining texnologik ko‘rsatkichlari asosida 2,33 teksli 3A sinf xom ipak ishlab chiqarish uchun muqobil chuvish tezliklari aniqlangan.*

Аннотация. *В данной статье В данной работе исследовано влияние скорости размотки коконов на производительность автоматического кокономотального оборудования и качество шелка-сырца. На основе технологических показателей коконной нити определены оптимальные скорости размотки для получения шелка-сырца линейной плотностью 2,33 текс, соответствующего классу качества 3А.*

Abstract. *This article study investigates the effect of cocoon reeling speed on the productivity of automatic reeling machines and the quality of raw silk. Based on the technological characteristics of cocoon filaments, optimal reeling speeds were determined for producing 2.33 tex raw silk that meets the requirements of the 3A quality grade.*

Pillani chuvishdan maqsad uzunligi bo‘yicha silliq va chiziqiy zichligi bo‘yicha bir tekis bo‘lgan kompleks iplarni shakllantirishdan iborat. Bunday kompleks iplar xom ipak deb yuritilib, bir nechta pilla iplarini chuvish yo‘li bilan hosil qilinadi. Bundagi asosiy vazifa yordamchi materiallar va mehnat sarfini iloji boricha kamaytirishdan iborat. Pilla chuvish jarayonlarini shartli to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: Pillalarni chuvishga dastlabki tayyorlash uchun qobiqni qattiqligi, kalibri va tashqi belgilari bo‘yicha saralash; pillalarni chuvishga tayyorlash pilladagi seritsinni yumshatish, pillani suv bilan to‘ldirish, yakka uchini topish va ularni ajratish; pilla chuvish-pilla iplaridan xom ipakni shakllantirish va charxga yig‘ish; nazorat-yig‘uv charxdan tushirilgan xom ipak mollik mahsulot ko‘rinishiga keltirish va tayyor mahsulot omboriga olib tushishdan iborat [1].

Avtomat pilla chuvish mashinasida pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Pillalar chuvishda o‘rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Avtomat pilla chuvish mashinasida pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Pillalar chuvishda

o‘rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o‘z tasirini ko‘rsatadi.

Pilla chuvish avtomatida muqobil chuvish tezligini o‘rnatish.

Chuvish tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$v = \frac{N \cdot l_{uu} \cdot T_p}{T_{xi} \cdot m} \cdot K \quad (1)$$

bu yerda,

N – 1 minutda 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar tagiga tashlanadigan pillalar meyori (1 minutda 1 tozdagi ilgichlarga 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarish uchun) tashlanadigan pillalar soni mos ravishda 22;

l_{uu} - pilla ipining uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m;

$T_{p.i.}$ – pilla ipining chiziqli zichligi, teks;

$T_{x.i.}$ – xom ipakning berilgan chiziqli zichligi, teks;

m – 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar soni ta (20);

$$K = K_s \cdot K_t \quad (2)$$

bu yerda,

K_s – sirpanish hisobiga tezlikni yo‘qotish koeffisiyenti (0,95);

K_t – mos keluvchi to‘xtashlarni hisobga olgan holda charx ishlashining koeffisiyenti (0,90).

Pilla chuvishning hisobiy tezligi ishlab chiqarish normasini va ipak mahsulotlari chiqishini o‘rnatishda bir smena davomida oltita tozda pillalarni chuvish orqali tekshirildi [2-3].

Tadqiqotlar natijasida olingan pilla iplarining texnologik ko‘rsatkichlari asosida standartning “3A” sinfi talablariga mos 2,33 teks xom ipak ishlab chiqarish uchun hisoblangan miqobil chuvish tezlik intensiv usulda yetishtirilgan duragayi pillalarni chuvishda 134 m/min bo‘lishi tavsiya etildi. Mavjud usulda yetishtirilgan pillalar uchun hisoblangan muqobil chuvish tezligi esa 112 m/min ni tashkil qildi

Pilla chuvishdan maqsad berilgan chiziqli zichlikdagi sifatli, ya’ni mustahkam, elastik, jips, tozaligi yaxshi bo‘lgan sifatli xom ipak olishdir. Bu jarayon bir nechta pilla iplarini qo‘shib chuvish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Pillalar iplarining uzunligiga bog‘liq ravishda chuviladi va shuning uchun ularni dastada bo‘lish vaqti ham har xil bo‘ladi [4; 102-b.].

Xom ipakning birinchi darajali sifat ko‘rsatkichlariga ipning chiziqli zichligi bo‘yicha notekisligi, chiziqli zichligi bo‘yicha og‘ishi, yirik nuqsonlari bo‘yicha tozalik ko‘rsatkichlari kiradi. Xom ipakning ikkinchi darajali sifat ko‘rsatkichlari esa qayta o‘ralish qobiliyati, iplarning uzilishidagi uzayishi, solishtirma uzish kuchi, mayda nuqsonlar bo‘yicha tozaligi, kalavalarning holati va iplarning jipsligi tashkil qiladi [5; 88-94-b.].

Yuqori namlik sharoitda yetishtirilgan va ratsional rejimlarda quritilgan pillalardan olingan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ma’lumki, ipak qurtining zoti, ipning uzilish kuchi va uzilishdagi cho‘zilishi, chiziqli zichligi, diametri va uzunligi, ipni pillaning qaysi qobiq qavatidan olinganligi, namligi pilla ipi xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi [6; 50-51-b.].

Yakka tartibda pilla chuvishdan olingan ma’lumotlarga tayanib hamda bug‘lash va yakka uchini topishdagi rejimlar o‘rnatilib, avtomat pilla chuvish dastgohida 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarildi. Chuvish jarayonlari o‘rnatilgan texnologik xarita bo‘yicha olib borildi. Tajriba davomida pishirib uchlari topilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalari FY-2000 NT pilla chuvish avtomatida chuvildi. Chuvib olingan xom ipak esa ZJ-188A markali qayta o‘rash mashinasida standart P=1,5 mlik kalavalarga qayta o‘rab olindi.

Tahlillar natijasiga, ko‘ra intensiv respublikamiz hududlarida tut ipak qurtining intensiv usulda yetishtirilgan tajriba pillalarini parvarishlash va pilla yetishitirish pillakashlik korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu esa 3A sinfga to‘g‘ri keladigan xom ipak ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beradi. Intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun muqobil chuvish parametrlari o‘rnatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esanova N.B. Intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish. Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2026. 86-bet.
2. Алимова Х.А., Кобулова Н., Гуламов А.Э. Основы производства высококачественного шелка-сырца из живых коконов // «Проблемы текстиля» научно-технический журнал. -Ташкент. -2006.-№2. -С.62-64.
3. Alimova X.A., Gulamov A.E., Aripdjanova D.U., Axmedov J.A. Мировое производство и потребление текстильного сырья // J. Композиционние материали. -2013. -№4. -S. 71-74.
4. Bobatov U.A. Turli ekologik hududlarda yetishtiriladigan pillalarni chuvish texnologiyasini takomillashtirish Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2023. – B. 102.
5. Gulamov A.E., Esanova N.B., Umirov U.B. Nasirillayev B.U. Sodiqov D.S. “Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari” TTYSIning “O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali” ilmiy-texnika jurnali. 2024-yil №1. 72-81 betlar.
6. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B. Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig‘ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, T.27.спец.выпуск №4). 14-22 betlar.

PAXTA-AKRILIK ARALASH IPLARNING MEXANIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

O.O. Rajapov, PhD, dotsent, U.O. Nurjonov, doktorant
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda 20 tex chiziqli zichlikdagi paxta-akrilik aralash ip (85/15 va 70/30 nisbatdagi namunalar) standart cho‘zish sinovi (TEXTECHNO STATIMAT ME qurilmasi, ISO 2062 metodologiyasi) asosida tahlil qilingan. Olingan natijalar 100% paxta ipining adabiyot ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, akril tolasi ulushining mexanik xususiyatlarga ta’siri statistik baholangan.*

Kirish. To‘qimachilik sanoatida tabiiy va sintetik tolalarni aralashtirish tayyor mahsulotning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Akril tolasi yuqori issiqlik saqlash, yorqin bo‘yalish va kimyoviy barqarorlikka ega bo‘lsa, paxta o‘zining gigroskopikligi va havo o‘tkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Mahalliy xomashyo bazasida ishlab chiqarilgan aralash iplarning mexanik ko‘rsatkichlarini tizimli o‘rganish texnologik jarayonlarni optimallashtirish va raqobatdosh mahsulotlar yaratishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu ishning maqsadi paxta/akril (85/15 va 70/30) aralash iplarining mustahkamlik va cho‘zilish ko‘rsatkichlarini eksperimental baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda quyidagi namunalar o‘rganildi: (I) paxta/akril 85/15 aralash ip (23.05 tex) va (II) paxta/akril 70/30 aralash ip (23.18 tex). Namunalar ISO 139 standarti bo‘yicha konditsiyalandi. Taqqoslash uchun 23 tex chiziqli zichlikdagi 100% paxta ipining adabiyot ma’lumotlari bazaviy qiymat sifatida olindi.

Cho‘zish sinovlari ISO 2062:2009 talablariga muvofiq **TEXTECHNO STATIMAT ME** qurilmasida (Yuk o‘lchagich 100 N, o‘lchov bazasi 500 mm, sinov tezligi 500 mm/min, dastlabki zo‘riqish 0.5 cN/tex) o‘tkazildi. Har bir guruh uchun 10 ta mustaqil o‘lchov bajarildi. Statistik tahlil va guruhlararo farqlar bir tomonlama dispersiya tahlili (ANOVA, $p < 0.05$) orqali baholandi.

Natijalar va ularning tahlili. O‘tkazilgan eksperimentlar natijasida aralashma tarkibidagi akril tolasi ulushining ortishi ipning mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ijobiy, cho‘zilish qobiliyatiga esa murakkab ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Iplarning asosiy mexanik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	100% Paxta	Paxta/Akril 85/15	Paxta/Akril 70/30	F-test (p<0.05)
Mustahkamlik, cN/tex (O‘rtacha)	8.70	11.36	13.28	Ha
Mustahkamlik, CV%	9.14	5.58	10.65	-
Cho‘zilish (\(F_{max}\)), % (O‘rtacha)	6.48	3.89	4.25	Ha
Cho‘zilish, CV%	11.20	15.55	9.36	-
Maksimal kuch, cN (O‘rtacha)	199.25	261.89	307.86	Ha
Uzilish ishi, cN·cm (O‘rtacha)	212.30	287.83	371.72	Ha

Akril tarkibining ortishi ip mustahkamligini izchil oshiradi: 85/15 nisbatida sof paxtaga nisbatan 30.6% ga, 70/30 nisbatida esa 52.6% ga o‘sish kuzatildi. Bu holat akril tolasining yuqori moduli va mustahkam kovalent bog‘li polimer zanjiri tuzilishi bilan izohlanadi.

Cho‘zilish qobiliyati aralash iplarda sof paxtaga (6.48%) nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, 70/30 namunasida (4.25%) 85/15 namunasiga (3.89%) qaraganda biroz yuqori bo‘ldi. Bu tolalararo murakkab geometrik o‘zaro ta’sir va egrish texnologiyasidagi strukturaviy o‘zgarishlar ehtimoli bilan bog‘liq.

Uster standartlariga ko‘ra, halqali egrish iplari uchun CV% < 6% a’lo daraja hisoblanadi. 85/15 namunasining mustahkamlik bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti (CV% = 5.58) yuqori sifat barqarorligini ko‘rsatadi. Biroq uning cho‘zilish bo‘yicha koeffitsiyenti (CV% = 15.55) egrish jarayonida bir xillikni yaxshilash zarurligini bildiradi. Uzilish ishi ko‘rsatkichi ham 70/30 namunasida maksimal qiymatga (371.72 cN·cm) yetdi, bu esa mahsulotning mexanik zo‘riqishlarga chidamliligini oshiradi.

Xulosalar

1. Aralashmada akril ulushining 15% dan 30% gacha oshishi ip mustahkamligini sof paxtaga nisbatan mos ravishda 30.6% va 52.6% ga oshiradi.
2. Ipning cho‘ziluvchanligi akril kiritilishi bilan kamayadi (3.89% va 4.25%), biroq tarkibiy komponentlar nisbati optimal texnologik muvozanatni talab qiladi.
3. 85/15 tarkibli ip mustahkamlik bo‘yicha eng yuqori takrorlanuvchanlik va barqarorlikni (CV% = 5.58) namoyon etdi.
4. Aralash iplarda uzilish ishining sezilarli o‘sishi (75.1% gacha) ushbu iplarni yuqori yuklamali texnik to‘qimachilik va maxsus kiyimlar ishlab chiqarishda qo‘llash samaradorligini isbotlaydi.

INSON–KIYIM–ATROF-MUHIT TIZIMIDA QULAYLIK HOLATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Ilmiy rahbar t.f.f.n dot.N.X.Mirtolipova
Stajyor tadqiqotchi M.B.Norqobilova

Annotatsiya.. *Kiyimning estetik, ijtimoiy, himoya va hayo funksiyalari , qulaylik holatining shakllanishida fizik, fiziologik, neyrofiziologik va psixologik jarayonlarning o‘zaro ta’siri ,. kiyim qulayligi inson organizmi, kiyim xususiyatlari va atrof-muhit omillarining integratsiyalashgan ta’siri*

Annotatsiya.. *Kiyimning estetik, ijtimoiy, himoya va hayo funksiyalari , qulaylik holatining shakllanishida fizik, fiziologik, neyrofiziologik va psixologik jarayonlarning o‘zaro ta’siri ,. kiyim qulayligi inson organizmi, kiyim xususiyatlari va atrof-muhit omillarining integratsiyalashgan ta’siri*

Abstract. *This paper examines the aesthetic, social, protective, and modesty-related functions of clothing. The interaction of physical, physiological, neurophysiological, and psychological processes involved in the formation of comfort is analyzed. The study demonstrates that clothing comfort is determined by the integrated influence of human physiological characteristics, clothing properties, and environmental factors.*

Kiyim inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u bir nechta funksiyalarga ega: bezak, ijtimoiy mavqe, himoya va hayo (modestlik).Kiyim zamonaviy moda va estetik joziba orqali odamga tashqi ko‘rinishidan mamnun bo‘lish hissini beradi. Yaxshi mos tushadigan va hashamatli kiyim insonning ijtimoiy mavqeini oshirib, qoniqish hissini beradi.Kiyim hayo funksiyasini ham bajaradi, ya’ni inson tanasini to‘g‘ri yopib, jamiyat me’yorlariga mos bo‘lish va tanadagi kamchiliklarni yashirish orqali psixologik qulaylik yaratadi.Biroq kiyimning asosiy vazifasi — tanani noqulay tashqi muhitdan himoya qiluvchi qatlamlar yaratishdir. Bu himoya quyidagi funksiyalarni o‘z ichiga oladi:

1.Tana uchun zarur bo‘lgan issiqlik muhitini saqlash;

2.Ishqalanish, nurlanish, shamol, elektr, kimyoviy va mikrobiologik zararli moddalardan himoya qilish.

Bu an’anaviy tasniflangan funksiyalar kiyimning inson tanasi va atrof-muhit o‘rtasidagi interfeysda juda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.Subyektiv qulaylik qanday shakllanishini tushunish uchun inson–kiyim o‘zaro ta’sirini ochiq tizim sifatida ko‘rish mumkin (1-rasm). Inson tanasi doimiy ravishda atrof-muhit bilan fizik, sezgi, psixologik va axborot jihatidan dinamik o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Bu tizimda qulaylik holatini belgilovchi bir nechta jarayonlar mavjud:

Fizik jarayonlar – kiyim va atrof-muhitdagi issiqlik va namlik almashinuvi, kiyim va tana o‘rtasidagi mexanik ta’sirlar, hamda kiyim tomonidan yorug‘likning qaytarilishi va yutilishi. Bu jarayonlar tanaga fizik stimullar (signallar) beradi.

2. Fiziologik jarayonlar

Masalan, tananing issiqlik muvozanati, termoregulyatsion javoblar va kiyim hamda atrof-muhit bilan dinamik o‘zaro ta’sirlar. Bu jarayonlar tananing fiziologik holatini va kritik sharoitlarda uning yashab qolishini belgilaydi.



1.rasm.Inson va kiyim tizimi.

3. Neyrofiziologik jarayonlar

Bular tanadagi sezgi qabul qilish tizimining (teri, ko‘z va boshqa organlar) neyrofiziologik mexanizmlaridir. Aynan shu tizim orqali tana va kiyim hamda atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlardan sezgi signallari shakllanadi.

4. Psixologik jarayonlar

Bular miya tomonidan neyrofiziologik sezgi signallaridan subyektiv sezgilarni shakllantirish jarayonlari bo‘lib, so‘ngra turli sezgi idroklarini avvalgi tajribalar va ichki istaklar bilan solishtirib, baholab umumiy subyektiv tasavvur va afzalliklarni hosil qiladi.

Bu to‘rt turdagi jarayonlar bir vaqtda (parallel ravishda) sodir bo‘ladi. Atrof-muhit va kiyimdagi fizik jarayonlar fizika qonunlariga bo‘ysunadi va ular tananing yashashi hamda qulayligi uchun zarur fizik sharoitlarni belgilaydi.Tananing termoregulyatsion javoblari va teri nerv uchlarining sezgi reaksiyalari esa fiziologiya qonunlariga bo‘ysunadi. Bu tizimlar kiyim va muhitdan kelayotgan fizik stimullarga javob berib, tananing yashashi uchun mos fiziologik sharoitlar ta’minlanishini va qulaylik holatiga ta’sir qiluvchi fizik sharoitlar haqida miyaga ma’lumot uzatilishini ta’minlaydi.Psixologik jarayonlar eng murakkab bo‘lib, hozircha to‘liq tushunilmagan jarayonlardir. Miya nerv uchlaridan kelgan sezgi signallaridan subyektiv tasavvur hosil qiladi, ularni avvalgi tajriba, ichki istaklar va tashqi ta’sirlar bilan solishtiradi va baholaydi. Shu

jarayonlar orqali miya umumiy qulaylik holati, qaror va afzalliklarni shakllantiradi.Boshqa tomondan, miya psixologik kuch orqali tananing fiziologik holatiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, terlash, qon aylanishining o‘zgarishi va titrash (qaltirash) kabi jarayonlar yuzaga keladi. Bu fiziologik o‘zgarishlar esa kiyim va tashqi muhitdagi fizik jarayonlarni ham o‘zgartiradi.Bu to‘rt turdagi jarayonlar doimiy va dinamik tarzda o‘zaro ta’sirlashadi va har qanday aniq vaqtda foydalanuvchining qulaylik holatini belgilaydi. Shuning uchun qulaylik holati — bu barcha fizik, fiziologik, neyrofiziologik va psixologik jarayonlar hamda omillarning integratsiyasi asosida hosil bo‘ladigan subyektiv idrok va bahodir.



HARORATNI BOSHQARUVCHI AQLLI MATOLAR VA ULARNING SOVITISH XUSUSIYATLARI AQLLI MATOLARDA PASSIV SOVITISH TEXNOLOGIYASI

Ilmiy rahbar t.f.f.n dot.N.X.Mirtolipova
Stajyor tadqiqotchi M.B.Norqobilova

Annotatsiya. Ushbu tezisda passiv radiatsion sovitish texnologiyasiga asoslangan aqlli to‘qimachilik materiallarining ishlash prinsiplari, ishlab chiqarish usullari va qo‘llanish istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, tabiiy organizmlardagi issiqlik boshqarish mexanizmlaridan ilhomlangan biomimetik yondashuvlarning zamonaviy termoregulyatsion matolar yaratishdagi ahamiyati yoritilgan.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida energiya resurslaridan oqilona foydalanish va insonning issiqlik qulayligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi va global iqlim o‘zgarishi natijasida sovitish tizimlariga bo‘lgan talab yildan-yilga oshib bormoqda. Biroq an’anaviy konditsioner va ventilyatsiya tizimlari katta miqdorda energiya sarflaydi. Shu sababli energiya talab qilmaydigan, ekologik xavfsiz va samarali sovitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

So‘nggi yillarda passiv radiatsion sovitish texnologiyasi asosida yaratilayotgan termoregulyatsion to‘qimachilik materiallari katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu texnologiya inson tanasi chiqarayotgan issiqlikni tashqi muhitga tabiiy ravishda uzatish orqali sovitish effektini hosil qiladi. Natijada foydalanuvchining issiqlik qulayligi ortadi va qo‘shimcha energiya sarf qiluvchi qurilmalarga ehtiyoj kamayadi.

Inson organizmi doimiy ravishda issiqlik ishlab chiqaradi va uni atrof-muhitga uzatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, tana chiqaradigan issiqlikning 50–60 foizi radiatsiya, ya’ni infraqizil nurlanish orqali tarqaladi. Shu sababli matolarning infraqizil nurlanishni o‘tkazish yoki chiqarish xususiyatlarini boshqarish insonning termal holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Passiv radiatsion sovitishning asosiy vazifasi ikki omilga asoslanadi. Birinchidan, quyoshdan kelayotgan nurlarning maksimal qismini qaytarish orqali materialning qizishini kamaytirish. Ikkinchidan, inson tanasidan chiqayotgan issiqlikni o‘rta infraqizil diapazonda samarali ravishda tashqi muhitga chiqarishdir. Aynan shu ikki xususiyat yuqori sovitish samaradorligini ta’minlaydi.

Passiv sovituvchi matolarni yaratishda bir nechta zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi. Ulardan biri funksional qoplamalar hosil qilish usulidir. Bu usulda mato yuzasiga titan dioksidi (TiO_2), bor nitridi yoki boshqa nanozarrachalar bilan qoplama beriladi. Natijada matoning quyosh nurlarini qaytarish qobiliyati ortadi.

Yana bir samarali usul nanotalalarni elektrospinning texnologiyasi orqali ishlab chiqarish hisoblanadi. Ushbu usul yordamida diametri nanometr o‘lchamdagi tolalar olinadi va ulardan yuqori g‘ovaklikka ega materiallar tayyorlanadi. Bunday tuzilma issiqlik almashinuvini yaxshilaydi hamda sovitish effektini kuchaytiradi.

Tolalarni modifikatsiyalash va maxsus yigirish texnologiyalari ham passiv sovitish xususiyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, matolarni to‘qish va trikotajlash jarayonida tolalarning joylashishini boshqarish orqali ham issiqlik uzatilishini nazorat qilish mumkin.

Tabiatda passiv sovitishning ko‘plab samarali namunalari uchraydi. Olimlar ushbu tabiiy mexanizmlarni o‘rganib, ularni sun’iy materiallarga tatbiq etishga harakat qilmoqdalar. Bunday yondashuv biomimetika deb ataladi.

Masalan, ipak qurti pillasi murakkab tolali tuzilishga ega bo‘lib, ichki muhit haroratini barqaror saqlashga yordam beradi. Pilla tuzilmasidagi tolalar va havo

bo‘shliqlari issiqlik almashinuvini boshqaradi hamda tashqi muhit haroratining keskin o‘zgarishidan himoya qiladi.

Sahara kumush chumolisi ham tabiiy sovitishning qiziqarli namunalaridan biridir. Uning tanasi mayda kumushsimon tuklar bilan qoplangan bo‘lib, ular quyosh nurlarining katta qismini qaytaradi. Shu bilan birga, ushbu tuklar issiqlikning infraqizil diapazonda tarqalishini kuchaytiradi.

Shuningdek, ayrim qo‘ng‘izlar va kapalaklarning oq rangli mikrostrukturali qanotlari ham yuqori reflektivlikka ega. Ular quyosh energiyasini qaytarish va tana haroratini pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur biologik tuzilmalar asosida yangi avlod sovituvchi matolar ishlab chiqilmoqda.

Passiv sovituvchi aqlli matolar sport kiyimlari, harbiy forma, maxsus ish kiyimlari va kundalik kiyimlarda keng qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa issiq iqlim sharoitida ishlovchi insonlar uchun bunday materiallar katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu texnologiya tibbiyot, qurilish va transport sohalarida ham qo‘llanish imkoniyatiga ega.

Kelajakda passiv sovituvchi matolarni ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ularning mexanik mustahkamligini oshirish va uzoq muddatli foydalanish xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilishi zarur.

Passiv radiatsion sovitish texnologiyasiga asoslangan aqlli matolar insonning issiqlik qulayligini ta’minlash va energiya sarfini kamaytirishning istiqbolli vositasi hisoblanadi. Ushbu materiallar quyosh nurlarini qaytarish va infraqizil diapazonda issiqlik chiqarishni kuchaytirish orqali samarali sovitish effektini hosil qiladi. Tabiiy organizmlarning mikro va nanotuzilmalaridan ilhomlangan biomimetik yondashuvlar esa yangi avlod termoregulyatsion matolarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pakdel E., Wang X. Passive Radiative Cooling Enabled Thermoregulatory Textiles and Fibrous Materials. Progress in Materials Science, 2023.
2. Shi N. va boshqalar. Biomimetic Radiative Cooling Structures Inspired by Natural Organisms. Advanced Functional Materials, 2022.
3. Zhang H. va boshqalar. Radiative Cooling Materials for Personal Thermal Management. Nano Energy, 2021.
4. Zeng S. va boshqalar. Personal Thermal Management Textiles: Materials and Applications. Advanced Materials, 2020.

YOSH AVLOD TARBIYASIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

dotsent A.Abdugaffarov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar qilib shakllanishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida takliflar bayon etilgan.*

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние текстильной промышленности Узбекистана, актуальные проблемы и перспективы ее развития.

Abstract: *This article analyzes the current state of the textile industry in Uzbekistan, current problems and prospects for its development.*

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqièt strategiyasida mamlakatimiz ijtimoiy haètida ta’lim sifatini oshirish masala-lariga alohida ahamiyat qaratilgan. Ayniqsa, kelajakni o‘ylab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzièyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida - Yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir‖ - deb aytgan da’vati olamshumul ahamiyatga egadir [1-1].

Mamlakatimizda olib borilayotgan inqilobiy islohotlar jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini oshirish kunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining barcha sohalari zamirida axborot kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojining zamirida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Mahallalar, oilalar yoshlar tarbiyasining o‘chog‘i hisoblanadi.

Yoshlar, asosan, shu joylarda toblanadilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” deb ko‘rsatilib o‘tilgan [2-23 b.]. Ayniqsa, yangi kelajak avlod va uning qobiliyat-larini bunyodkorlik ruhida shakllantirish hamda rivojlantirishning imkoniyatlari va amaliyoti bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda mahallalarda yoshlarning dunyoqa-rashlarining shakllanishida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati oshib bormoqda. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlanishi "axborot asri" deb nomlana boshlandi, chunki XXI asrda axborot-ning roli doimiy ravishda oshib bordi va jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bunday

jamiyatda ta’lim, bilim, axborot va muloqot insonning rivojlanishi va farovonligining asosini tashkil qiladi. Ayniqsa, aholi yashayotgan mahallalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydala-nish katta ahamiyatga ega bo‘lib, mahallalar axborot tizimlari - axborotlarni saqlash, qayta ishlash hamda uzatish metodlari yig‘indisi yaratildi. “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston
Respublikkasining qonunining 12-modddasida quyidagilar belgilangan: Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari: huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda ishtirok etadi; aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etadi; Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin [3]. Yoshlarning axborot kompetensiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Ma’lumot manbalarini to‘g‘ri tanlash qobiliyati;
- Turli manbalardan ma’lumotlarni topish va o‘zgartirish qobiliyati;

Texnik vositalardan foydalanish bo‘yicha aniq ko‘nikmalarga ega bo‘lish qobiliyati;

- O‘z faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati. O‘zbekistonda yoshlarni AKT ta’sirlaridan asrash borasida qilinadigan ishlar quyidagilardan iborat:
- Aloqa fositalaridan foydalanish hamda yoshlar ongiga salbiy tomonlarni ta’sirini kamaytirish choralari:
- AKTdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va ulardan o‘z qobiliyatlarini shakllantirishda maqsadli ish yuritish;
- kommunikatsiya vositalari va kompyuter o‘yinlaridan mutaxassilar yordamida o‘rganib, samarali foydalanish:
- internet kafelar, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari to‘g‘risida ma’lu-motlarga ega bo‘lish. Ayniqsa, nazoratsiz qolgan internet-kafelardan foydala-nuvchilar o‘zlari xohlagan ishlarni qilishi mumkin. Ular tafakkurimizga yot bo‘lgan axborotlardan foydalanishi, xilma-xil odobsizlik va vahshiylikka yo‘naltirilgan, eng yomoni ularning ruhiyatiga ta’sir qiluvchi o‘yinlarni o‘ynashi, tarbiyasini buzuvchi janrdagi musiqalarni tinglashi, fikrlarini salbiy harakatlarga jalb qiluvchi videofilmlarni tomosha qilishi mumkin. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari tizimining mohiyatini tushunish uchun hal qilayotgan muammolar mohiyatini tushunish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF5938-son Farmonida “Fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy

etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish” belgilangan [4].

Mahallalarda bugungi kunlarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. “Oila-mahalla-maktab” munosabatlariga asoslanib ish olib borayotgan va an’anaga aylanib borayotgan bu tizim samarali natijalarga olib kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy, siyosiy madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta’minlash, ularni foydali mashg‘ulotlar bilan band qilish maqsadida hukumatimiz tamonidan ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab internet saytlari va axborot resurslari ishlab chiqilmokda hamda ommaviy foydalanishga yo‘naltirilishi ta’minlanmoqda. Shu bilan birga yoshlarni AKT ta’sirlarndan asrash borasida ham bir qator qilinadigan ishlar belgilanib olingan. Aloka vosntalarndan foydalanishda internet va mobil aloqa tizimlari multimedia va axborot tarqatuvchi vositalardan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllan-tirish bilan birga uning salbiy oqibatlarini tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Asosan AKTdan foydalanishning salbiy jixatlarini ikki turga ajratish mumkin: Birinchidan sixat-salomatlikka ta’sir etsa, ikinchidan yoshlar ma’naviy ongiga ta’sir qilishi mumkin. Jamiyatning quyidagi bug‘inlarida AKTning salbiy xolatlarini oldini olish buyicha tushunchalar berish lozim: - Yoshlar ongiga salbiy tomonlarini ta’sirini kamaytirish choralari: - Oilada – AKTdan foydalanish tartib qoidalarini tushuntirish va nazorat ishlarini tashkil etish; Mahallada - AKT soxasi buyicha ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish, mavjud kompyuter xizmatlarini (internet kafe va boshka) nazorat qilish; O‘quv muassasasida tushintirish ishlarini olib borish;

Foydalanilayotgan uyali aloqalar vositalarida saqlanayotgan ma’lumotlar-ni tekshiruvdan o‘tkazib turish.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kun barkamol avlod yoshlarning tarbiyalashda axborot-komunikatsiya texnologiyalarini o‘rganish yetakchi o‘rinni egallaydi. Ya’ni, bugungi kunning zamonaviy malakali mutaxassisi bo‘lishi uchun zamonaviy bilimdan orqada qolmasligimiz kerakligini kelajak avlod yoshlari ongiga singdirishimiz zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirzièyev. Inson manfaatlari va huquqlarini ta’minlash-demokratik jamiyatning asosidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzièyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 2017 yil 19 sentyabr

2. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021 y. 82-bet.

3. “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”. Toshkent sh.,2017 yil 7 sentyabr,O‘RQ-443-son

4. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi PF5938-sonli Farmoni”. Toshkent sh., 2020 yil 18 fevral, PF-5938-son. 5.M.Axunov. Inson ehtièjlari va èshlarning ma’naviy tarbiyasi. - Ilmiy xabarnoma‖ jurnali,№4, Andijon, 2013 yil.

UYUSHMAGAN YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI

O.Abdugaffarova
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *To‘qimachilik sanoat korxonalari milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoat korxonalarida mahsulot sifatini raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ba’zi taklif va tavsiyalar bayon etilgan.*

Аннотация. *Предприятия текстильной промышленности являются одним из важных секторов национальной экономики. В данной статье представлены некоторые предложения и рекомендации по повышению качества и конкурентоспособности продукции предприятий текстильной промышленности.*

Abstract: *The textile industry is a key sector of the national economy. This article presents proposals and recommendations for improving the quality and competitiveness of textile products.*

Jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, norasmiy guruhlar yoki klublarda faol ishtirok etmaydigan 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uyushmagan deb ta’riflanadi [1]. Ularning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki hech qanday rasmiy platforma, tashkilot, yoshlar guruhi yoki uyushmaga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Fuqarolik va siyosiy faollik butun dunyo bo‘ylab yoshlarning rivojlanishi va o‘sishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy faollik yoshlarga tarmoqlar yaratish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shish orqali o‘z hayotiy ko‘nikmalarini takomillashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda yoshlarning faolligi pasayib, uyushmagan yoshlar o‘z jamoalaridan chiqib ketayotgani haqida xabarlar kelib tushmoqda. Yoshlarning o‘zini ifoda etish imkoniyatidan mahrum ekanligi haqidagi xavotirlar ortib bormoqda [2].

Rivojlangan mamlakatlarda uyushmagan yoshlarning fuqarolik va ijtimoiy faolligining hozirgi holatini hujjatlashtirish ular duch kelayotgan to‘siqlar va yuzaga kelgan tendensiyalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Uyushmagan yoshlarga alohida e’tibor berish kerak, chunki ular yoshlarning katta qismini tashkil etadi va ularning ajralib qolishi ularning rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yoshlar ko‘pincha dunyoni o‘zgartiruvchilar bo‘lib, yoshlarning ishtiroki kelajak uchun juda muhimdir. Ijtimoiy jalb etilganlik bo‘yicha adabiyotlarda ba’zan qarama-qarshi ma’lumotlar keltiriladi va mamlakatlar o‘rtasidagi taqqoslashlar tadqiqot doirasini kengaytiradi,

tendensiyalarning mahalliy yoki universal ekanligini aniqlaydi.

15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar va yoshlar ta’lim tizimidan tashqarida bo‘lgan, rasmiy ishlarga ega bo‘lmagan, uy yumushlari bilan band bo‘lmagan yoki uyushmalar, guruhlar yoki tashkilotlarga a’zo bo‘lmagan uyushmagan yoshlar sifatida belgilanadi [2]. Bundan tashqari, bu yoshlar o‘qitilmasligi, amaliyot o‘tamasligi yoki almashtirilmasligi kerak. Bu guruh aholining katta qismini tashkil etib, ayniqsa, ma’lumoti past bo‘lgan kishilar orasida keng tarqalgan. Ularning ijtimoiy faolligi davlat siyosatining jiddiy muammosiga aylanmoqda. Uyushmagan yoshlar uyushgan yoshlarning xulq-atvoriga o‘xshash ijtimoiy xulq-atvorni namoyon qiladi, ammo uyushmagan yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir muammosi uyushgan yoshlar muammosiga nisbatan kamroq aniq ifodalangan. Ijtimoiy faollik ko‘pincha daxldorlik va farovonlik hissi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faol bo‘lib qolishini ta’minlash barcha rivojlangan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. 15 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning 80 foizdan ortig‘i uyushmagan bo‘lsa ham, faollikni namoyish etadi. Yoshlar norasmiy guruh uchrashuvlari, do‘stlarni jalb qilish yoki onlayn platformalar orqali ishtirok etish kabi kanallar orqali aloqalar o‘rnatadilar, shu bilan birga uyushmagan holda qoladilar. Ushbu tadbirlar orqali yoshlar bir-birlariga ta’sir ko‘rsatadilar va o‘zlari yashayotgan joyda tegishlilik hissini yaratadilar.

Rasmiy institutlar yoki tashkilotlarga jalb etilmagan yoshlarni "uyushmagan" deb atashadi. Ushbu toifa, ayniqsa, fuqarolik faolligini tahlil qilish uchun dolzarbdir, chunki uyushmagan yoshlar demokratik jarayonda kamroq ko‘zga tashlanadi va ularni fuqarolik ta’limi bo‘yicha an’anaviy tashabbuslar bilan qamrab olish qiyinroqdir [2]. Uyushmagan yoshlar, shuningdek, radikallashuv yoki qurbon bo‘lish kabi ijtimoiy muammolarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Ishtirok etish yoshlarning ijtimoiy muammolardan xabardorligini oshirishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Ushbu cheklovlar, odatda, uyushmagan yoshlarning fuqarolik faolligidagi bo‘shliqlarni aks ettiradi.

Ma’lumotlar Talabalarning xalqaro o‘zlashtirishini baholash dasturining (PISA) ikkinchi to‘lqinida ishtirok etuvchi 17 ta rivojlangan mamlakatlardan (15 ta Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Kanada, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Shveytsariya va AQSH) to‘plangan. PISA ma’lumotlar to‘plami 15 yoshli 300 000 ga yaqin o‘quvchining maktab bilan bog‘liq fuqarolik faolligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Maktabda va maktabdan tashqarida o‘tkazilayotgan tadbirlarda yoshlarning ishtiroki darajasi alohida tahlil qilindi. PISA tadqiqotiga kiritilgan mamlakatlar fuqarolik faolligi to‘g‘risida yetarlicha taqqoslanadigan mamlakatlararo ma’lumotlarni taqdim etish uchun tanlangan.

Rivojlangan mamlakatlararo tadqiqotning sharti shundaki, rivojlangan mamlakatlarda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy faolligini tushunish uchun

ularning ishtirokining nisbiy darajasini ham, ishtirok etish turlarini ham o‘rganish zarur. Muayyan o‘zaro ta’sir shakllari yuqori darajadagi ishtirokni qanday taqozo etishi haqida ilgari tavsiflangan munosabatlarni hisobga olish kerak. Avstraliya, Kanada, Daniya, Niderlandiya, Norvegiya va Shvetsiya bo‘yicha milliy ma’lumotlar to‘plamlariga asoslangan ushbu haqiqiy ma’lumotlarni ko‘rib chiqish natijasida aniqlangan ijtimoiy ishtirokning ustuvor modellari ikkala yo‘nalish bo‘yicha tasniflanishi mumkin.

Ushbu olti mamlakatdagi uyushmagan yoshlar, aniqrog‘i, 15-29 yoshdagi, na rasmiy ta’lim va na ish bilan ta’minlanmagan yoshlar, odatda, boshqa odamlar bilan asosan oilaviy aloqalar va haq to‘lanadigan ish orqali muloqot qilishadi. Ushbu ikki yetakchi shakldan tashqari, quyidagi eng keng tarqalgan faoliyat turlari jamoat joylarida ijtimoiy va fuqarolik faolligining uyg‘unlashuvidir: masalan, sport klublari yoki tashkilotlarida ishtirok etish, shuningdek, mahalliy muassasalar va uyushmalar orqali ko‘ngilli ishlarda qatnashish. Bunday imkoniyatlar yoshlarga nafaqat oila, ish yoki do‘stlik aloqalari orqali muloqot qilmaydigan tengdoshlari bilan yangi aloqalarni o‘rnatish, balki norasmiy rahbarlik funksiyalarini bajarish, masalan, mahalliy petank klubiga yordam berish yoki yoshlarni sportga o‘rgatish orqali fuqarolik faolligini oshirish imkonini beradi. [2]

